

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR FAKULTETI
“KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR” KAFEDRASI



“KIMYOVIY INJINIRING JARAYONLARI VA QURILMALARI”
fanidan laboratoriya mashg`ulotlarini bajarishga oid
O'QUV USLUBIY QO'LLANMA



URGANCH-2021

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasi majlisida (Bayeron nomda № 8, 2021 yil) va Kimyoviy texnologiyalar fakulteti o'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan (№ 8 2021 yil) va UrDU ilmiy uslubiy kengashida tavsiya etilgan.


Tuzuvchilar:

Babayev Z.K.  "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasi professori

Buranova D.B.  "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasi o'qituvchisi

Djumaniyazov Z.B.  "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Matchanov Sh.K.  "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Ro'ziyev I.S.  "Transport tizimlari" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

ANNOTATSIYA

Labaratoriya mashg'ulot darsi ma'ruzada o'tilgan mavzularni to'liq va chuqur o'rghanishda juda katta axamiyatga ega o'quv darslarining eng aktiv turlaridan biri bo'lib, talabaning mustaqil o'quv tashkil qilishga va yo'naltirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlari doimo ma'ruza o'tilgandan keyin bajarilishi kerak, shundagina uning foydasi to'liq bo'ladi. Talaba o'tilgan mavzu bo'yicha tajribalar o'tkazib u yoki bu qoidaning to'g'rilingiga eksperiment orqali ishonch xosil qilib, asosiy texnologik jarayon va qurilmalar bo'yicha eshitgan ma'ruzalardan olgan bilimlarini mustaxkamlab boradi. Har bir laboratoriya ishini bajarishdan oldin shu mavzuga oid nazorat ishi o'tkaziladi yoki har bir talaba bilan individual ishlanadi va doskaga chiqarib so'raladi.

Ushbu qo'llanma “KIMYOVİY INJINİRİNG JARAYONLARI VA QURİLMALARI” dasturi asosida tuzilgan bo'lib, 5320400 – Kimyoviy texnologiya (silikat materiallari), 5320400 – Kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar) ta`lim yo`nalishlari bakalavrлari uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma Davlat o'quv dasturi asosida yoritilgan.

Mashg'ulot o'tkazish texnikasi va uning ahamiyati

Mashg'ulotlarni bajarishda talabalar, dastlab reaktiv va asboblardan foydalanish qoidalari xamda tajribalarni aniq bajarish texnikasi bilan tanishtiriladi.

Labaratoriya mashg'ulotlarni nazariy tushunchalar bilan birgalikda olib borilgandagina talabalarning o'zlashtirish unumli va samarali bo'ladi.

Talabalarni laboratoriyada amaliy mashg'ulot bajaradigan asosiy joyi ish stolidir. Ish stoli doimo toza bo'lishi kerak. Laboratoriya mashg'ulotlarini faqatgina qunt va aniqlik bilan bajarilgandagina kutilgan natijalarga ega bo'lishlik mumkin. Ishga etiborsizlik bilan qarash esa bajariladigan ish natijalarining xato chiqishiga sabab bo'ladi. Tajribani to'g'ri bajarish uchun xom ashyolarni ko'rsatilgan miqdorda olish lozim. Disterlangan suv, gaz va elektr energiyasini tejab sarflash kerak. Tartib va ozodalikni ish joyidagina emas, balki laboratoriyada xam saqlash lozim.

Har bir labaratoriya mashg'ulotni bajarishdan oldin, talabalar oldingi ish yuzasidan xisobot tuzib o'qituvchiga ko'rsatadilar. So'ng navbatdagi laboratoriya ishini bajarishga ruxsat etiladi.

Yangi ishni boshlashdan avval o'qituvchi talabalardan shu ishning mazmunini qanchalik darajada bilib olganliklarini tekshirib ko'rishi lozim. Talabalar nazariy tushunchalarni o'zlashtirib, tajriba texnikasini tushunib olganliklariga ishonch xosil qilganidan keyingina navbatdagi ishni bajarish uchun ruxsat etiladi.

Talabalar tayorlagan asboblar sxemalari to'g'riliгини о'qituvchi yoki katta laborant tekshirib ko'rib ishni bajarishga ruxsat beradi.

Laboratoriya ishi №1

Mavzu: Suyuqliklarning oqish rejimlarini aniqlash.

Ishdan maqsad: Quvurda oqayotgan suyuqliklarni oqish rejimini aniqlash

Kerakli asbob va materiallar: Reynolds tajriba qurilmasi

Ishning nazariy asoslari Gidravlika ikki asosiy qismdan: suyuqliklarning muvozanat qonunlarini o'rganadigan gidrostatika va suyuqliklarning harakat qonunlarini o'rganadigan gidrodinamikadan tashkil topgan.

Suyuqliklar oquvchanlik hususiyatiga ega. Suyuqlik go'yo ma'lum hajmga ega, lekin shaklga ega emas, ammo faqat molekulyar kuchlar ta'siri ostida shar shaklini oladi.

Moddalarning suyuq holati o'z tabiatiga ko'ra, gaz holat bilan qattiq holat o'rtaсидagi oraliq o'rinni egallaydi.

Gidravlikada suyuqlik deyilganda gaz ham, suyuqlik ham tushuniladi. Ularni bir-biridan ajratish uchun suyuqliklar tomchili, gazlar esa elastik suyuqlik deb qaraladi.

Suyuqlik va gazlar quyidagi hossalari bilan bir-biriga o'xshaydi:

- 1) Suyuqliklar xuddi gazlar kabi ma'lum shaklga ega emas, uning fizik hossalari barcha yo`nalishda bir xil, ya'ni izotopdir;
- 2) gazlarning qovushoqligi kichik bo`lib, yuqori temperaturada suyuqliklarnikiga yaqinlashadi;
- 3) kritik temperaturadan yuqori temperaturada suyuqliklar bilan gazlar orasidagi farq yo`qoladi.

Gidravlikada nazariy tadqiqotlar natijalarini soddalashtirish maqsadida ideal suyuqlik modelidan foydalaniladi.

Ideal suyuqlik deb, bosim va temperatura ta'sirida o'z hajmini o'zgartirmaydigan yoki siqilmaydigan, o`zgarmas zichlikka ega bo`lgan va ichki ishqalanishi bo`lmagan suyuqliklarga aytiladi. Har qanday suyuqlikda ichki ishqalanish kuchlari va qovushoqlik bo'ladi. Demak, haqiqatda tabiatda ideal suyuqlik bo`lmaydi, ya'ni barcha suyuqliklar real suyuqliklardir.

Ammo ba'zi suyuqliklarning qovushoqligi juda kichik bo'ladi. Ular temperatura va bosim ta'sirida o'z hajmini shu qadar kam o'zgartiradi, bu o'zgarishni amalda hisobga olmasa ham bo'ladi. Bunday suyuqliklar shartli ravishda ideal suyuqliklar deyiladi. Elastik suyuqliklarning hajmi temperatura va bosim ta'sirida keskin o'zgaradi.

Suyuqliklarning fizik hossalari:

Suyuqliklarning asosiy fizik hossalari zichlik, solishtirma og'irlilik va kovushoklik bilan harakterlanadi:

Zichlik. Hajm birligidagi bir jinsli jismning (Suyuqlikning) massasi zichlik deb ataladi va ρ bilan belgilanadi.

$$\rho = \frac{m}{V}$$

bu yerda m – suyuqlik massasi, kg; V – suyuqlikning hajmi, m^3 ;

Solishtirma og'irlilik. Hajm birligidagi suyuqlikning og'irligi solishtirma og'irlilik deb ataladi va γ bilan belgilanadi

$$\gamma = \frac{G}{V}$$

bu yerda G – suyuqlikning og'irligi. SI sistemasiga binoan solishtirma og'irlilik " N/m^3 " da

o'lchanadi, massa bilan og'irlik o'zaro quyidagicha bog`langan:

$$m = \frac{G}{g}$$

bu yerda g - erkin tushish tezlanishi, m/s^2 .

Bosim. Suyuqlik idish devorlariga, tubiga va uning ichiga tushirilgan bo'qa jism yuzasiga bosim kuchi bilan ta'sir qiladi. Biror kichik ΔF yuzaga ta'sir qiladigan bosim gidrostatik bosim deyiladi. Agar yuza kattaligi nolga yaqinlashtirilsa, bu qiymat shu nuqtaning bosimi deyiladi:

$$P = \lim_{\Delta F \rightarrow 0} \frac{\Delta P}{\Delta F} Pa \quad \text{yoki} \quad H/m^2$$

Bosimning yo`nalishi va ta'siri suyuqlikning hamma nuqtalarida bir xil, chunki bu kuch hamma vaqt normal bo'yicha yo`nalgan bo'ladi. Bundan ko`rinib turibdiki, bosimning kattaligi yuzaning shakliga va uning qanday joylashishiga bog`liq bo'ladi.

Bosim manometr va vakuummetrlarda o'lchanadi. Bu o'lchov asboblari qurilma ichidagi to`la bosim P_{ab} (absolyut bosim) bilan atmosfera bosimi orasidagi ortiqcha bosim R_{or} ni ko`rsatadi. Shuning uchun, to`la yoki absolyut bosim ikkala bosimning yig`indisiga teng:

$$P_{ab} = P_{mon} + P_{atm}$$

R_{mon} - manometr bilan o'lchanadigan bosim. Agar jarayon siyraklanish sharoitida ketsa, atmosfera yoki barometrik bosim bilan siyraklanish orasidagi ayirma to`la bosim deyiladi:

$$P_{ab} = P_{atm} - P_{vac}$$

bu yerda R_{vac} - vakuummetr bilan o'lchanadigan siyraklanish. Bosimni fizik va texnik atmosferada, mm.suv va mm.simob ustunida o'lchanadi.

1 fizik atmosfera (1 atm) = 540 mm simob ustuni = 10,33 m suv ustuni = 1,033 kg·k/sm³ = 101300 kg·k/m³;

1 texnik atmosfera (1 atm) = 534,4 mm simob ustuni = 10 m suv ustuni = 1 kg·k/sm³ = 10000 kg·k/m³ = 98100 N/m².

Qovushoqlik. haqiqiy real suyuqliklar truba ichida harakatlanganda, uning ichida ichki ishqalanish kuchlari hosil bo`lib, siljishiga tusqinlik qiladi. Suyuqliklarning bir qatlamdan ikinchi qatlama siljishi uchun sarf bo`lgan kuch qovushoqlik deyiladi. Nyuton qonuniga binoan, Suyuqlikning siljishi uchun zarur bo`lgan kuch shu qatlamning yuzasiga, surilish tezligi gradientiga va shu suyuqlikning qovushoqlik koeffitsientiga to`g`ri proporsional bog`langan :

$$T = \mu \cdot F \frac{dw}{dn}$$

bu yerda T - ta'sir etayotgan kuch; F - yuza ; dw / dn - tezlik gradienti; μ - qovushoqlik koeffitsienti.

Tenglamadagi qovushoqlik koeffitsienti μ dinamik qovushoqlik koeffitsienti yoki qovushoqlik deyiladi. Qovushoqlik suyuqliklarning fizik xususiyatlariga va temperaturasiga bog`liq bo`lib, keng oraliqda o`zgaradi. Masalan, glitserinning qovushoqligi suvnikiga nisbatan bir necha marta kattadir. Qovushoqlik SI sistemasiga binoan quyidagi birlikda o'lchanadi:

$$\mu = \frac{T}{F\left(\frac{dw}{dn}\right)} = \frac{H}{m^2 \cdot \left(\frac{\cancel{m}}{\cancel{c}}\right)} = \frac{H \cdot c}{m^2} = \Pi a \cdot c$$

Dinamik qovushoqlig koeffitsientining shu suyuqlik zichligiga nisbati kinematik qovushoqlig deyiladi va ν bilan belgilanadi

$$\nu = \frac{\mu}{\rho}$$

SI sistemasida kinematik qovushoqlig "m²/s" birligida o`lchanadi.

Ba`zan nisbiy qovushoqlig tushunchasi ham ishlatiladi. Bunda biror suyuqlik qovushoqligining suvning qovushoqligiga nisbati olinadi.

Temperatura ortishi bilan suyuqliklarning qovushoqligi kamayadi, gazlarniki esa ko`payadi. Suyuqliklarning qovushoqligi gazlarnikiga nisbatan bir necha marta kattadir. Nyutonning ichki ishqalanish qonuniga bo`ysinadigan suyuqliklar Nyuton suyuqliklar deyiladi. Kolloid eritmalar, moyli buyoqlar smolalar, past temperaturada ishlatiladigan surkov moylari Nyuton suyuqliklariga kirmaydi.

Suyuqlikning harakati tezlik, sarf, bosim va bo`qa kattaliklar bilan harakterlanadi.

Vaqt birligi ichida oqi bo`tgan suyuqlik miqdori "m³/soat", "l/soat", "l/s", "m³/s" birliklarida o`lchansahajmiysarf, agar kg/soat, kg/s da o`lchansa massaviy sarf deyiladi.

Trubada oqayotga nsuyuqlikning tezligi trubaning devorlariga yaqinlashgan sari kamayadi, chunki suyuqlik harakati ishqalanish kuchi tufayli sekinlashadi va suyuqlik zarrachalari devorga yopishib, minimal tezlik bilan harakat qiladi.

Suyuqlikning xaqiqiy tezligini o`lchash juda qiyin, chunki suyuqlik zarrachalari oqimning har bir nuqtasida aloxida tezlikka ega bo`ladi. Shuning uchun zarrachalarning tezligi o`rtacha kattalik bilan aniqlanadi. Hajmiy sarf miqdorining truba ko`ndalang kesimiga nisbati o`rtacha tezlik deyiladi.

$$w = \frac{V}{S}, \quad [\text{m/s}]$$

bu yerda V - hajmiy sarf miqdori, m³/s; S - trubaning ko`ndalang kesimi, m².

Yuqoridagi tenglikdan:


$$V = w \cdot S, \quad [\text{m}^3/\text{s}].$$

Bu tenglik sekundli sarf tenglamasi deyiladi. Suyuqlikning massaviy sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$M = \rho \cdot w \cdot S \quad [\text{kg/s}]$$

bu yerda $\rho \cdot w$ - suyuqlikning massaviy tezligi, kg/m²·s.

Truba yoki bo`qa shakldagi kanalda suyuqlik ikki xil rejimda, ya`ni laminar yoki to`lqinsimon rejimda harakat qiladi. Oqimlarnig harakat rejimini birinchi bo`lib 1833 yilda ingliz fiziki O.Reynolds rangli eritmalar yordamida suyuqlikning ikki xil - laminar va turbulent rejimda bo`lishini aniqladi. Tajriba qurilmasi 1- rasmda ko`rsatilgan.



1 - rasm. Laboratoriya tajriba qurilmasi.

1-rezervuar; 2- truba; 3- jumrak; 4- rangli suyuqlik solingan idishcha; 5- jumrak; 4- kapillyar truba.

Rezervuarda suvning satxi bir xil ushlab turiladi. Unga gorizontal shisha truba biriktirilgan. Shisha trubadagi oqim harakatini ko'zatish uchun uning o'qi bo'y lab, rangli suyuqlik yuboriladigannaycha o'rnatilgan. Suvning tubidagi tezligi kran orqali rostlanadi.

Suv oqimining tezligi kichik bo`lganda rangli suyuqlik suvga aralashmasdan to`g`ri chiziq bo`ylab gorizontal ip shaklida harakat qiladi. Chunki, kichik tezlikda suvning zarrachalari bir-biriga aralashmasdan, parallel rejim deb yuritiladi.

Trubadagi suv oqimi tezligi keskin ko`paytirilsa, rangli eritma truba bo`ylab to`lqinsimon harakat qilib suvning butun massasiga aralashib ketadi. Bu vaqtida suv zarrachalari ham bir-biri bilan aralashib, tartibsiz to`lqinsimon harakat qiladi. Bunday oqim turbulent rejim deyiladi.

Reynolds o`ztajribalarida faqat tezlikni emas, balki trubaning diametri, suyuqlikning qovushoqligi, zichligini o`zgartiradi.

Bu o`zgaruvchan parametrlar tezlik w , diametr d , zichlik ρ , qovushoqlik μ kabi kattaliklardan Reynolds o`lchamsiz kompleks keltirib chiqaradi, ya`ni:

$$\gamma = \frac{G}{V}$$

Bu kompleks Reynolds kriteriysi deyiladi. Reynolds kriteriysi o`lchovsiz ma'lum son qiymatga ega. Masalan, xalqaro birliklar sistemasida uning son qiymati quyidagiga teng:

$$Re = \frac{w \cdot d \rho}{\mu} = \frac{\cancel{M/c} \cdot M \cdot \cancel{\kappa \sigma / M^3}}{\cancel{H \cdot c / M^2}} = \frac{\kappa \sigma \cdot M}{c^2 \cdot \frac{\kappa \sigma \cdot M}{c^2}} = 1 ; \quad 1H = \frac{\kappa \sigma \cdot M}{c^2}$$

Reynolds kriteriysi harakat rejimini aniqlash bilan birga oqim harakatidagi qovushoqlik va inertsiya kuchlarining o`zaro nisbatini ham aniqlaydi. Suyuqliklarning harakat rejimi Reynolds kriteriysining kritik qiymati Re_{kr} bilan aniqlanadi. To`g`ri va tekis yuzaga ega bo`lgan trubalardagi suyuqlik oqimi uchun $Re_{kr}=2320$ ga teng. Agar $Re_{kr} < 2320$ bo`lsa, laminar rejim bo`ladi, $Re > 2320$ bo`lsa, to`lqinsimon harakat

(turbulent rejim) bo'ladi. Re>10000 bo`lganda turg`un turbulent rejim bo'ladi.

$Re = 2320 \div 10000$ oraliqda o`zgarsa o`tish sohasi bo`lib, bu vaqtida bir vaqtning o`zida trubada ikki xil harakat mavjud bo'ladi, ya`ni truba o`rtasida suyuqlik turbulent, devor yaqinida laminar harakatda bo'ladi. Suyuqliklar harakatini dumaloq kesim yuzali trubalardan tashqari har xil kanallarda aniqlash uchun Rekriteriysidagi diametr o`rniga ekvivalent diametr kattaligi ishlataladi. U holda:

$$d_s = \frac{4S}{\pi}$$

bu yerda S – suyuqlik oqimining kesim yuzasi, m^2 ; P – xo`llangan perimetri.

Diametri d ga teng bo`lgan dumaloq truba uchun $d_e=d$. Agar kanalning kesim yuzasi tomonlari avabga teng bo`lgan to`rtburchaklibo`lsa, u holda:

$$h_{MKN} = \xi_{MKN} \cdot \frac{w^2}{2g}$$

Ishni bajarish tartibi

1. 1- rasmdagi laboratoriya tajriba qurilmasi tekshiriladi.

2. Jo`mrak 3 ni asta-sekin ochib suyuqlik sarfini ko`paytirib, vaqt birligida oqib o`tgan suyuqlikning hajmi o`lchanadi. 5 jumrakni ochib, indikatr yordamida trubadagi suyuqlikning harakat rejimi aniqlanadi. Suyuqlikning harakat rejimi rangli suyuqlikning suv bilan aralashib ketishiga qarab aniqlanadi.

3. Trubada oqayotgan suvning temperaturasi o`lchanadi.

Tajriba natijalarini hisoblash jadvaliga yoziladi. Suvning temperurasiga qarab, ilovadagi 2 – jadvaldan suvning qovushoqligi, zichligi aniqlanadi.

Tajriba natijasida hisoblangan Rekriteriysi bilan tezlik orasidagi bog`lanish, ya`ni $Re = f(w)$ grafigi chiziladi. Grafikdan $Re=2320$ bo`lganda trubadagi suyuqlik oqimining kritik tezligi aniqlanadi.

1 jadval

Ko`rsatmalar	To`g`ri tajriba				Teskari tajriba			
	1	2	3	4	5	4	5	8
Suvning oqib chiqish hajmi V, m^3								
Suvning oqib chiqish vaqtি τ, s								
1s oqib chiqqan suvning hajmi $V_c = \frac{V}{\tau}, m^2/c$								
Suvning oqim yuzasi $\Delta'amm$								

Suyuqlik harakatining o`rtacha tezligi $w_{yp} = \frac{V_c}{F}, \text{m/c}$							
Reynolds soni $Re = \frac{w \cdot d \cdot \rho}{\mu}$							
Suvning temperaturasi, $^{\circ}\text{C}$							
Vizual ko`rinish							
Oqim rejimi							

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Suyuqliklarning asosiy fizik hossalari: zichlik, solishtirma og`irlilik, bosim, qovushoqlik.
2. Suyuqlikning harakat tezligi va sarflanishi.
3. Gidravlik radius va ekvivalent diametr.
1. Eylerning differentsial tenglamasi.
2. Gidrostatikaning asosiy tenglamasi.

Laboratoriya ishi №2

Mavzu: Trubalarining mahalliy va ishqalanish qarshiliklarini aniqlash.

Ishning maqsadi: truba suyuqlik harakati davomida ishqalanish va mahalliy qarshiliklarning koeffitsyentlarini aniqlash.

Ishning ahamiyati: Gidravlik qarshiliklarni aniqlab, suyuqliklarni uzatish uchun kerak bo'ladigan energiya sarfini hisoblash.

Ishniq nazariy asoslari

$$\text{Bernulli tenglamasi: } Z - \frac{P}{\rho \cdot g} + \frac{w^2}{2g} = \text{cons}$$

Ixtiyoriy ikki ko'ndalang kesimli 1 va 2 truba uchun quyidagi holda ifoda qilish mumkin:

$$Z_1 + \frac{P_1}{\rho \cdot g} + \frac{w_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{P_2}{\rho \cdot g} + \frac{w_2^2}{2g}$$

Bu ifoda ideal suyuqliklar uchun Bernulli tenglamasidir va u

$$Z + \frac{P}{\rho \cdot g} + \frac{w^2}{2g} = H$$

umumiylidik bosimni ifodalaydi. Bernulli tenglamasiga asosan turg'un harakatdagi ideal suyuqliklar uchun istalgan ko'ndalang kesimda gidrodinamik bosim o'zgarmas qiymatga ega.

Z – geometrik bosim (h_r), shu nuqtadagi potensial solishtirma energiyaning xolatini harakterlaydi.

P/pg – statik bosim (h_{em}), shu nuqtadagi solishtirma bosim, potensial energiyani harakterlaydi.

w²/2g – dinamik bosim (h_g), shu nuqtadagi solishtirma kinetik energiyani harakterlaydi.

Bu uchala bosim uzunlik o'lchamiga ega bo`lib, metr hisobida ifodalanadi.

Shunday qilib, Bernulli tenglamasiga binoan, ideal suyuqliklarning turg'un harakatida geometrik, statik va dinamik bosimlar yig'indisi o'zgarmas umumiylidik bosimga teng bo'lib, unda oqim trubaning bir kesimidan ikkinchisiga o'tganda o'zgarmaydi. Shu bilan birga ideal suyuqliklarning turg'un harakatida potensial ($Z+P/pg$) va kinetik $w^2/2g$ energiyalarning yig'indisi har bir ko'ndalang kesim uchun o'zgarmasdir. Shunday qilib, Bernulli tenglamasi, energiyaning saqlanish qonuning xususiy ko'rinishi bo'lib, oqimning energetik balansini belgilaydi.

Trubaning ko'ndalang kesimi va suyuqlikning harkat tezligi o'zgarganda energiyaning o'zgarishi ro'y beradi. Bunda bir qism potensial energiya kinetik energiyaga o'tadi yoki aksincha, umumiylidik energiyaning qiymati o'zgarmaydi.

Xaqiqiy suyuqliklarda ichki ishqlanish kuchi mavjud bo'lgani sababli, suyuqliklar trubalarda oqayotganda bir qismi bosim bu kuchni yengish uchun sarfbo'ladi.

Bunday sharoitda Bernulli tenglamasi kuyidagicha ifodalanadi:

$$Z_1 + \frac{P_1}{\rho \cdot g} + \frac{w_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{P_2}{\rho \cdot g} + \frac{w_2^2}{2g} + h_u \quad \text{yoki} \quad h_r + h_{cm} + h_g + h_i = H$$

ifodada h_i ishqalanish kuchini yengish uchun sarflangan bosim.

Sarflangan bosim h_i haqiqiy suyuqliklarning harakat paytida ketgan solishtirma energiyani harakterlaydi.

Agar tenglamani o'ng va chap tomonlarini (pg)ga ko'paytirsak, Bernulli tenglamasini quyidagi holda yozish mumkin:

$$\rho g Z_1 + P_1 + \frac{\rho w_1^2}{2} = \rho g Z_2 + P_2 + \frac{\rho w_2^2}{2} + \Delta P$$

bu yerla ΔP - sarflangan bosim farqi[Pa].

$$\Delta P = \rho g h_u$$

Umumiyl holda sarflangan bosim va bosimlarning farqi ishqalanish va mahalliy qarshiliklarni yengish uchun ketadi.

$$h_u = h_{ux} + h_{uk}$$

Xaqiqiy suyuqliklarning harakati paytida trubalarning butun uzunligida ichki ishqalanish qarshiligi paydo bo'ladi. Uning qiymatiga suyuqlikning oqish rejimi ta'sir ko'rsatadi.

Trubada suyuqlik oqimining harakat yo'naliishi va tezligi o'zarganda u mahalliy qarshiliklarga duch keladi. Trubadagi ventillar, tirsak, jo'mrak, toraygan hamda kengaygan qismlar va har xil to'siqlar mahalliy qarshiliklar deyiladi.

Gidravlik qarshiliklarni hisoblash katta amaliy ahamiyatga ega. Yo'qotilgan bosimni bilmasdan turib nasos va kompressorlar yordamida suyuqlik va gazlarni uzatish uchun kerak bo'lgan energiya sarfini hisoblash mumkin emas.

Truba va kanallarda ichki ishqalanish qarshiligi uchun yo'qotilgan bosim Darsi-Veysbax tenglamasi orqalaniqlanadi:

$$h_u = \lambda \cdot \frac{1}{d} \cdot \frac{w^2}{2g}$$

ya'ni, ichki ishqalanishni engish uchun sarflangan bosim dinamik bosim $h_d = w^2/2g$ orqali ifodalanadi. Ichki ishqalanish uchun sarflangan bosimni dinamik bosimidan farqini ko'rsatuvchi kattalikka ichki ishqalanish qarshiligi koeffisienti deb ataladi va ξ bilan belgilanadi ξ tarkibidagi $64/Re$ esa ichki ishqalanish gidravlik koeffisienti deyiladi va λ bilan belgilanadi.

Shuning uchun

Shunday qilib, tenglamani

$$\lambda = \frac{64}{Re} \quad \text{quyidagicha ifodalash mumkin}$$

$$h_u = \xi \cdot \frac{w^2}{2g}$$

yoki

$$\Delta P_u = \rho \cdot g \cdot h_u$$

ni hisobga olganda ichki ishqalanish tufayli hosil bo'ladigan gidravlik qarshilik ushbu formuladan aniqlanadi:

$$\Delta P_u = \lambda \cdot \frac{1}{d} \cdot \frac{\rho \cdot w^2}{2}$$

$Re=410^3 \div 1 \cdot 10^6$ (turbulent rejim) bo'lganda ishqalanish koeffisienti λ quyidagi ifodadan topiladi:

$$\lambda = 0,316 / \sqrt[4]{Re}$$

Turbulent oqimida ishqalanish gidravlik qarshilik koeffisientining kattaligi suyuqlikning oqish rejimiga va truba devorining g'adir-budurligiga bog'liq bo'ladi.

Trubalarning g'adir-budurlgi absolyut geometrik va nisbiy g'adir-budirlilik bilan harakterlanadi. Truba devorlaridagi g'adir-budurliklar o'rtacha balandlikdarning truba uzunligi bo'yicha o'lchanishi absolyut geometrik g'adir-budurlikdeyiladi.

Truba devorlaridagi g'adir-budurliklar balanddigining (Δ) truba ekvivalent diametriga (d_e) nisbati nisbiy g'adir-budirlilik deyiladi va ϵ bilan ifodalanadi.

$$E = \frac{\Delta}{d_e}$$

G'adir-budurliklarning λ_G – ta'siri truba devorlaridagi g'adir-budurliklar balandligi (Δ) va laminar qatlam qalinligining (δ) o'zaro munosabatidan

aniqlanadi. Turbulent rejim boshlanish paytida laminar qatlamning qalinligi δ g'adir-budurliklar balandligidan $\delta > \Delta$ katta bo'ladi. Bunda suyuqlik g'adir-budurliklardan asta-sekin oqib o'tadi. Shuning uchgun λ ni hisoblash paytida Δ ni hisobga olmasa bo'ladi. Bunday trubalarni gidravlik silliq deb hisoblasa bo'ladi va λ ni topish uchun tenglamadan foydalanish mumkin. Turli xil mahalliy qarshiliklarda oqim tezligining kattaligi va yo'nalishi o'zgaradi yoki ayni bir paytda ham oqim tezligining kattaligi, ham yo'nalishi o'zgarishi mumkin. Bunda bosimning (ishqalanishga sarf bo'lgandan tashqari) qo'shimcha yo'qotishli sodir bo'ladi.

Mahalliy qarshiliklardagi bosimning yo'qotilishi, ishqalanish qarshiligidek, dinamik bosim orqali topiladi. Aynan bir mahalliy qarshilikdagi bosim yuqotilishining dinamik bosimga h_d nisbatini - mahalliy qarshilik koeffisienti deyiladi va u $\xi_{m.k}$ deb belgilanadi.

Chunonchi, har xil mahalliy qarshiliklar uchun:

$$h_{MK} = \xi_{MK1} \cdot \frac{w^2}{2g}$$

$$h_{MK} = \xi_{MK2} \cdot \frac{w^2}{2g}$$


$$h_{MKn} = \xi_{MKn} \cdot \frac{w^2}{2g}$$

yoki hamma mahalli qarshiliklar uchun

$$h_{MK} = \sum \xi_{MK} \cdot \frac{w^2}{2g}$$

Ko'pincha, turli xil mahalliy qarshilik koeffisientlari tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Ularning o'rtacha kattaliklari ilovaning 1-jadvalida yoki boshqa adabiyotlardan topish mumkin [2.3].

Masalan: Trubaning birdan kengayishi tufayli, oqim ko'ndalang kesimi kichik trubadankesimi katta bo'lgan trubaga o'tganda tezligi kamayadi, paytda suyuqlik oqimlari truba devorlariga o'ralib natijada bosimyo'qotiladi.



Mahalliy qarshilik koeffisientining qiymati

$Re = w_c d_3 / \nu$	F_0 / F_1					
	0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6
10	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1
100	1,7	1,4	1,2	1,1	0,9	0,8
1000	2,0	1,6	1,3	1,05	0,9	0,6
3000	1,0	0,7	0,6	0,4	0,3	0,2
3500	0,81	0,64	0,5	0,36	0,25	0,16

F_0 - ko'ndalang kesimi kichik bo'lган trubaning yuzasi, m^2 ; w_0 – ko'ndalang kesimi katta bo'lган trubadagi tezlik, m/s F_1 – ko'ndalang kesimi katta bo'lган trubaning yuzasi, m^2 .

Truba birdan kengayganda mahalliy qarshiliklarni yengish uchun yo'qotilgan bosim ΔR_{bk} . Quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\Delta P_{\delta K} = \xi_{\delta K} \cdot \frac{\rho \cdot w^2}{2}$$

Qolgan mahalliy qarshiliklar koeffisientlari

No	Maxalliy karsxilik turlari	Maxalliy qarshilik koeffisient qiymatlari
1	Trubaga kirish	0,5
2	Trubadan chiqish	1,0
3	Kran to'la ochiq bo'lganda	0,2
4	Tirsak uchun	1,1
5	Normal ventil	4,5-5,5
6	Trubaning burilishi burchak ostida bo'lsa	0,14.

Umumiy bosim yo'qolishini quyidagi tenglamadan

$$h_y = \xi_u \cdot \frac{w^2}{2g} + \sum \xi_{MK} \cdot \frac{w^2}{2g} = \sum \xi \cdot \frac{w^2}{2g}$$

$$h_y = (\lambda \cdot \frac{1}{d} + \sum \xi_{MK}) \cdot \frac{w^2}{2g}$$

va to'la gidravlik qarshilikni ushbu tenglamalar yordamida aniqlash mumkin.

$$\Delta P_y = (\lambda \cdot \frac{1}{d} + \sum \xi_{MK}) \cdot \frac{w^2}{2g}$$

Ushbu ishni o'tkazishdan maqsad, tajriba yo'li bilan suyuqlik harakati davomida ishqalanish va mahalliy qarshiliklarni aniqlash, so'ngra ularni hisoblash yo'li yoki jadvaldan topilgan qiymatlari bilan solishtirish. $\Lambda=f(Re)$ va $\xi=f(Re)$ bog'liqliklarini grafik usulda tasvirlash.

Ishni bajarish tartibi.

1- rasmida tajriba o'tqazish qurilmasi ko'rsatilgan. Idishdagi (I) suv markazdan qochma nasos (IV) yordamida truba va turli xil mahalliy qarshiliklar sistemasi orqali o'tqazilib, yana (I) idishga qaytariladi.

Tajriba qurilmasida o'nta mahalliy qarshiliklar bor. Suyuqlikning tezligi haydash yo'lidagi jo'mraklarning yopish ochish orqali amalga oshiriladi.


Suyuqlikning tezligi 0,5 m/s dan 2,5 m/s gacha o'zgartirish mumkin. Qurilmadagi truba va raklarnig shartli diametri 50 mm.

Hajmiy sarf o'lchovi diafragmaga (9) ulangan simobli manometrning ko'rsatkichiga qarab aniqlanadi. Mahalliy bosimning yo'qolishi ham manometrlar yordamida topiladi. Suyuqlinkning temperaturasi simobli termometrda o'lchanadi.

Tajriba qurilmasi quyidagi qismlardan iborat:

1. o'zgarmas suyuqlikli idish;
2. haydash yo'lidagi jo'mrak;
3. surish yo'lidagijo'mrak;
4. markazdan qochma nasos;
5. sinalayotgan tekis burchak ostidagi to'g'ri burilish ($l=900\text{mm}$);
6. sinalayotgan jo'mrak ($l=1750\text{mm}$);
7. sinalayotgan jo'mrak ($l=375\text{mm}$);
8. tiqinli jo'mrak ($d_{sh}=50\text{mm}$);
9. o'lchovchi diafragma ($d_{sh}=50\text{mm}$, $d_0=37\text{mm}$);
10. asta-sekin kengayish va torayish ($F_0/F_1=0,3$);
11. sinalayotgan birdan kengayish va torayish ($d_{bk}=98\text{mm}$, $d_{sh}=50\text{mm}$, $0/F_1=0,5$);
12. sinalayotgan zmeevik ($D=80\text{mm}$, $d_f=50\text{mm}$);
13. Sinalayotgan flanetslibirlashtirgich;
14. Simobli U – simon manomet

Tajriba qurilmasining sxemasi



1-rasm. Suyuqlik uzatuvchi bak suv bilan to’ldiriladi.

1. Surish yo’lidagi kran 3 ocxiladi, haydash yo’lidagi kran oxirigacha yopiladi.
3 yoki 12 kranlardan biri sinalayotgan qarshiliklarning xiliga qarab ochib qo’yiladi.
2. Nasos ishga tushiriladi.
3. Kran 2 ochib, suvning eng kichik sarfi o’rnataladi va suv sinalayotgan qarshilik orqali o’tkaziladi.
4. Simobli U – simonmanometr 15 yordamida bosimning yo’qotilishi o’lchanadi, so’ngra suvning issiqligi aniqlanadi.
5. Kran 2 ochish orqali suvning sarfi asta-sekin ko’paytirib boriladi va manometrlarning ko’rsatkichi o’lchanadi.
6. Suvning sarfi o’lchov diafragmasiga ulangan manometrning ko’rsatkichi asosida hisoblanadi.

Tajriba ko’rsatkichlarini xisoblash

Oqimning o’rtacha tezligi sekundli sarf tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$W_{yp} = \frac{V_e}{F}$$

Suyuqlikning sarfini quyidagicha topish mumkin:

$$V = \frac{\alpha \cdot K \cdot \pi \cdot d_0^2}{4} \cdot \sqrt{2gh_0 \div \frac{\rho_m - \rho_c}{\rho_c}}$$

bu yerda α - tuzatish koeffisienti, $\alpha = 0,62$; K – trubaning g’adir-budurligini hisobga oluvchi tuzatish koeffisienti. Gidravlik silliq trubalar uchun $K=1$; d_0 -diafragma teshigining diameri, m; h_0 -manometr-dagi suyuqlik bosimlarining farqi, m; ρ_s -trubada oqayotgan suyuqlikning zichligi, kg/m^3 ; ρ_m – manometrik suyuqlikning zichligi, kg/m^3 .

Tekshirish uchun savollar

1. Bernulli tenglamasi.
2. Ishqalanish tenglamasi.
3. Mahalliyqarshiliklar.
4. Laminar va turbulent rjimlarda, hamda o’tish sohasidaishqalanish koeffitsientlarini aniqlash.
5. G’adir-budurlik va gidravlik silliqtrubalar.
6. Bernulli tenglamasini ketirib chiqaring. Uning fizikma’nosi.
7. Oqimning uzluksiztenglamasi.

Laboratoriya ishi №3

Mavzu: Suyuqliklarning tezligi va sarfini Pito-Prandtl naychasi bilan o'lhash

Nazariy qism Ideal suyuqlikning barqaror harakati paytida, umumiyoq mexanik o'ziga xoslik (ya'ni suyuqlik miqdorining birligiga aytildi) oqim energiyasi oqim bo'ylab doimiy bo'lib qoladi.

Ideal suyuqlikning elementar oqimi uchun Bernulli tenglamasi odatda suyuqlikning birlik og'irligiga aytildigan energiya shaklida yoziladi:

$$\frac{w^2}{2g} + \frac{p}{\rho g} + z = \text{const}, \quad (1)$$

bu yyerda w - elementar oqimning ko'rib chiqilgan qismidagi tezlik, m / s ; p - bir xil qismidagi bosim, Pa ; z - ixtiyoriy tanlangan gorizontal mos yozuvlar tekisligiga nisbatan bu qismning geometrik balandligi - O , m ; ρ - suyuqlik zichligi, kg / m^3 ; g - tortishish tezlashishi, m / s^2 .

Agar biz boshlang'ich oqimdan umuman oqimga o'tadigan bo'lsak, i va j har qanday ikkita qism uchun ushbu tenglamani kengaytirilgan shaklda yozish mumkin:

$$\frac{w_i^2}{2g} + \frac{p_i}{\rho g} + z_i = \frac{w_j^2}{2g} + \frac{p_j}{\rho g} + z_j, \quad (2)$$

bu yerda i va j indekslari - bo'limlarning raqamlari; w_i va w_j - bu tegishli bo'limlardagi tezliklar va p_i , p_j va z_i , z_j balandliklari kesimlarning markazlariga bog'liq.

Gidravlikada suyuqlik birligiga sarflanadigan energiya bosh deb ataladi va suyuqlik ustuning balandligi bilan o'lchanadi. Bernulli tenglamasida (1), $w^2 / 2g = hsk$ tezlikning boshidir; $p / \rho g = hpz$ - piezometrik bosim; z - geometrik bosim. Geometrik va piezometrik bosim yig'indisi statik bosim deyiladi.

Binobarin, Bernulli tenglamasini quyidagicha shakllantirish mumkin: har qanday kesilmaydigan suyuqlik oqimining har qanday kesishishidagi geometrik, piezometrik va tezlik boshlarining yig'indisi (umumiyoq hidrodinamik bosim) doimiydir. Bernulli tenglamasidan kelib chiqadiki, umumiyoq hidrodinamik bosimning ba'zi bir tarkibiy qismining ko'payishi (masalan, tezlik boshi) boshqa komponentning pasayishiga olib keladi (masalan, piezometrik bosim) va aksincha.

Shunday qilib, Bernulli tenglamasi harakatlanuvchi ideal suyuqlikka nisbatan mexanik energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonunining matematik ifodasıdir. Haqiqiy suyuqliklar yopishqoq. Viskoz suyuqlik trubaning qattiq devori bo'ylab harakat qilganda, oqim alohida qatlamlar orasidagi ishqalanish kuchlari ta'siri ostida, shuningdek suyuqlik va devor orasidagi molekulyar yopishish kuchlarining ta'siri tufayli sekinlashadi. Shuning uchun tezlik oqimning markaziy qismidagi maksimal qiymatiga etadi va devorga yaqinlashganda u nolga kamayadi. Turbulent rejimda, yopishqoq suyuqlikning harakati zarrachalar aylanishi, burilish shakllanishi va aralashtirish bilan birga keladi.

Bularning barchasi energiyani talab qiladi, shuning uchun harakatlanuvchi viskoz suyuqlikning o'ziga xos mexanik energiyasi ideal suyuqlikda bo'lgani kabi doimiy bo'lib qolmaydi, ammo asta-sekin qarshilikni engib o'tishga sarflanadi va

shuning uchun issiqlik energiyasiga aylanib, qismidan bo'limgacha oqim kamayadi. Shuning uchun (2) tenglamada gidravlik qarshilikni yengish uchun ma'lum mexanik energiyaning yo'qolishini - i va j bo'limlari orasidagi kesimda Δh_{i-j} yo'qotilgan bosimini kiritish kerak. Shunday qilib, yo'qolgan bosim Δh_{i-j} - bu suyuqlik i va j bo'limlari o'rtasida siljiganida issiqlikka aylanadigan o'ziga xos (og'irlik birligiga tegishli) mexanik energiya. Viskoz suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasi quyidagicha:

$$\frac{a_1 \bar{w}_i^2}{2g} + \frac{p_i}{\rho g} + z_i = \frac{a_2 \bar{w}_j^2}{2g} + \frac{p_j}{\rho g} + z_j + \Delta h_{i-j}, \quad (3),$$

$$\frac{\bar{w}^2}{2g}$$

Bu yerda \bar{w}_i^2 va \bar{w}_j^2 - tegishli bo'limlarda o'rtacha oqim darajasi.

Oqimning kesishishi bo'yicha tezlikni notejis taqsimlanishi o'ziga xos mexanik energiyaning o'rtacha qiymati dan katta bo'lishiga olib keladi, shuning uchun koriolis koeffitsienti deb nomlangan tuzatish koeffitsienti kiritiladi. Laminar oqim uchun, $a = 2$. Texnik asosan shug'ullanadigan turbulent oqim uchun a koeffitsientining qiymati birlikdan biroz farq qiladi: $1.05 < a < 1.15$. Shuning uchun ular ko'pincha $a = 1$ ni olib, uni (3) tenglamada qoldiradilar.

Bernulli tenglamasi hisoblangan gidravlika formulalarini olishda asosiy hisoblanadi.

Oqimning istalgan qismida piezometrik bosim vertikal piezometrik naycha yordamida aniqlanadi. Ushbu trubaning pastki uchi quvur liniyasi devoriga perpendikulyar bo'lib, devordagi teshik orqali suyuqlik oqishiga, yuqori qismi esa ochiq atmosferaga ulanadi. Bosim ta'siri ostida piezoelektrik naychadagi suyuqlik ma'lum bir balandlikka ko'tariladi. Oqim o'qidan o'lchanadigan bu balandlik oqimning ma'lum bir qismidagi piezometrik bosimdir.

Oqimdagagi tezlik boshi pito naychasi va piezometrik trubka yordamida aniqlanadi. Pitot naychasida egri uchi oqim tomon yo'naltiriladi. Trubaning ochilishi oldida intsident oqimining tezligi nolgacha pasayadi va turg'un zona hosil bo'ladi, unda Bernulli tenglamasiga binoan bosim oshadi. Ushbu bosim ta'siri ostida naycha naychasiagi suyuqlik piezometrik va tezlik boshlarining yig'indisiga teng htt balandlikka ko'tariladi: $h_{pt} = h_{pz} + h_{sk}$. Teshik trubkasi va piezometrik trubani o'rnatish kerak, shunda ushbu trubalarga kirish joyidagi kesishuv markazlari quvur liniyasining o'rganilayotgan qismida yotadi. Ulardagi darajadagi farq Pitot naychasiagi kirishning kesishish markaziga to'g'ri keladigan tezlikni boshini va shunga mos ravishda ovqatlanish tezligini belgilaydi:


$$h_{ek} = \frac{w^2}{2g} = h_{nr} - h_{nz}. \quad (4)$$

Ishning maqsadi: 1) Bernulli tenglamasining jismoniy ma'nosini tushunish; 2) o'zgaruvchan qism quvuridagi bosim yo'qotishlarini aniqlash; 3) suyuqlikning o'rtacha va mahalliy harakat tezligini o'lchash usullari bilan tanishish.

Qurilmalar va jihozlar: o'zgaruvchan quvur liniyasi, piezometrik quvurlar, Pito quvurlari, Sekundomer bilan o'rnatish.

Jixozni o'rnatish.

Bernulli tenglamasini namoyish qilish uchun o'rnatish (1-rasm) bosimli idish 1,o'zgaruvchan quvurlar 2-ning sig'imli quvuri va drenaj bo'limi 4 bilan o'lchash idishidan 3 iborat.



1 - rasm. Laboratoriya tajriba qurilmasi

1 - bosimli idish, 2 - o'zgaruvchan quvuri, 3 - sig'imli idish, 4 – sig'imli idishning suyuqlik chiqarish bo'lumi, 5, 7, 9 - ventil, 6 - kran, 8 - trubka, 10 - piezometrik trubka, 11 - pito trubkasi

O'zgaruvchan kesishma po'lat quvur liniyasi, u orqali o'rganilayotgan suyuqlik oqimi oqadigan doimiy to'rtburchakning to'rtta tekis qismidan iborat bo'lib, ular orasida cheklovlar mavjud.

D1, d2, d3, d4 bo'limgalarining diametri stendda ko'rsatilgan. Quvur liniyasining har bir qismining ma'lum bir qismida piezometrik trubka 10 va Pitot naychasi 11 o'rnatilgan bo'lib, uning egilgan uchi o'rtasi o'zgaruvchan kesishuvchi trubanening o'qida joylashgan.

Quvurlardagi suv darajasini hisoblash uchun bo'limgalar markazlaridan mos yozuvlar boshlanishi bilan o'lchovlar mavjud o'zgaruvchan ko'ndalang kesimdagи suv hajmi 28 l (28 · 10⁻³ m³) o'lchov idishiga 3 kiradi.

Laboratoriyaning suv ta'minoti tarmog'idan bosim o'lchov idishiiga suv etkazib beriladi. Uning miqdori 5-ventil bilan tartibga solinadi. O'zgaruvchan kesishish quvuridagi suvning oqimi 6-kran orqali o'zgartiriladi. Oqish varonkasi tufayli idishidagi suv darjasini doimiy ravishda saqlanib turadi.

Ishni bajarish tartibi.

Tajriba 5-ventilni ochish va idishini suyiqlik chiqish varonkasigacha to'ldirish bilan boshlanadi. Keyin kranni oching 6 va o'zgaruvchan ko'ndalang kesishma 2 trubkasida suvning doimiy oqimi aniqlanadi, bu o'lchov quvurlarida doimiy suv sathi bilan tavsiflanadi. Bunday holda, 5-ventil ochiq bo'lishi kerak, shunda idishning chiqish varonkasi orqali suvning sekin, ammo chiqish varonkasi orqali doimiy oqib turishi ta'minlanadi.

Belgilangan harakatga erisxilgandan so'ng, barcha to'rt qismda Pito naychalari va piezometrik naychalardagi suv miqdori aniqlanadi. Barcha bo'lilmarda geometrik bosim qiymatlari ham qayd etiladi, ular kesim markazlaridan 3 va 4 gorizontal qismlari o'qidan o'tgan taqqoslash tekisligiga masofa sifatida tavsiflanadi. O'lchov bakida suv yo'qligiga ishonch hosil qilish, 9 ventilni yopish va burilish trubasini 3 o'lchovli bakiga yo'naltirish kerak. Shu bilan birga, Sekundomer yoqiladi, bu bakni to'liq to'ldirish vaqtida to'xtaydi (suyuqlik oqish teshigiga qadar).

Sinov oxirida 5-ventil, 6-kran ketma-ket yopiladi va suyuqlik chiqish ventili 9 ochiladi.

I va j quvurlari kesimlari orasidagi kesishmalardagi bosim yo'qotilishi ko'rib chiqilayotgan qismlarning boshlang'ich va yakuniy qismidagi umumiy bosim farqi (3) tenglamasiga asosan aniqlanadi.

Sinov oxirida ketma-ket 5 ventilni yoping, 6 ga teging va drenaj ventilini 9 oching.

I va j quvurlari kesimlari orasidagi kesishmalardagi bosim yo'qolishi (3) tenglama asosida ko'rib chiqilayotgan qismlarning boshlang'ich va oxirgi qismidagi umumiy bosim farqi bilan aniqlanadi, ya'ni.

$$\Delta h_{i-j} = \left(\frac{\bar{w}_i^2}{2g} + \frac{p_i}{\rho g} + z_i \right) - \left(\frac{\bar{w}_j^2}{2g} + \frac{p_j}{\rho g} + z_j \right), \quad (5)$$

$$\Delta h_{i-j} = (h_{mi} + z_i) - (h_{mj} + z_j).$$

Ko'rib chiqilayotgan qismlarda suyuqlik tezligi Pito naychasi va piezometrik trubaning ko'rsatkichlari (4) o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi. Har bir qism uchun bosim boshining kattaligiga ko'ra oqim o'qidagi tabiiy (mahalliy) suyuqlik tezligi hisoblab chiqiladi:

$$w_{imax} = \sqrt{2gh_{eki}}.$$

Bo'lilmardagi o'rtacha tezlikning qiymati oqim tenglamasidan aniqlanadi:

$$\dot{V} = \bar{w}_i S_i, \quad \dot{V} = \frac{V}{t}; \quad S_i = \frac{\pi \cdot d_i^2}{4}, \quad V$$

bu yerda oqim darajasi V - suyuqlik sig'imi, bakining sig'imiga teng suv hajmi; t - idishni to'ldirish vaqtisi.


Hisoblash natijalariga ko'ra Bernulli diagrammasi tuzildi, u grafik shaklda har qanday quvur qismida va bo'lilmardagi bosimning pasayishini vizual ravishda tasvirlashga imkon beradi (2-rasm).

Diagrammadagi abtsissa o'qi taqqoslash tekisligi bo'lib, unda qandaydir darajada bo'lilmalar orasidagi masofalar (11, 12 va 13 stendda ko'rsatilgan) unga, ordinata o'qiga, ko'rib chiqilgan qismlarda bosim qiymatlari ko'rsatilgan. Tegishli bosimni ko'rsatuvchi segmentlarning uchlari orqali to'liq, statik va geometrik bosim chiziqlari tortiladi.

Ideal suyuqlikning umumiy bosim chizig'i abtsissa o'qiga mos yozuvlar tekisligidan ($h_{pz1} + z_1$) masofada chiziladi. Ishqalanish yo'qolishi sababli, trubaning har

bir tekis qismidagi yopishqoq suyuqlikning to'liq boshi chizig'i suyuqlik oqimiga nisbatan ma'lum bir tarafga ega bo'lishi kerak. Biroq, ushbu eksperimental sozlashda bu yo'qotishlar juda oz. Shuning uchun har bir bo'limda, ushbu bo'limlardagi to'liq bosim nuqtalari orqali, shartli ravishda a, b, c konstruktsiyalar chegaralarigacha to'liq bosim chizig'ining engil qiyaligi bilan chiziladi. Keyin to'liq bosim chiziqlarining torayish chegaralari bilan kesishish nuqtalari chiziq segmentlari bilan bog'lanadi. Oqimning deformatsiyasi alohida bo'limlar orasidagi torayishlarda ro'y beradi va bu quvur simining tekis qismlariga qaraganda burilish va umumiylbosimning keskin pasayishiga olib keladi.

To'g'ri kesishmalardagi statik bosim chizig'i to'liq bosimning mos keladigan chiziqlariga parallel ravishda chiziladi, chunki tekis qismlarda oqim tezligi (va tezlik boshlari) o'zgarmaydi. Bernulli tenglamasidan ko'rinib turibdiki, siqilishlarda keskin pasayish, so'ngra statik bosimning oshishi kuzatiladi. Bosim o'lchash torayish nuqtalarida bajarilmaganligi sababli, a, b, c bo'limlardagi statik bosim chizig'i o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bernulli diagrammasi

Geometrik bosim chizig'i quvur liniyasining ko'rib chiqilgan kesimlarining markazlari orgalı chiziladi.

O'lchov va hisob-kitoblarning natijalari jadvalga kiritilgan:

Bizning holatda $t = s$. $V = 28 \cdot 10^{-3} m^3$

Laboratoriya ishi №4

Mavzu: Suyuqliklarning nasadka va teshiklardan oqishi.

Nazariy qism. Texnologik qurilma, sisterna va boshqa idishlar bo'shashi paytida teshik va nasadkalar orqali suyuqliklar oqib tushish jarayoni yuz beradi. Nasadka deb yupqa devordagi teshikga mahkamlangan turli shakldagi kalta patrubkalarga aytildi. Odatda nasadka uzunligi tahminan 3...4 diametrga teng bo'ladi. Konstro'yushyasiga qarab nasadkalar ichki (a), tashqi (b), kengayuvchi (v) va torayuvchi konussimon (g), hamda konoidal (d) shaklli bo'ladi. Suyuqlik oqib chiqish paytida nasadka ichida vakuum hosil bo'ladi va natijada teshikiing o'zidan suyuqlik o'gkazish qobiliyati ortadi. Kengayuvchi konussimon nasadkalarda silindrsimon nasadkalarnikidan ko'proq mikdorda vakuum hosil bo'ladi. Agar, nasadkalardan chiqishdya yuqori tezlikka erishish zarur bolsa, torayuvchi konussimon nasadkalarda qo'llaniladi. Konoidal nasadkalar oqimcha shaklida tayyorlanadi. Shuning uchun bunday nasadkalarda oqimcha siqilmaydi va energiya yo'qotilishi minimal bo'ladi.

Idishdagi suyuqlik balandligi o'zgarmas bo'lganda, idish tubidagi dumaloq teshikdan suyuqlik oqib chiqishi.

Yupqa devordagi $(\delta \leq 2d)$ teshik orqali suyuqlik oqib chiqmoqsa, ya'ni teshik cheti o'tkir qirrali va uning qalinligi oqimcha shakliga ta'sir etmaydi. Bu sharoitda oqib chiqishda faqat energiyaning mahalliy yo'qotilishi sodir bo'lmokda. Idish tubidan ma'lum bir balandlikda oqimcha siqiladi va ushbu ko'ndalang kesimda parallel - oqimchali oqib tushish ro'y bermoqda deb tasavvur qilamiz. 1-1 va s-s ko'ndalang kesimlar uchun Bernulli tenglamasini yozamiz. Rasmdan ko'rinish turibdiki,

$w_1 << w_c$:

$$h_c + \frac{p_1}{\rho g} + \frac{p_c}{\rho g} + \frac{\alpha \frac{w_c^2}{2g}}{h_{uyk}}$$

bu yerda p_c , w_c — siqilgan kesimdagи suyuqlik bosimi va tezligi; α oqimchaning notekislik koeffitsienti:

$$h_{uyk} = \xi \frac{w_c^2}{2g}$$

bu yerda ξ mahalliy qarshilik koeffitsienti, $\xi=0,06$.

Idishda suyuqlik balandligi o'zgarmas bo'lganda, uning tubidagi dumaloq teshikdan oqib chiqishi.

Bernulli tenglamasidan quyidagi formulani olamiz:

$$w_c = \sqrt{\frac{2g}{2+\xi} \left(h_c + \frac{p_0 - p_c}{\rho g} \right)} \quad \text{еки} \quad w_c = \varphi \sqrt{2gH}$$

$$\varphi = \sqrt{1/(\alpha + \xi)}.$$

$$V = \varphi F_c \sqrt{2gH}$$

bu yerda φ -tezlik koeffitsienti-, dumaloq teshik uchun oqimchaning siqilish koeffitsienti $\varphi=0,97$; F_c - teshik ko'ndalang kesimi yuzasi.

$$F_c = \varepsilon_0 F_0$$


bu yerda ε_0 -tezlik koeffitsienti-, dumaloq teshik uchun oqimchaning siqilish koeffitsienti $\varepsilon_0=0,64$; F_0 -teshik ko'ndalang kesimi yuzasi.

$$V = \varphi \varepsilon F_0 \sqrt{2gH} = \mu F_0 \sqrt{2gH}$$

Bu yerda sarf koeffitsienti - $\mu = \varepsilon \varphi$

Sarf koeffitsienti μ teshik shakli, devor qaliligi va suyuqlik qovushoqligiga bog'liq. Suv uchun $\mu = 0,62 \dots 0,63$ bo'lib, boshqa suyuqliklar uchun $\mu = f(Re)$. Agar, suyuqlik atmosfera bosimli idishga oqib tushsa $p_I = p_c = p_a$.

$$V = \mu F_0 \sqrt{2gh_c}$$



Idishdagi suyuqlik balandligi o'zgarmas bo'lganda, yupqa yon devordagi dumaloq teshikdan suyuqlik oqib chiqishi. d_0 diametrli teshik og'irlik markazidan 0-0 taqqoslash tekisligini o'tkazamiz. Idish sath yuzasi 1-1 va siqilgan ko'ndalang kesim s-s lar uchun Bernulli tenglamasini yozamiz

$$h_c + \frac{p_1}{\rho g} = \frac{p_a}{\rho g} + \frac{\alpha_c w_c^2}{2g} + \xi \frac{w_c^2}{2g}$$


Bunda $p_c = p_a$ ekanligi ni inobatga olib

1-rasm. Idishdagi suyuqlik balandligi o'zgarmas bo'lganda yon devordagi dumaloq teshikdan suyuqlik oqib chiqishi.

Tenglamani w_c ga nisbatan

$$w_c = \sqrt{\frac{2g}{\alpha + \beta}} \left(h_c + \frac{p_1}{\rho g} \right)$$

Suyuqlik sarfi esa $p_o = p_c = p_a$ quyidagicha



topiladi:

$$V = \mu F_0 \sqrt{2gh}$$

bu yerda $\mu = 0,6 \dots 0,62$.

Idishdagi suyuqlik balandligi o‘zgarmas bo‘lganda, silindrik nasadkadan suyuqlik oqib chiqishi. Bernulli tenglamasiga binoan siqilgan ko‘ndalang kesimda vakuum hosil bo‘ladi

(2-rasm). Silindrik nasadkadan suyuqlik oqib chiqish tezligi:

$$w = \sqrt{\frac{2gH}{\alpha + \xi_T / \varepsilon^2 + (1/\varepsilon - 1)^2 + \lambda l/d}}$$

2-rasm. Idishdagi suyuqlik o‘zgarmas bo‘lganda silindrik nasadkadan suyuqlik oqib chiqishi.

bu yerda ξ_T — toraygan ko‘ndalang kesimdagi mahalliy qarshilik; λ -gidravlik qarshilik koeffitsienti; nasadka uchun $\xi_T = 1$ va $\mu = \varphi$.

Nasadka orqali oqib o‘tayotgan suyuqlik sarfi;

$$V = \mu F_0 \sqrt{2gH}$$

Hosil bo‘layotgan vakuum esa:

$$h_{\text{vak}} = 2\varphi^2 H (1 - \varepsilon) / \varepsilon$$

Tashqi silindrik nasadka uchun $\varphi = 0,82$, $\varepsilon = 0,64$.

$$h_{\text{vak}} \approx 0,75H \text{ ba } H \leq 1,35h_{\text{vak}}$$


Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, agar vakuum 8 m.suv.ust.dan ortiq bo‘lsa, havo chiqish ko‘ndalang kesimidan so‘rilib boshlanadi. Bu esa vakuumning «uzilishga» olib keladi. Bunday qolatlarda nasadka oddiy te ikka o‘xshab ishlaydi. Shuning uchun, naporning qiymati quyidagi formuladan aniqlanadigan eng katta qiymatdan oshmasligi kerak:

$$H_{\text{vak}} = h_{\text{vak}} \cdot \frac{1}{2\varphi^2} \cdot \frac{\varepsilon}{1 - \varepsilon} \quad (2.65)$$

Bu yyerda $h_{\text{vak}} = 8 \text{ m.cy6.ycm.}$

$$H_{\text{vak}} = 8 \cdot \frac{1}{2 \cdot 0,82^2} \cdot \frac{0,64}{1 - 0,64} \approx 10 \text{ m.cy6.ycm.}$$

O‘zgaruvchan naporda suyuqlikning oqib chiqishi.



3-rasm. O‘zgaruvchav naporda suyuqliknnng oqib chiqishi.

O‘zgaruvchan naporga ega bo‘lgan suyukdikning yupqa devorli idish tesh igidan oqib, butunlay chiqib ketishini ko‘ramiz (3-rasm). Suyuqlikning oqib chiqishi turg‘unmas rejimda ro‘y bermoqda. Idish tubida joylashgan teshikning ko‘ndalang kesim yuzasi F_0 . Elementar $d\tau$ vaq g birligida suyuqlikning balandligi h_{c1} dan h_{c2} ga o‘zgarganda idish tubidagi teshikdan oqib chiqayotgan suyuqlik xajmi quyidagi formuladan topiladi:

$$dV = \mu F_0 \sqrt{2gh} \cdot d\tau$$

Vaqg birligida idishdagi suyuqpik balandligi $dh = dV/F$ ga o‘zgaradi. Bu yerda F — idish ko‘ndalang kesim yuzasi. Oqimning uzluksizlik tenglamasiga binoan:

$$-dhF = \mu F_0 \sqrt{2gh} d\tau \quad d\tau = -\frac{Fd\tau}{\mu F_0 \sqrt{2gh}}$$

Suyuqlikning oqib tushish vaqtini topish uchun (2.66) ifodani h_{c1} va h_{c2} oralikda integrallaymiz

$$\tau = - \int_{h_{c1}}^{h_{c2}} \frac{Fdz}{\mu F_0 \sqrt{2gz}} = \frac{F}{\mu F_0 \sqrt{2g}} \int_{h_{c1}}^{h_{c2}} \frac{dh}{\sqrt{h}} = \frac{F}{\mu F_0 \sqrt{2g}} \left| 2\sqrt{h} \right|_{h_{c1}}$$

$$\tau = + \frac{2F(\sqrt{h_{c1}} - \sqrt{h_{c2}})}{\mu F_0 \sqrt{2g}}$$

Ushbu tenglama yordamida suyuqlik balandligi ma'lum miqdorga kamayganda, ya'ni h_{c1} dan h_{c2} ga pasayganda, suyuqlikning oqib tushish vaqqi topiladi
Agar, $h_{c2}=0$ bo'lsa, idishdagi suyuqlik butunlay, to'liq oqib chiqqan bo'ladi:

$$\tau = \frac{2F\sqrt{h_{c1}}}{\mu F_0 \sqrt{2g}} \quad \tau = \frac{2Fh_{c1}}{\mu F_0 \sqrt{2gh_{c1}}} = \frac{2V_p}{V}$$

4 - rasm. Laboratoriya tajriba qurilmasi

1 – rezervuar, 2 – quvur, 3 – almashtirish plastinasi, 4 – klapan, 5 – richag, 6 – lineyka, 7 – polzunka, 8 – bak, 9 – lotok, 10 – perexodnik, 11 – reyka

bu yerda V_p — rezervuar hajmi, $V - h_{c1}$ bo'lgandagi suyuqlik sarfi. Demak, napor o'zgaruvchan bo'lganda rezervuarning butunlay, to'liq bo'shash vaqtiga o'zgarmas naporliga qaraganda 2 marta ko'p bo'ladi.

O'rnatish tavsifi

To'rtburchaklar, vertikal ravishda o'rnatilgan rezervuar 1 (4-rasm) suv ta'minoti tarmog'iga B₁ ventili bo'lgan quvur orqali ularadi. Ventil B₂ rezervuarni drenaj liniyasiga ulaydi. Idishdagi ortiqcha suv qisman drenaj trubkasi 2 quvur orqali chiqarilishi mumkin.

Gorizontal o'lchash lineykasi 6, polzunka 7 bilan tortib olinadigan zond bilan, koordinata o'qida nuqta x va y koordinatalarini o'lchashga xizmat qiladi.

Bak devorida katta teshik mavjud (tishli rozetka), siz plitalarni 3 turli shaklli qizil teshiklari va silindrsimon ko'krak bilan vidalanishingiz mumkin. Ichki teshik 4


ventil bilan yopiladi, u ish paytida 5-sonli dastak yordamida ochiladi. Teshikning markazida nol o'qi bor shkalasi bo'lgan piezometrik trubka (suv o'lchagich oynasi) N bosimini to'g'ridan-to'g'ri o'qishga imkon beradi (4-rasmida bu naycha ko'rsatilgan emas).

Gorizontal o'lchash o'lchagichi 6, slayderi 7 bilan tortib olinadigan zond bilan, koordinata o'qida nuqta x va y koordinatalarini o'lchashga xizmat qiladi.

8-idish ikkitaga ajratadi: chiqarish va o'lchov idish. Lotokning joylashishiga qarab, chiqarish yoki o'lchash bo'limiga suv 9 kiradi. Idishning o'lchanadigan qismidagi suv miqdorini o'lchash rels 11 yordamida aniqlanadi.

Doimiy bosim ostida eksperiment o'tkazish tartibi.

B₁ и B₂ ventil yopiladi. Lotok shunday o'rnatiladi, suv rezervuardan oqishi uchun. Klapan yopiq holatda 4 ventil B₁ ochiladi va rezerbuar oqish trubasigacha



toldiriladi. Shu bilan birga katta teshikli plastina biriktiriladi. Klapan 4 ochiladi va ventil B_1 orqali rezervuarda belgilangan suv sathiga etib boringuncha suv bilan to'ldiriladi. 8-rezervuarning o'lchangan qismini to'ldirish uchun 9-laganda o'rnatiladi. Sekundomer oldindan o'lchangan darajaga yetganda yoqiladi. Suyuqlikning bosimi H va kordintalari x va y oqim markazidan o'chanadi va yozib olinadi. O'lchov reykaning xolati nazorat qilinadi va sekundomer to'xtatiladi. Lotok 9 daslabki holatga keltiriladi. Suvning xajmiy ko`rsatkichi V (reykaning har bir o'lchami 1 litr suvga to'g'ri keladi) va unung to'ldirilish vaqtini t yozib olinadi. Klapan 4 va ventil B_1 yopiladi.

Bu jarayonlar boshqa har xil teshikli nasadkalar, yani silindrik nasadkalr uchun xam bajariladi. Suvning chiqishi va oqimnng shakli kuzatiladi, hisobotga yozib boriladi.

O'zgaruvchan bosim ostida eksperiment o'tkazish tartibi

2-3 plastina va nasadkalar o'rnatiladi. Ventil B_2 yopiladi, B_1 ventil ochiladi va bak dastlabki xolati H_1 gacha to'ldiriladi, undan keyin ventil B_1 yopiladi. Klapan 4 ochiladi sekundomerga qarab turiladi. Suv oqimi to'xtaganda sekundomer o'chiriladi, klapan 4 yopiladi va vaqt oralig'i t va oqim tugashi H_2 yozib olinadi.

Tajribalar natijalarini qayta ishlash

Oqim tezligi (1) formula bo'yicha aniqlanadi. w_0 tezligining eksperimental qiymati x va y ning o'lchanadigan qiymatlari asosida (3) formula bo'yicha hisoblanadi. V_0 tugashi bilan suyuqlik oqimi tezligi (2) tenglama bo'yicha hisoblanadi. Teshiklar va nayzalarning kesishgan joylari o'rnatish ustidagi jadvalda ko'rsatilgan o'lchamlarga qarab aniqlanishi kerak V_0 oqim tezligining eksperimental qiymati volumetrik usul bilan aniqlanadi: $V_0 = V/t_0$, bu yerda V - suvning hajmi.

O'zgaruvchan bosimda suvning chiqishi vaqtini (4) formulasi bilan aniqlanadi. O'lchov va hisob-kitoblarning natijalari jadvalga kiritiladi. Doimiy bosim uchun $1 = N = 40$ sm., Jadvalda. 2 - o'zgaruvchan bosim uchun.

1-jadval

Nº	Qurilma turi	V, dm ³	t, s	x, sm	y, sm	V*10 ³ , m ³ \c	V*10 ³ , , m ³ \c	w, m\c	w ₀ m\c

2-jadval

Nº	Qurilma turi	H ₁ , sm	H ₂ , sm	t ,s	t ₀ ,s

Laboratoriya ishi №5

Mavzu: Mavhum qaynash qatlamning gidrodinamikasi.

Ishdan maqsad: Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarining ko`pchilik texnologik jarayonlarida qo`llaniladigan mavhum qaynash usulini o`rganish.


Kerakli asbob va materiallari: 5-rasmida ko`rsatilgan tajriba qurilmasi

Ishning nazariy asoslari: Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarining ko`pchilik texnologik jarayonlarida mavhum qaynash usuli keng qo`llanilmoqda. Issiqlik almashinish, quritish, adsorbtсия, aralashtirish, o`zatish, katalitik, kuydirish kabi jarayonlarda ishlatilishi yaxshi natijalar bermoqda.

Mavhum qaynash usulining bir qator afzallikkleri bor, ya`ni fazalar o`rtasida kontakt yuzasi katta bo`lishi jarayoni bir necha marta tezlashtiradi. Mavhum qaynash qatlamining gidravlik qarshiligi nisbatan katta emas.

Donasimon zarrachalar qatlami gaz tarqatuvchi to`r ustiga solinadi. Hamma shart-sharoitlar bir xil bo`lganda, mavhum qaynash usulida massa almashinish o`zgarmas qatlamdagidan intensivroq bo`ladi. Natijada, ko`pchilik jarayonlarning tezligi ortadi.

Gaz yoki suyuqlik tezligiga qarab donasimon qatlamning xolati har xil bo`ladi. Agar to`r orqali pastdan yuqoriga qaratib kichik tezlik bilan havo oqimi yuborilsa, material qatlami o`zgarmay qoladi va uning harakteristiklari (solishtirma yuza, qatlamdagi zarrachalar orasidagi bo`shliq va xokazo) tezlik oshishi bilan o`zgarmaydi (1a-rasm). 1-rasm.



1a – rasm

1b - rasm

1v - rasm

Lekin, havo oqimning tezligini asta-sekin oshirib borsak, tezlik ma'lum bir kritik qiymatga ega bo`lganda qatlam kengayadi, uning balandligi (N) va qatlamdagi zarrachalar orasidagi bo`shliq (ε) ortib boradi. Bunda qatlamdagi materiallarning og`irligi oqimning gidrodinamik bosim kuchiga teng bo`lib qoladi zarrachalar gidrodinamik muvozanat xolatini egallaydi va har xil yo`nalishda siljiy boshlaydi. Xavo tezligini yanada oshirsak, zarrachalar harakatining intensivligi ortadi va ular har xil yo`nalishda intensiv harakat qiladi. Bunday sharoitda qatlam mavhum qaynash holatini egallaydi, ya`ni qatlam xuddi qaynayotgandek bo`lib ko`rinadi (1b-rasm).


Qatlamning o`zgarmas holatdan mavhum qaynash holatga o`tishiga to`g`ri keladigan havo yoki suyuqlikning tezligi mavhum qaynashning boshlanish tezligi yoki birinchi kritik tezlik deb ataladi.

Agar, oqim tezligini yana oshiraversak, qatlamdagi zarrachalarning orasida


bo`shliq $\varepsilon = \frac{V_K - V_0}{V_K}$ ortadi va uning balandligi N yangi kritik tezlikgacha ortaveradi.

Bunda, gidrodinamik bosim kuchlari materialning og`irlilik, kuchlaridan ancha ortib ketadi, natijada qattiq zarrachalar oqim bilan chiqib ketadi (1v-rasm). Zarrachalarning yuza oqimi bilan chiqib ketish xolatiga to`g`ri keladigan tezlik chiqib ketish tezligi yoki ikkinchi kritik tezlik deb ataladi. Shunday qilib, mavhum qaynash birinchi (w_1) va ikkinchi (w_2) kritik tezliklar o`rtasida yuz beradi.

Zarrachalarning chiqib ketish tezligi ostida ommaviy olib ketilishi xodisasini pnevmotransport deyiladi va u sanoatda materiallarni bir yerdan ikkinchi yerga siljitisht uchun qo`llanadi.



2-rasm.



3-rasm.


Donador rmateriallalar gidravlik qarshiligi ning tezlik bilan o`zaro bog`liqligi.

2-rasmida qatlam balandligining oqim tezligiga bog`liqligi tasvirlangan. Fiktiv tezligi deb oqim tezligini qurilmaning ko`ndalang kesim yuzasining nisbatiga aytildi.

Fiktiv tezlik w_0 qandaydir w_0 tezlikkacha oshguncha, qatlamning balandligi o`zgarmaydi (AV kesma). AV chiziq o`zgarmas qatlam orqali o`tayotgan gazharakatinitasvirlaydi. Bu oraliqda tezligi oshishi bilan qatlamning gidravlik qarshiligi R ortib boradi. VS chiziq mavhum qaynash jarayonining boshlanishini harakterlaydi.

Ammo, mavhum qaynash boshlanishidan avvalgi gidravlik qarshilik S nuqtadagidan ko`prok bo`ladi (V nuqta). Bunga sabab, o`zgarmas qatlamdagi (AV chiziq) zarrachalar orasidagi tortishish kuchlarining borligidir. Oqimning tezligi w_0 kattaligiga etganda, zarrachalar tortishish kuchini engadi va bosimlarfarqi qattiq zarrachalar og`irligiga teng bo`ladi. Snuqta o`zgarmas qatlamning mavhum qaynash holatiga o`tishini ko`rsatadi, shu nuqtaga to`g`ri kelgan tezlik w_1 birinchi kritik tezlini harakterlaydi. Mavhum qaynash jarayonining boshlanishi bilan oqimning gidrodinamik bosim kuchlari qatlamidagi qattiq zarrachalar og`irligi muvozanatga solib turadi.

Gaz oqimi tezligining ortishi bilan qattiq zarrachalar og`irligini o`zgarmaydi, zarrachalarni mavhum qaynash holatida ushlab turish uchun zarur bo`lgan energiya sarfi ham bir xil bo`ladi. Bu holat grafikda SE gorizontal chiziq orqali ifodalanadi. E nuqtaga to`g`ri kelgan tezlik w_2 ikkinchi kritik tezlikni harakterlaydi.



4a-rasm

4b-rasm

4v-rasm

4g-rasm

Tezligini w_2 ikkinchi kritik tezlik w_2 dan oshirsak, qatlam muvozanati bo'ziladi va zarrachalar qurilmadan oqim bilanbirgachiqibketa boshlaydi. Bunda qatlamdag'i zarrachalar orasidagi bushliq o'sib boradi. Agar oqimning tezligi asta-sekin kamaytirib borilsa, egri chiziq A nuqtada kesishmay pastroqdan o'tadi, ya'ni cho'qqi hosil bo'lmaydi. Bu hodisa gisterezis deb nomlanadi.

Mavhum qaynash jarayoni mavhum qaynash soni bilan harakterlanadi:

$$K_w = \frac{w_\omega}{w_1}$$

bu yerdaw_u- qurilmaning to`la kesimiga nisbatan olingan oqimning ishchi tezligi.

Mavhum qaynash soni K_w zarrachalarning qatlamdag'i aralashish intensivligi ko`rsatadi. Tajriba usuli bilan $K_w=2$ bo`lganda, eng intensiv aralash sodir bo`lishi aniqlangan. K_w qiymati oshishi bilan qatlam turli jinsli bo`lib boshlaydi.

Ayrim sharoitlarida gaz ko`piklariga ega bo`lgan mavhum qaynash qatlami hosil bo'ladi (4a,b,v-rasm). Agar donasimon zarrachalarning o`lchami katta, qurilmaning diametri kichik va gazning tezligi yuqori bo`lsa porshenli qatlam paydo bo'ladi.

O`lchami kichik va nam materiallarning qaynashida kanalsimon mavhum qaynash hosil bo'ladi (4g-rasm). Bu holatda gaz kanallar orqali o`tib, qattiq materiallarning massasi o`zgarmaydi. Konussimon va konustsilindrsimon qurilmalarda kanal hosil qiluvchiqatlam fontanli qatlamga aylanadi. (4v-rasm). Bunda gaz yoki suyuqlik oqimi qurilmaning uki bo`ylab qattiq zarrachalar bilan birgalikda harakat va fontan kabi ularni yuqoriga otadi. So`ngra qattiq zarrachalar qurilma devori yonidan pastga qarab harakat qiladi.

4-rasm. Mavhum qaynash turlari:

- b) porshenli qaynash qatlami; v) kanalli qaynash qatlami;
- g) fontanli qaynash qatlami.

Mavhum qaynash qatlaming gidravlik qarshiligi ΔR_k qattiq zarrachalar og`iriligining G_k qurilma ko`ndalang kesimi yuzasining Snisbatiga teng.

$$\Delta P = \frac{G_k}{S}$$

qattiq zarrachalar og`irligi esa,

$$G_k = F \cdot H \cdot (1 - \varepsilon) \cdot (\rho_{k.z.} - \rho_m) \cdot g$$

bu yerda H - qatlamning balandligi, m; ε - qatlamdag'i bush hajm; $\rho_{k.z.}, \rho_m$ - qattiq zarracha va muhitning zichliklar kg/m³.

Fiktiv tezlik w oshib borishi bilan qatlamning balandligi N va bo`sh hajmi eortadi. Lekin $(1-\varepsilon)$ kamaygani bilan $N(1 - \varepsilon)$ o`zgarmaydi, chunki mavhum qaynash qatlamining gidravlik qarshiligi fiktiv tezlikning w_0 qiymatiga bg`liq emas. O`zgarmas qatlam va mavhum qaynash qatlami balandliklari o`zaro bog`liqligi quyidagi ifodadan topiladi:

$$H \cdot (1 - \varepsilon) = H_0 \cdot (1 - \varepsilon)$$

N_0 - o`zgarmas qatlam balandligi, m;

Mavhum qaynash qatlamining bo`sh hajmi ushbu tenglamadan topiladi:

$$\varepsilon_0 = 1 - \frac{H_0}{H} \cdot (1 - \varepsilon)$$

bu yerda N_0/N qatlamning kengayish koeffitsienti. U mavhum qaynash qatlamining hajmi o`zgarmas qatlamning hajmidan necha barobar kattaligini ko`rsatadi. Sharsimon bir jinsli zarracha uchun $\varepsilon \approx 0,4$ bo`lganda birinchi kritik tezliq prof. O.M.Todes tenglamasi yordamida topiladi:

$$Re_{kp1} = \frac{Ar}{1400 + 5,22 \cdot \sqrt{Ar}}$$

bu yerda

$$Re_{kp1} = \frac{w_1 \cdot d\rho}{m} = \frac{w_1 \cdot d}{\nu}$$

$$w_1 = \frac{Re_{kp1} \cdot \mu}{d\rho}; \quad Ar = \frac{g \cdot d^3 \cdot (\rho_{kp} - \rho_m)}{\mu^2}$$

Qattiq zarrachalarning gaz yoki suyuqlik oqimi bilan chiqib ketish tezligi yoki ikkinchi kritik tezlikgi prof. O.M.Todes tenglamasi orqali topiladi:

$$Re_{kp2} = \frac{Ar}{18 + 0,575 \cdot \sqrt{Ar}}$$

bu yerda

$$Re_{kp2} = \frac{w_2 \cdot d\rho}{\mu} = \frac{w_2 \cdot d}{\nu}$$

$$w_2 = \frac{Re_{kp2} \cdot \mu}{d\rho}$$


bu yerda Ar - Arximed kriterisi; ν - kinematik qovushoqlik, m^2/s ;

d – qattiq zarracha diametri, m.

Ishni o`tkazishdan maqsad – mavhum qaynash qatlamining gidravlik qarshiligi ni, birinchi va ikkinchi kritik tezliklarini aniqlash, hamda ularni nazariy usulda hisoblangan kattaliklar bilan taqqoslash. $\Delta P = f(w)$ va $H = f(w)$ bog`likliklarni grafik usulda tasvirlash.

Ishni bajarish tartibi

5-rasmda tajriba o`tkazish qurilmasi tasvirlangan va u quyidagi qismlardan iborat: organik shishadan yasalgan kolonna (1), uning pastki qismida kesim yuzasi 20% bo`lgan to`r parda (8) o`rnatalgan. To`r parda ustiga o`lchami $10 \times 10 \times 10$ mm bo`lgan penoplastdan tayyorlangan kubsimon zarrachalar joylashtiriladi: Tur parda ostiga, gaz trubalar (11) orqali ventilator yordamida rostlanadi. Xavoning sarfi shiber (9) yordamida rostlanadi. Mavhum qaynash qatlaming balandligi o`lchov chizig`i (4) bilan o`lchanadi. Gidravlik qarshilik miqdori mikromanometr (5) bilan aniqlanadi.



Xavoning sarfi Pito-Prandtl trubkasi ulagan mikromanometrda h_g ni o`lchash yo`li bilan topiladi.

5-rasm. Kolonnaning (1) to`r pardasi (8) ustiga donasimon zarrachalardan iborat qatlam ko`yiladi va tagidan ventilator (10) yordamida havo berib boshlanadi. Xavoni sarfini ozginadan oshirib borib qatlamning mavhum qaynash boshlanishi aniqlanadi. Sungra havoning sarfi asta-sekin ko`paytiriladi. Mavxum kaynash boshlanadi. Tajribalar paytida qatlamning gidravlik qarshiligi va balandligi N o`lchanib boriladi. Materiallarni intensiv qaynash holatiga olib borilib, ΔR va R ning qiymatlari yozib olinadi. Keyin ventilator va havo berish to`xtatiladi. Har bir tajribaning son qiymatlari jadvalga yozib qo`yiladi.

Tajriba ko`rsatkichlarini hisoblash

1. Dinamik bosimning h qiymatiga karab hajmiy sarf quyidagi tenglamadan qarab topiladi:

$$G_k = F \cdot H \cdot (1 - \varepsilon) \cdot (\rho_{k,3} - \rho_M) \cdot g$$

$$\Delta P_x = x \cdot K_1 \rho_{cn} g$$

bu yerda D - qurilma diametri, $D=200$ mm; α -tuzatish koeffitsienti,

$\alpha=0,5$; g -erkin tushish tezligi, $g=9,81 \text{ m/s}^2$; ρ - spirtning zichligi, kg/m^3 ; x_1 - mikromanometrning ko`rsatkichi, mm.sim.ust.; K_1, K_2 - mikromanometrning burchak koeffitsienti; h_g - dinamik bosim, mm.suv.ust.

$$h_g = \frac{x_2 \cdot K_2 \cdot (\rho_{cn} - \rho_x)}{\rho_x}$$

bu yerda x_2 - manometrning ko`rsatkichi, mm.spirt.us. ρ_x -havoning zichligi, kg/m^3 .

2. Xavoning fiktiv tezligi aniqlanadi;

$$w = \frac{V_x}{F}$$

3. $\Delta P_x = f(w_0)$ va $H = f(w_0)$ grafiklari quriladi.

4. $\Delta P_x = f(w_0)$ grafikdan (vizual ko`zatishlarning natijalarini hisobga olib) birincha w va ikkinchi w kritik tezliklar aniqlanadi.

5. Kritik tezliklarning (w_1, w_2) (10.8), (10.11) nazariy formulalar yordamida son qiymatlari topiladi.

6. Nazariy formula va tajriba yo`li bilan aniqlangan w_1 va w_2 ning qiymatlari solishtiriladi.

Xisobot jadvali.

Xavoning hajmiy sarfi, V , m^3/s	Xavoning fiktiv tezligi w_0 , m/s	Qatlamning gidravlik qrsxiligi, ΔP , $\text{Pa}\cdot\text{s}$	Qatlamning balandligi H , m

Tekshirish uchun savollar

1. Mavhum qaynash qatlami. Uning afzalliklari va kamcxiliklari.
2. Qatlamning gidravlik qarshiligi .
3. Mavhum qaynash turlari.
4. Mavhum qaynashning kritik tezliklari.

Laboratoriya ishi №6

Mavzu: Markazdan qochma nasoslarning xarakteristikasi

Ishdan maqsad: Markazdan qochma nasoslarni xarakteristikasini o`rganish.

Kerakli asbob va materiallari. ventillar; vakuummetr; nasos; suyuqlik satxini o`lchovchi naycha; suyuqlik rezervuari; qayttariq klapan; so`rish trubasi; o`zatish trubasi; manometr; rostlovchi ventillar; suyuqlik baklari; ventil.

Ishning nazariy asoslari. Suyuqlklarni gorizontal va vertikal trubalar orqali uzatish uchun mo`ljallangan gidravlik mashinalar nasoslardan deyiladi. Trubalarning boshlang`ich va oxirgi nuqtalaridagi bosimlar farqi, trubaldan suyuqlikning oqishi uchun harakatlantiruvchi kuch xisoblanadi. Suyuqlik oqimining trubalardagi xarakatlantiruvchi kuchi nasoslardan yordamida hosil qilinadi. Nasos elektr dvigateldan olgan mexanik energiya suyuqlikning harakatlanayotgan oqim energiyasiga aylantiradi va bosimini oshiradi.

Nasoslardan ishlash printsipi qarab quyidagi turlarga bo`linadi: parrakli yoki markazdan qochma, xajmiy, uyurmaviy va o`qli bo`ladi. Parrakli yoki markazdan qochma nasoslarda markazdan qochma kuch, ishchi g`ildiragi aylanishida parraklarning suyuqlikka ta'sirida hosil bo`ladi. Har qanday nasosning asosiy parametrlari, uning ish unumдорligi Q (m^3/s), napor N (m) va quvvati N (kVt) xisoblanadi. Nasosning massa birligiga ega bo`lgan suyuqlikka bergan solishtirma energiyasi napor N deb yuritiladi. Nasosning napori oqimning unga kirish va chikishdagi solishtirma energiyalari ayirmasiga teng. Nasosning umumiyligi napori 1 kg suyuqlikni balandlikka ko`tarish uchun nasos hosil qiladigan energiya miqdori bilan o`lchanadi. Shuning uchun nasosning umumiyligi napori o`zatilayotgan suyuqlikning zichligiga va solishtirma og`irligiga bog`liq bo`lmaydi.

Nasosning hosil qilgan umumiyligi napori quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$H = \frac{P_2 - P_1}{\rho \cdot g} + H_r + h_i \quad (1)$$

$$H = \frac{P_x - P_c}{\rho \cdot g} + H_0 + \frac{w_x^2 - w_c^2}{2} \quad (2)$$

agar, $w_x = w_c N_0$ kichik bo`lsa, u holda

$$H = \frac{P_x - P_c}{\rho \cdot g} \quad \text{yoki} \quad H = \frac{P_{\text{моh}} - P_{\text{бак}}}{\rho \cdot g} + h \quad (3)$$

bu yerda R va R_I - o`zatilayotgan va surib olinayotgan suyuqlik yuzasidagi bosimlar, N/m^2 ; N_g - suyuqlikning geometrik ko`tarilish balandligi, m; H_y - surish va haydash trubalaridagi gidravlik qarshiliklarni engish uchun sarflangan napor miqdori, m; R_c - suyuqlikning surish trubasidagi nasosga kirishidagi bosimi, N/m^2 ; R_x - suyuqlikning o`zatish yoki xaydash trubasidagi nasosdan chiqishdagi bosim, N/m^2 ; h - suyuqlik bosimini ko`rsatuvchi manometr va vakuummetrغا ulangan nuqtalar orasidagi vertikal masofa, m; w_x - xaydash trubasidagi suyuqlikning tezligi, m/s ; w_c - surish trubasidagi suyuqlikning tezligi.

Shunday qilib nasosning umumiyligi napori manometr va vakuummetrlar

ko`rsatkichlarining yig`indisi bilan bu asboblar ulangan nuqtalar ulangan vertikal masofaning (h) yig`indisiga teng.

Nasosning foydali quvvati N_f suyuqlik sarfi miqdori $\rho g QH$ ning solishtirma energiyaga ko`paytirilganiga teng:

$$N_\phi = \rho \cdot g \cdot Q \cdot H \quad (4)$$

nasos o`qidagi quvvat

$$N_y = \frac{N_\phi}{\eta_n} = \frac{\rho \cdot g \cdot Q \cdot H}{\eta_n} \quad (5)$$

Dvigatel iste'mol qiladigan quvvat:

$$N_{oe} = \frac{Q \cdot \rho \cdot g \cdot H}{1000 \cdot \eta_n} \quad (6)$$

Nasos qurilmalarini o`rnatish uchun zarur bo`lgan quvvat, dvigatel quvvatidan katta bo'ladi va ortikcha miqdorda qabul qilinadi:

$$N_y = \beta \cdot N_{oe} \quad (7)$$

bu yerda β - quvvatning zaxira koeffitsienti bo`lib, qiymati dvigatelning nominal quvvatiga nisbatan topiladi; η_n - nasosning to`la foydali ish koeffitsienti.

$$\eta_n = \eta_v \cdot \eta_r \cdot \eta_{mex} \quad (8)$$

bu yerda $\eta_v = Q_x/Q$ - xajmiy foydali ish koeffitsenti, nasosning xaqiqiy unumdorligini, nazariy unumdorlikka nisbatini ko`rsatadi; η_g - gidravlik foydali ish koeffitsienti, haqiqiy naporni nazariy naporga nisbatini ko`rsatadi; η_{mex} - mexanik f.i.k., nasos mexanizmlaridagi ishqalanishni yengishga sarflanadigan quvvatning yo`qotilishini ko`rsatadi.

Surish balandligi. Suyuqlik surib olinayotgan idishdagi bosim R_o bilan yuqoriga uzatilayotgan idishdagi bosim R_s orasidagi farqi hosil bo`lganligi sababli suyuqlik ustunining metrlarda ifodalangan napor $R_o - R_s / r g$ hosil bo`ladi. Bu bosimning bir qismi suyuqliknii surish trubasida N balandlikka ko`tarish uchun, qolgan qismi esa suyuqliknii w tezlik bilan harakatlanishiga yoki tezlik napornini hosil qilish uchun va surilayotgan suyuqlik yo`lida uchraydigan barcha qarshiliklarni engishga sarflanadi.

Nasosning surish balandligi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$H_c = \frac{P_1}{\rho \cdot g} - \left(\frac{P_c}{\rho \cdot g} + \frac{w_c^2 - w_1^2}{2g} + h_c \right) \quad (9)$$

Surib olinayotgan idishdagi suyuqlikning xarakat tezligi w nolga yaqinligini hisobga olsak, u holda surish balandligi:

$$H_c = \frac{P_1}{\rho \cdot g} - \left(\frac{P_c}{\rho \cdot g} + \frac{w_c^2}{2g} + h_c \right) \quad (10)$$

Shunday qilib. nasosning surish balandligi surib olinayotgan idishdagi bosimning ortishi bilan kuchayib, uzatilayotgan idishdagi bosimning, haydash trubasidagi suyuqlikning tezligi, hamda gidravlik qarshiliklarni yengish uchun ketgan napor miqdorlarini oqishi bilan kamayadi.

Markazdan qochma turdag'i nasoslarda surish balandligini hisoblashda gidravlik va mahalliy qarshiliklarni yengish uchun ketgan sarflardan tashqari,

kavitatsiya hodisasi ta'sirini ham inobatga olinishi lozim.

Nasos g`ildiragining tez aylanishida va issiq suyuqliklar markazdan qochma nasoslar yordamida o'zatilganda kavitatsiya hodisasi yuz beradi. Bu vaqtida nasosdagi suyuqlik tez bug`lanadi. Hosil bo`lgan suyuqlik bilan yuqori bosimli zonaga o'tib, tezda kondensatsiyalanadi. Natijada nasos qobig`ida katta bo'shliq hosil bo'ladi, nasos qattiq silkinadi va taqillab ishlaydi. Agar nasos kavitatsiya rejimida ko`proq ishlasa, u tezda bo'ziladi. Shuning uchun temperaturasi yuqori bo`lgan suyuqliklar o'zatilayotganda, u qo'shimcha kavitsion koefitsienti h_k bilan hisobga olinadi.


$$h_k = 0,019 \cdot \frac{(Q \cdot n^2)^{2/3}}{H} \quad (11)$$

bu yerda Q - nasosning unumdorligi, m^3/s ; n - nasos valining aylanish tezligi, s^{-1} ; H - nasosning napori, m.

Markazdan qochma nasoslar (1 - rasm) spiralsimon qobiq ichida joylashgan parrakli ish g`ildiragining aylanishi natijasida hosil bo`lgan markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik to`xtovsiz bir me'yorda suriladi va o'zatiladi. Suyuqlik atmosfera bosimi ta'sirida yig`gich rezervuardan kirish klapani orqali surish trubasidan nasosga kirib, ishchi g`ildiragining markaziy qismini to`ldiradi. Suyuqlik g`ildirak bilan birga aylanib, markazdan qochma kuch ta'sirida parraklar yordamida g`ildirakning markazidan chekkasiga otlib, spiralsimon qo`zgalmas kamerani to`ldiradi va xaydash trubasi orqali yuqoriga ko`tariladi.


Bu vaqtida Bernulli tenglamasiga muvofiq suyuqlik oqimi kinetik energiyasining miqdori statik naporga aylanishi suyuqlik bosimini oshirishga muvaffaq bo'ladi. Ishchi g`ildiragiga suyuqlik kirayotgan qismida, vakuum vujudga keladi va suyuqlik surish trubasi yordamida to`xtovsiz yig`gich rezervuardan suriladi. Shunday qilib, o'zluksiz markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqliknинг nasos orqali o'tadigan o'zluksiz oqimi vujudga keladi.

Markazdan qochma nasoslarning hosil qilgan bosimi ishchi g`ildiraklarning aylanish tezligiga bog'liq bo'ladi. Nasos ishga tushirilishidan avval surish trubasi, ishchi g`ildiragi va qobiq o'zatilayotgan suyuqlik bilan to`ldiriladi. Agar, ishchi g`ildiragi bilan qobiq orasidagi bo'shliq bo`lsa, ishchi g`ildiragining aylanishi natijasida etarli vakuum hosil bo`lmaydi, ya'ni suyuqlik surish trubasi bo`ylab yuqoriga ko`tarilmaydi.



1-rasm. Markazdan qochma nasos.

1-surishtrubasi; 2-ishchi g`ildiragi; 3-qobiq; 4-parraklar; 5-xaydash trubasi.



2-rasm. Markazdan qochma nasosning xarakteristikasi.

Nasosning ish unumdorligi, napori, iste'mol quvvati va ishchi g`ildirakning aylanish chastotasining o`zgarishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni aylanish chastotasi n dan n_1 dan n_2 ga o`zgarganda:

$$\frac{Q_1}{Q_2} = \frac{n_1}{n_2}; \quad \frac{H_1}{H_2} = \left(\frac{n_1}{n_2} \right)^2; \quad \frac{N_1}{N_2} = \left(\frac{n_1}{n_2} \right)^3; \quad (12)$$

Ishchi g`ildirakning aylanish chastotasi n o`zgarmas bo`lganda, nasos ish unumdorligi Q , napori N , quvvati H va foydali ish koeffitsienti η_n bilan o`zarografik usuldagagi bog`liqligi nasoslarning harakteristikasi deb yuritiladi (2 – rasm).

Ushbu ishni o`tkazishdan maqsad, nasos qurilmasini sinab nasosning asosiy parametrlarini aniqlashdir. Aniqlangan parametrlar asosida nasos ish g`ildiragining aylanishlar chastotasi o`zgarmas $n=const$ holda $Q-H$, $Q-N$, $Q-\eta$ orasidagi bog`lanishlarni grafikda tasvirlab, nasosning harakteristikasi quriladi.

Ishni bajarish tartibi

Markazdan qochma nasos o`zgaruvchan elektr toki bilan ishlaydigan elektrdvigatel bilan bir valga o`rnatilib, aylanishlar soni o`lchanib turiladi. Rezervuardagi surish trubasiga o`rnatilgan qaytarma klapan nasosni suyuqlik bilan to`ldirganda suyuqliknin surish trubasidan to`qilib ketmasligini ta'minlaydi.


O`zatish trubasiga manometr va suyuqlik miqdorini ostlovchi ventil o`rnatilgan. O`zatish trubasi orqali suyuqlik idishlarga o`zatiladi. Har bir idishda suyuqlik sathini o`lchovchi shisha naychalar o`rnatilgan. Idishlardagi suyuqlik jumraklar orqali suyuqlik suriladigan idishga beriladi. Ish unumdorligi 12 ventilni ochilishi bilano`zgartiriladi. Nasos qurilmasini sinashga $Q - H$, $Q - N$, $Q - \eta$ orasidagi bog`lanishlarni aniqlashga kerak bo`ladigan kattaliklar o`zatilayotgan suyuqlikning miqdori, surish trubasidagi vakuum, o`zatish trubasidagi bosim, dvigatel iste'mol qilayotgan kuchlanish aniqlanadi. Nasos qurilmasi ishlashi paytidabu kattaliklar, ya'ni o`zatilayotgan suyuqlikning miqdori Q shisha naychasing ko`rsatkichlari bo'yicha, vaqt esa sekundomer bilan o`lchanib, xisoblash jadvaliga yoziladi. O`zatilayotgan suyuqlikning naporimetr suvustunida aniqlanadi:

$$H = P_m + P_{\text{vak}} + \frac{w_s^2 + w_c^2}{2 \cdot g} + h \quad (13)$$

bu yerda R_m , R_{vak} - manometr va vakuummetrning metr suv ustunidagi ko`rsatkichi; w_s , w_c - surish va xaydash trubalaridagi suyuqlikning tezligi, m/s; h - vakuummetr va manometr oraliqlaridagi masofa, m.

Surish va o`zatish trubalarining diametri bir xil bo`lganligi uchunsuyuqlik bu trubalarda bir xil tezlikda xarakat qiladi, ya'ni $w_s = w_c$. Bu holda

$$H = P_m + P_{\text{vak}} + h \quad (14)$$



3-rasm. Laboratoriya nasos qurilmasining sxemasi.

1 – ventillar; 2 – vakuummetr; 3 – nasos; 4 – suyuqlik satxini o`lchovchi naycha; 5 – suyuqlik rezervuari; 6 - qayttariq klapan; 7 – so`rish trubasi; 8 – o’zatish trubasi; 9 – manometr; 10, 12 - rostlovchi ventillar; 11 – suyuqlik baklari; 13 – ventil.

Tajriba natijalarini xisoblash

Nasosning ish unumdorligi (m^3/c)

$$Q = \frac{Q_1}{1000 \cdot \tau} \quad (15)$$

bu yerda Q_1 - suvning shisha naychasi bo'yicha o'lchangان miqdori, L ; τ - vaqt birligi, s.

Nasosning iste'mol qiladigan quvvati, (kVt)

$$N = U \cdot I / 1000 \quad (16)$$

bu yerda U – tok kuchlanishi, V; I - tok kuchi, A.

Nasosning foydali ish koefitsienti ushbu tenglamadan aniqlanadi:

$$\eta = \frac{Q \cdot \rho \cdot g \cdot H}{1000 \cdot N} \quad (17)$$

bu yerda Q - nasosning ish unumdorligi, m^3/s ; ρ - suyuqlik zichligi, kg/m^3 ; g - erkin tushish tezligi, m^2/s ; H - nasos umumiyl napori, uzatilayotgan suyuqlikning metr ustunida. $Q = H$, $Q = N$, $Q = \eta$ funktsiya bog`liqlik grafiklari millimetrlidagi qoq`ozda chiziladi.

Bir xil vaqt birligida o'zatilayotgan suyuqlikning miqdori 3 marta o'lchanadi. 3 marta o'lchangан suyuqlikning o`rtacha miqdori xisoblash jadvaliga yoziladi.

Xisoblash jadvali

Aylanishl ar soni, n, ayl/min	Vaqt birligi, τ , s	Suvnin g miqdori , Q, dm^3	Manometr ko`r-satgan bosim, P_m	Vakuum ko`rsat-gan siyrakla-nish	Umumi y napor, N, m	quvva t N, kVt	Foydala nish koef. $\eta, \%$
			kg/sm^2 yoki mm.si^2 m. ustun	$Mm.su^v$ ustuni- da, N_m	$\text{kg}\cdot\text{k/sm}^2$ R_v	m. suv ustuni N_s	

Nazorat savollari

1. Nasoslar. Nasoslarning turlari.
2. Nasosning asosiy parametrlari: ish unumдорлик, iste'mol qiladigan quvvat, foydali ish koeffitsienti va surish balandligi.
3. Kavitsiya xodisasi.
4. Markazdan qochma nasosning tuzilishi va ishslash printsipi.
5. Proportsionallik qonuni.
6. Markazdan qochma nasoslarning xarakteristikalari.

Laboratoriyaishi №7

Mavzu: Sentrifugalash jarayonini o`rganish.

Ishdan maqsad: 1. Laboratoriya tsentrifugasining ishlash printspini va konstruktsiyasini o`rganish. 2. Sentrifuganing unumdorligini aniqlash

Kerakli asbob va materiallari: tsentrifuga qurilmasi, suspenziya

Ishning nazariy asoslari: Sentrifugalash – markazdan qochma kuch ta'sirida, suspenziya, emulsiya va komponentli sistemalar (qattiq faza saqlovchi suspenziyalar) ni ajratish qurilmasidir. Bu protsessni o'tkazish uchun mo'ljallangan mashinalar tsentrifugalar deb ataladi.

Sentrifugalarning asosiy ishchi organi yaxlit yoki teshikchali yon devordan iborat aylanuvchi rotordan iborat.

Rotor devori formulasiga qarab tsentrifugalar cho'ktiruvchi va filtrlovchi tsentrifugalarga bo`linadi. Tsentrifuganing ishini muhim kattaliklardan biri marazdan qochma kuchning og'irlik kuchiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$Fr = \frac{w^2 \cdot v_{pom}}{g} \quad (1)$$

Bu yerda w^2 – aylanish tezligi, m/s

v – rotor radiusi, m

Ajratish faktori qiymatiga qarab tsentrifugalar a) normal i< 3500 va b) o'rta tez tsentrifugalarga i>3500 bo`linadi.

Laminar rejimda tsentrifuganing unumdorligi cho'ktiruvchi apparatlar unumdorligi kabi aniqlanadi. Bunda tenglamadagi og'irlik kuchi tezlanishi o'mniga markazdan qochma tezlanish qo'yiladi.

$$V_c = w_2 \cdot F = \frac{d^2 (\rho_{oeng} - \rho_{eng}) \cdot w^2 \cdot \pi \cdot D^2 \cdot I}{36\mu} \quad (2)$$

Bu yerda d – dispers faza zarrachasining diametri, m

$\rho_{og'ir}$, ρ_{eng} – og'ir va yengil fazalar zichligi

D , I – tsentrifuga barabanining diametri va uzunligi

h - muxit qovushqoqligi, Pb, s

w_2 – cho'kish tezligi

F – cho`ktirish fazasi, m^2

Emulsiya zarrachalarining o`lchamini aniqlash qiyin bo`lganligi uchun tsentrifugalar unumdorligini tajriba yo`li bilan topish tavsiya qilinadi. Trubali tsentrifugalar katta tezlikli tsentrifugalar hisoblanadi. Ular yordamida dispers qattiq faza 1 % dan oshmaydigan suspenziyalar va komponentlarning zichliklar nisbat 1,06 dan katta emulsiyalarni ajratish mumkin.

Qurilma tavsifi

Laboratoriya uskunasi **OP_n – 89XII4-2** markali tsentrifuga aylanuvchan qismi baraban va unga joylashtirilgan har xil hajmli shishadan va polietiendan yasalgan probirkalardan iborat. 100-250 ml hajmli stakanda 60 ml 1.0-2.0 gr suvga miqdorda bor CaCO₃ kukunidan solinib shisha tayoqcha bilan aralashtirib suspenziya

tayyorlanadi. Uchta probirkaga tayyor suspenziyadan 10 ml hajmdan quyilib probirka barabanga joylashtiriladi va ustidan tsentrifuganing qopqog'i mahkamlanadi.

Ish bajarish tartibi va hisobot mazmuni.

Laboratoriya tsentrifugasi elektr tokiga ulanadi.

Radiusi burchagi "5 min" belgisida qo'yiladi.

Barabanning aylanish tezligi rostlovchi buragich 1000 va buriladi.

"Set" belgili tugmachani bosish bilan tsentrifuga tokka ulanadi.

"5 min" vaqt o'tgach tsentrifuganin relisi tokni ajratadi.... va ... dvigatel tokdan o'ziladi. Baraban aylanishidan to'liq to'xtagan qopqoq barabandan olinadi. Probirkalardan fugat (eritma) va cho'kma ajratib olinadi. Probirka ichidagi qo'zg'almas cho'kmani hajmi V_2 suspenziya hajmi V_c dan fugat hajmini V_{or} ayirib topiladi.

$$V_{ch} = V_s - V_{or}$$

Sentrifuganing unumdorligi quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi.

$$G = V_{or} / f$$

Bu yerda V_{or} – fugat hajmi, m^3 , f – aylanish vaqt, sek, ajratish faktori formula (1) yordamida hisoblanadi.

Tajriba natijalari 1 jadvalga yoziladi.

1jadval

Nomi	Baraba n aylanish vaqt (s)	Suspenziy a hajmi $V_s (m^3), 10^3$	Unumdo r-lik m^3/s	Baraba n aylanis h tezligi	Baraba n radiusi $V_{bar.m}$	Ajratish faktori	Fuga t hajm i V_f
1	120	0,0101					
2	300	0,0101					

Tekshirish uchun savollar

1. Suspenziya deb nimaga aytildi?
2. Emulsiyalarga misol keltiring?
3. Sentrifugalash protsessi deb nimaga aytildi?
4. Filtrlovchi tsentrifuga sxemasini chizing?

Laboratoriya ishi №8

Mavzu: Filtrlash doimiysini aniqlash.

Ishdan maqsad: Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarining ko`pchilik texnologik jarayonlarida qo`llaniladigan filtrlash doimiyligini aniqlash usulini o`rganish.

Kerakli asbob va materiallari: filtr qurilmasi, voronka, nutchfiltrning, filtrlash tusig`i;

Vakuum nasos, oraliq idish, simobli manometr, vakuum miqdorini rostlovchi kran;

Ishning nazariy asoslari

Suspenziya va changli gazlarni filtr to`sqliar orqali o`tkazib tozalash jarayoni filtrlash deyiladi.

Filtr to`siklar qattiq zarrachalarni ushlab qolib suyuqlik yoki gazni o`tkazib yuborish qobiliyatiga ega.

Filtr to`sqliar yoki filtr sifatida mayda teshikli turlar, turli gazlamalar, sochiluvchan materiallar, keramik buyumlar va boshqalar ishlataladi. Filtr sifatida paxta, yung va sintetik gazlamalardan tayyorlangan materiallar ham ishatiladi.

Suspenziya va chang gazlarni mayda qattiq zarrachalardan tozalash jarayoni filtr qurilmalarida olib boriladi. Filtr qurilmalarining asosiy qismlari quyidagilardan iborat (1 – rasm).

Filtr to`sqliari qurilmaning hajmini ikki bo`lakka ajratib turadi (A va B). Yuqoridagi A hajm filtrlash lozim bo`lgan suyuqlik bilan to`ldiriladi, quyidagi B esa, hajm tozalangan suyuqlik, ya`ni filtrdan iborat bo`ladi.


Filtrlash jarayonida gidrodinamikaning aralashgan ikki sharti bajariladi, ya`ni avval filtr to`qimalarida qattiq zarrachalarni cho`kma hosil bo`lishida gidrodinamikaning tashqi vazifasi, suyuqlikning hosil bo`lgan cho`kma holidagi qattiq zarrachalarning qatlami, hamda cho`kma orasidagi kapillyarlaridan va filtr to`qimalaridan o`tishida gidrodinamikaning ichki vazifasi namoyon bo`ladi. Suspenziya A bo`lakdagi hajmdan B hajmga o`tishida, ya`ni filtratning hosil bo`lishida, tozalanayotgan suyuqlik bir qator gidravlik qarshiliklarga duch keladi, ya`ni dispers fazaning suyuqlik harakatiga asosiy to`skinlik qiluvchi hosil bo`lgan cho`kmaning, hamda filtr to`sqliarining qarshiliklarini engib o`tadi.

Filtrlash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi A va B bo`laklarni hajmlardagi bosimlarning farqi ΔR teng bo`ladi ya`ni

$$\Delta P = P_1 - P_2$$

bu yerda R_1 -A bo`lak hajmdagi suyuqlik ustidagi absolyut bosim, N/m^2 ; R_2 - B bo`lak hajmdagi yig`ilgan filtratdagi absolyut bosim, N/m^2 .

Filtrlash jarayonida vaqtinng o`tishi bilan filtr to`kimalari ning yuza qismida



1. rasm. Filtr qurilmasi.
1 - filtr; 2 - filtr to`sqliar;
3 – suspenziya; 4 - filtrat.
5 – cho`kma

cho`kma hosil bo`lib, cho`kma qatlamining balandligi oshib boradi.

Hosil bo`lgan cho`kma balandligi o`zgarmas ko`ndalang kesim filtr qurilmasi, ya`ni filtr to`qimasidagi cho`kmaning hajmini belgilaydi. Cho`kmaning ortib borishi natijasida suspenziya asosan cho`kma qatlamidan o`tib, filtr to`qimalar esa, filtr vazifasini bajarmay qo`yadi. Bu vaqtida filrlash jarayonida asosiy gidravlik qarshilik cho`kmaning qarshiligi bilan belgilanadi.

Filtr $\Delta R > R_4$ bo`lganda normal ishlaydi. Qatlamning ortib borishida cho`kmaning gidravlik qarshiligi ΔR_4 ko`payib, vaqt o`tishi davomida A va V bo`lak hajmlari orasidagi bosimlar farqi ΔR cho`kma hajmining gidravlik qarshiligidagi ΔR teng bo`lib qoladi.

$$\Delta P = \Delta P_2$$

Bu vaqtida filrlash protsessi to`xtatilib, filtr to`qimalari yuzasidagi cho`kma tozalab olinadi. Filtr to`qima kapillyarlaridagi qolgan cho`kimalar tozalab olish uchun suv bilan yuviladi yoki havo bilan puflanadi va filtr qurilmasida qaytadan ishlatiladi.

Shunday qilib filrlash jarayonining asosiy harakteristikasi quyidagilardan iborat:

1. Jarayonning harakatlantiruvchi kuchi

$$\Delta P = P_1 - P_2$$

2. Suspenziyaning filrlash tezligi

$$dV/S \cdot d\tau, \quad m^3/m^2 \cdot c$$

bu yerda V - olingan filtratning hajmiy miqdori, m^3

τ -jarayonning davomiyligi, S - filtr to`qimalarining ko`ndalang kesimi, m^2

3. Jarayonning gidravlik qarshiligi ΔR_{10} . Filrlash tezligi $\frac{dV}{S \cdot d\tau}$ jarayonning harakatlantiruvchi kuchiga ΔR_4 to`g`ri va gidravlik qarshiligidagi ΔR_4 teskari proportsionaldir.

$$\frac{dV}{S \cdot d\tau} = \frac{\Delta P}{\Delta P_2}$$

yoki

$$\frac{dV}{S \cdot d\tau} = \frac{\Delta P}{\mu \cdot (R_r + R_{\phi.m.})}$$

bu yerda R_4 – cho`kma qatlamining qarshiligi cho`kmaning hajm miqdori va cho`kmaning hajm jihatdan olingan solishtirma qarshiligi r_0 bilan aniqlanadi; μ suspenziyaning qovushoqligi; $R_{f.t.}$ – filtr to`qimalarininig qarshiligi. Filtrda hosil bo`lgan cho`kmaning miqdori filtrat hajmi va uinng tarkibidagi qattiq moddalarning kontsentratsiya miqdori x_0 bilan aniqlanadi. Bu vaqtida cho`kmaning hajmi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$x_0 \cdot V = h_r \cdot S$$

bu yerda h_4 - cho`kma qatlamining balandligi,m; S - filtr qurilmasinnig ko`ndalang kesimi, m^2 ;

Cho`kma qatlamining qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_r = r_0 \cdot h_r = r_0 \cdot x_0 \cdot \frac{V}{S}$$

tenglikdagi R_r ning qiymatini tenglamaga qo`yib quyidagi ifodaga erishamiz:

$$\frac{dV}{S \cdot d\tau} = \frac{\Delta P}{\mu \cdot \left(r_0 \cdot x_0 \cdot \frac{V}{S} + R_{\phi.m.} \right)}$$

Bu tenglik filtrlash jarayonining asosiy tenglamasi deyiladi.

Cho`kma qatlamining qarshiligiga nisbatan filtr to`sularining qarshiligi juda ham kichkina qiymat bo`lganligi uchun, uni hisobga olmasak, u holda filtrlashning differintsial tenglamasi quyidagi holda bo`ladi:

$$\frac{dV}{S \cdot d\tau} = \frac{\Delta P \cdot S}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0 \cdot V}$$

yoki

$$\frac{dV}{d\tau} = \frac{\Delta P \cdot S^2}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0 \cdot V}$$

Kimyo va oziq-ovqat sanoatida filtratsiya jarayoni uch xil rejimda olib boriladi.

1. $\Delta R = \text{const}$. Bosimlar farqi o`zgarmas bo`lganda, filtrlash tezligi kamayib boradi. Bu rejimda siqilgan havo yordamida filtr bilan cho`kma ostida doimiy o`zgarmas bosim hosil qilinib turiladi va filtr ochiq bo`lib, filtrat vakuum yordamida tortib olinadi.

2. $W = \text{const}$ filtrlash tezligi o`zgarmas bo`lishi uchun bosimlar farqini oshirish kerak. Bu rejimda ishlaydigan filtrlarga suspenziya porshenli nasoslar yordamida beriladi.

3. Bir vaqtning o`zida bosim va filtrlash tezligi o`zgarib turadi. Bu rejimda ishlaydigan filtrlarga suspenziya vakuum nasos yordaimda beriladi.

Agar tenglamani bosimlar farqi o`zgarmas rejimda ishlaydigan $\Delta R = \text{const}$ filtrlash uchun integrallasak, quyidagi ifodaga erisxiladi:

$$\int_0^V V dV = \frac{\Delta P \cdot S^2}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0}$$

$$\frac{V^2}{2} = \frac{\Delta P \cdot F}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0} \cdot \tau$$

$$V = F \cdot \sqrt{\frac{2 \cdot \Delta P \cdot \tau}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0}}$$

tenglama orqali vaqt davomida olingan filtratning hajmini, filtr qurilmasining

unumdorligini aniqlash mumkin. Xuddi shuningdek, filrlash vaqtini har qanday rejim uchun topish mumkin. Bu tenglamadan ko`rinib turibdiki, bosimlar farqi o`zgarmas bo`lganda, filrlash vaqt qancha ko`p bulsa, shuncha ko`p filtrat olinadi.

tenglamadagi bosimlar farqi ΔP suspenziyaning qovushoqligi, cho`kmaning solishtirma qarshiligi μ , cho`kma va filtrat hajmlarining nisbati faqat tajriba orqali aniqlanadi. Shu sababli, bularning o`zaro bog`liqligi filrlash doimiyligi K orqali ifodalanadi:

$$K = \frac{\Delta P}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0}$$

Filtrlash doimiyligi bosimlar farqi, cho`kmaning fizik tarkibi va supenziyaning qovushoqligini hisobga oladi.


Xuddi shuningdek filtr to`silalarining gidravlik qarshiligini, ham filtrlash doimiyligi S bilan belgilash mumkin:

$$C = \frac{R_{\phi.m.}}{r_0 \cdot x_0}$$

Filtr to`siq va filtrlash doimiylarining qiymatlarini tenglamaga quysak, quyidagi ko`rinishga keladi:

$$V^2 + 2 \cdot V \cdot c = K \cdot \tau$$

Ushbu ishni o`tkazishdan maqsad, filtrda cho`kmaning hosil bo`lishida filrlash doimiyligini aniqlash. 2-rasmda filrlash doimiyligini aniqlash uchun laboratoriya qurilmasi tasvirlangan.



2-rasm. Laboratoriya qurilmasi.

1-voronka; 2-nutch filtrning tag qismi; 3-filtrlash tusig`i; 4-cho`kma; 5-vakuum nasosga ulangan filtrat yig`iladigan idish; 4-oraliq idish; 5-vakuumni o`lchovchi simobli manometr; 8-vakuum miqdorini rostlovchi kran; 9-vakuum nasos.

Ishni bajarish tartibi

1. Berilgan kontsentratsiya bo'yicha suspenziya tayyorlanadi.
2. Laborant ishtirokida laboratoriya tajriba qurilmasining holati tekshiriladi.
3. Filtrlashuchunsuspenziya nutch-filtrga quyiladi.

Laborant ishtirokida vakuum-nasos ishga tushirilib, yig`gichda vakuum hosil qilinadi. Vakuum-birorqurilmaning atmosfera bosimidan past bosimda ishslashni ko`rsatadi. Vakuumning miqdori U-simonmanometrbilan aniqlanadi. Yig`gichdagito`laabsolyut bosim atmosfera va vakuum bosimlar orasidagi farqqa teng bo'ladi.

4. O`zgarmasbirxil vaqt birligida filtrlangan filtratning hajmi aniqlanadi.
5. Filtrning yuzasi aniqlanadi.
6. Ko'zatish tajriba birliklari jadvaldan yoziladi va hisoblanadi.
7. Tajriba asosida $\Delta\tau/\Delta q - q$ orasidagi bog'lanish grafigi chiziladi.
8. Filtrlash doimiyligi K hisoblanadi.

Tajriba ko`rsatkichlarini hisoblash

Filtrlash davomida cho`kmaning hosil bo`lishida filtrlash doimiyligi aniqlanadi. Ushbu filtrda filtrlash doimiyligi o`zgarmas kattalik bo`lib, filtrlash rejimini, cho`kmaning, hamda eritmaning fizik-kimyoviy hususiyatlarini hisobga oladi, filtrlash differentsial tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\frac{dV}{d\tau} = \frac{\Delta P \cdot S^2}{\mu \cdot r_0 \cdot x_0 \cdot V}$$

Ifodada V - filtrning unumdorligi τ vaqt ichida oqib o'tgan filtratning hajm miqdori, m^3 ; τ - filtrlash vaqt, s; ΔR - filtrlashdagi bosimlarning farqi, N/m^2 ; S - filtrning umumiylar yuzasi, m^2 ; μ - suyuqlikning qovushoqligi, $N \cdot s/m^2$; $x_0 = V_2/V$ cho`kma hajmining V_4 filtrat hajmiga Vga nisbati; r_0 - cho`kmaning solishtirma qarshiligi .

Agar $S = 1m^2$ deb qabul qilinsa:

$$dV/d\tau = \Delta P / \mu \cdot r_0 \cdot x_0$$

Filtrlash jarayoni o`zgarmas bosimlar farqida olib borilganligi uchun ya'ni $\Delta R = \text{const}$ da K'ning miqdori:

$$\Delta P / \mu \cdot r_0 \cdot x_0 = K'$$

tenglamani K bilan ifodalasak, u holda tenglama quydagicha ifodalanadi:

$$\frac{dV'}{d\tau} = \frac{K'}{V} \quad \text{yoki} \quad V \cdot dV = K' \cdot d\tau$$

integral lab quydagi ifodani olinadi:

$$\frac{V^2}{2} = K' \cdot \tau \quad \text{yoki} \quad V^2 = 2 \cdot K \cdot \tau$$

ifodada K – filtrlash doimiyligi. Filtrlash tezligini shu moment vaqt ichida aniqlash uchun tenglamani differentsial lab, haqiqiy filtrlash tezligini topamiz, ya'ni

$$2 \cdot V \cdot dV = K \cdot d\tau$$

hosil bo'lgan ifodadan filtrlash doimiyligini aniqlash uchun quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{dV}{d\tau} = \frac{K}{2 \cdot V}$$

Hisoblashni qulaylashtirish uchun ifodani quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\frac{\Delta\tau}{\Delta q} = \frac{2}{K} \cdot q$$

ifodada $q = V/S$ - filtrning solishtirma unimdonligi, m^3/m^2 ; $\Delta\tau/\Delta q$ - filtrlash tezligining teskari qiymatiga to`g`ri kelgan miqdor: tenglamani koordinat uklarida $\Delta\tau/\Delta q - q$ bog`lanish orqali ifodalanganda, grafikda to`g`ri chiziq hosil bo`lib, uning og`ma tengens burchagini $\text{tg}\alpha=2/K$ qiymati filtrlash doimiyligiga teng bo`ladi.


Xisoblash jadvali

Filtratning umumiyligi hajm miqdori, $V \text{sm}^3$	O`lcho v vaqtlar orasda gi farq τ, s	Filtrahajm miqdori ning vaqt bir ligida ortishi $\Delta V, \text{cm}^3$	Filtrat hajm miqdorining filrat yuzasiga nisbati $\Delta q = \frac{\Delta V}{S}$ $\text{sm}^3/\text{sm}^2 = \text{sm}$	$\Delta\tau/\Delta q$ ning nisbati s/sm	Filtr yuzasi - s,sm^2	Umumiyligi filtrat hajm miqdori V, sm^3
Olgungan kattaliklarning SI sistemada ifodalanishi						
m^3	s	m^3	m	s/m	M^2	m^3

Jadvaldan $\Delta\tau/\Delta q$ to`g`rik kelganq olinib koordinat o`qlariga grafik quriladi.

$\Delta\tau_1/\Delta q_1$	q_1
$\Delta\tau_2/\Delta q_2$	q_2
$\Delta\tau_3/\Delta q_3$	q_3

$\Delta \tau_1 / \Delta q_1$	q_1
$\Delta \tau_2 / \Delta q_2$	q_2
$\Delta \tau_3 / \Delta q_3$	q_3



Grafikda hosil bo`lgan to`g`ri chiziq suspenziyani filtrlash jarayonini ifodalaydi. To`g`ri chiziqdan tangens og`ish burchagini qiymatini aniqlab, undan $\operatorname{tg} \alpha = 2/K$ ifoda orqali filtrlash doimiyligi K ni aniqlaymiz. Filtr to`sinqalarining o`zgarmas qarshiligi ning miqdorini aniqlash uchun, ordinata o`qi bilan filtrlash jarayoni chizig`i bilan kesishgan kesma aniqlanadi. Bu kesmaning miqdori $V=2s/K$ ga teng bo`ladi. Bu ifodadan o`zgarmas kattalik "S" ning miqdori aniqlanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Filtrlash jarayonning fizik mohiyati.
2. Filtrlash jarayonining qarshiligi va harakatlantiruvchi kuchi.
3. $P=\text{const}$ bo`lgan holatda filtratsiya tenglamasi.
4. Filtrlar konstruktsiyalari, ishlash printsipi, solishtirish harakteristikalari.
5. Suspenziyalarni markazdan qochma kuch ta'sirida ajratish.
6. Gaz aralashmalarini filtrlar vositasida tozalash.

Laboratoriya ishi №9

Mavzu: Truba ichida truba tipidagi isitkichdagi issiqlik berish va issiqlik o'tkazish koeffitsentini aniqlash.

Ishdan maqsad: Truba ichida truba tipidagi issiqlik almashinish qurilmasining issiqlik o'tkazish va berish koeffitsentini aniqlash

Kerakli asbob va materiallari. termoparalar; termoparalarni potentsiometrغا ulaydilgan qurilma, potentsiometr, issiqlik almashinish qurilmasi; suv sarfini o'lchaydigan RS rotametri; suv sarfini rostlovchi moslamalar, bosim hosil qiluvchi idish; suv balandligini ko'rsatuvchi naycha, issiqlik suv beriladigan truba.

Ishning nazariy asoslari Ko`pchilik texnologik jarayonlarning intensivligi, isitish yoki sovitish jarayonini qanday amalga oshirilayotganiga bog`liq.

Issiqlik jarayonlari - temperaturalar farqi mavjud bo`lganda, temperaturasi yuqori bir jismdan temperaturasi past ikkinchi jismga issiqliknинг o'tishidir.

Bunday jarayonlar issiqlik almashinish qurilmalaridan amalga oshriladi. Issiqlik almashinish jarayonlarida qatnashuvchi suyuqliklar issiqlik tashuvchi agentlar deb ataladi. Yuqori temperaturaga ega bo`lib, o`zidan issiqliknинг temperaturasi past muhitga beruvchi suyuqliklar isituvchi agentlar deyiladi. Sovutilayotgan muhitga nisbatan past temperaturaga ega bo`lgan va o`ziga muhitdan issiqliknинг oluvchi suyuqliklar sovutuvchi agentlar deb ataladi.

Issiqlik tashuvchi agentlardan sovutuvchi agentlarga issiqlik tarqalishining asosan uchta turi bor:

1. Issiqlik o'tkazuvchanlik (ki konduksiya);
2. Konvektsiya;
3. Issiqliknинг nurlanishi.

Bir-biriga tegib turgan kichik zarrachalarning tartibsiz harakati natijasida yuz beradigan issiqliknинг o'tish jarayoni issiqlik o'tkazuvchanlik deyiladi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik yo`li bilan o'zatilayotgan issiqlik miqdori Fure qonuniga binoan topiladi:

$$dQ = -\lambda \cdot \frac{dt}{dn} \cdot dF \cdot d\tau \quad (1)$$

Gaz yoki suyuqliklarda makroskopik hajmlarning harakati va ularni aralashtirish natijasida yuz beradigan issiqliknинг tarqalishi konvektsiya deb ataladi. Konvektsiya ikki xil bo`ladi. Gaz yoki suyuqliklarning har xil qismlaridagi zichliklarning farqi natijasida hosil bo`ladigan issiqliknинг almashinishi tabiiy yoki erkin konvektsiya deyiladi. Tashqi kuchlar ta'sirida (nasoslar yordamida o'zatish, mexanik aralashtirgichlar bilan aralashtirish paytida) majburiy konvektsiya hosil bo`ladi.

Issiqlik tashuvchi agentlar trubaning devoriga yoki trubaning devoridan sovituvchi agentga issiqliknинг o'tishiga issiqlik berish deyiladi va u Nyutonning sovitish qonuniga binoan aniqlanadi:

$$Q = \alpha \cdot F \cdot (t_o - t_e) \quad (2)$$

ya'ni, τ vaqt ichida o'tayotgan issiqlik miqdori Q devor yuzasi va muhit temperaturalarining farqiga ($t_d - t_e$), hamda jarayonning davomiyligiga to`g'ri

proportsionaldir.

Hozirgi paytda konvektiv issiqlik almashinish jarayonlarini tezlatishni bir necha xil usullari o'rganilgan va yangi qurilmalarda (isitgichlarda) qullanishga tavsiya etilgan.

Bir fazali suyuqliklarning truba ichida oqib o'tayotganda quyidagi usullar bilan issiqlik almashinishni tezlatish mumkin: sun'iy yo'l bilan truba yuzasida turbulizatorlar, g'adir - budurliiklar va qirralar hosil qilish, spiralsimon qirralar yordamida oqimga aylanma harakat berish, shnekli va oqimga to'lqinsimon yo'nalish beruvchi moslamalar yordamida omalga oshiriladi.


Bug'larni kondensatsiyalash jarayonida esa, kondensat yupka qatlamni turbulizator yoki qirralar yordamida bo'zish, maxsus qurilma orqali tomchi-simon kondensatsiya hosil qilish, oqimga yoki issiqlik almashinish yuzasiga aylanma harakat berish usullari yordamida issiqlik jarayonini tezlatish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, issiqlik almashinish jarayonini u yoki bu usul bilan tezlatish, faqat truba yuzasining samaradorlik ko'rsatkichi etarli emas. Shuning uchun, issiqlik almashinish qurilmalarini yigish texnologiyasi, mustahkamligi, truba yuzasining ifloslanish darajasi, foydalanish hususiyatlari va xokazo ko'rsatkichlarga ham ahamiyat berish kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlar, tezlatish usulini tanlash qo`lamini kamaytiradi, chunki texnologik qulaylik, mustahkamlik va qurilmalarning foydalanish paytidagi kulayliklar asosiy mezonlardir.

Xozirgi paytda oqimni sun'iy ravishda turbulizatsiya qilish usullari bilan konvektiv issiqlik almashinishni tezlatish eng samarador usul deb tan olingan.

Bu usullardan qulay va samaraligi dumalatib zichlash orqali trubalarda sun'iy g`adir-budurliklar hosil qilishdir (1b - rasm).



**1-rasm. Silliq (a) va dumalatib zichlashtirilgan
(b) trubalarning bo'ylama kesimlari tasvirlangan.**

Issiqlik berish koeffitsienti α devorning 1 m^2 yuzasidan suyuqlikka 1s vaqt ichida, devor va suyuqliklar farqi 1°C bo'lganda, berilgan issiqlik miqdorini bildiradi va u quyidagi o'lchov birligiga ega

$$[\alpha] = \frac{Q}{F \cdot \tau \cdot (t_o - t_e)} = \frac{\mathcal{K}}{m^2 \cdot c \cdot K} = \frac{Bm}{m^2 \cdot K} \quad (3)$$

Proportsionallik koeffitsienti α devor yuzasidan atrof muhitga yoki aksincha atrof muhitdan devorga issiqlik o'tishi intensivligini harakterlaydi. Issiqlik berish koeffitsienti ko'pcxilik faktorlarga: oqimning tezligiga w va zichligiga ρ , uning qovushoqligi μ , muhit issiqlik va fizik hossalariga, issiqlik sig`imi c , issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti λ , suyuqliknинг hajmiy kengayish koeffitsienti β ,

devorning shakli, o`lchami va uning g`adir-budurligiga ε bog`lik, ya`ni:

$$\alpha = f(w, \mu, \rho, c, \lambda, \beta, \alpha, l, \varepsilon) \quad (4)$$

Issiqlik berish koeffitsienti α ko`pcxilik faktorlarning funktsiyasi bo`lganligi uchun, bu koeffitsientni Nusseltning kriterial tenglamasidan topish mumkin:

$$Nu = \frac{\alpha \cdot l}{\lambda} \quad (5)$$

Nu - Nusselt kriteriysi devor va oqim chegarasida issiqliqning utish tezligini harakterlaydi; l – aniqlovchi geometrik o`lcham (trubalar uchun uning diametri), m; λ - muhitning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, $Vt/(mK)$.

Konvektiv issiqlik almashinishning kriterial tenglamasi umumiyl holda quyidagi ko`rinishga ega:

$$Nu = f(Re, Gr, Pr, Fo, Pe...) \quad (6)$$

Dumalatib zichlash usuli bilan olingan trubalar uchun issiqlik almashinish tezligi quyidagi ko`rsatkichlarga bog`lik:

$$Nu = f(Re, Pr, \Psi, \frac{h}{D}, \frac{d}{D}, \frac{t}{D}) \quad (7)$$

bu yerda $\Psi = T_d/T_s$ - temperatura faktori; h/D - dumalatib zichlashning o`lchovsiz chuqurligi; d/D - dumalatib zichlashning o`lchovsiz diametri; t/D - dumalatib zichlashning o`lchovsiz qadami.

Bug`larni silliq trubali qurilmalarda kondensatsiyalash paytida, bug tarkibiga havo quxilib qolsa, issiqlik almashinish tezligikeskin ravishda kamayib ketadi. Lekin, kondensatorlardagi silliq trubalar, dumalatib zichlash usuli bilan olingan trubalar bilan almashtirilsa, issiqlik almashinish tezlashadi va bu jarayon ushbu funktsiya orqali ifodalanadi:

$$Nu = f(Re, Re_{ns}, \varepsilon, \frac{h}{D}, \frac{d}{D}, \frac{t}{D}, \frac{t}{D}, P) \quad (8)$$

bu yerda $\varepsilon = (G_x/G_b)$ - havo bug aralashmasidagi havoning miqdori, %;

G_x - havoning sarfi, kg/s; G_b – bug`ning sarfi, kg/s; P - qurilmadagi bosim, Pa; Re_{pl} - kondensat yupqa qatlami oqimining Reynolds soni. Pe - Pekle kriteriysi, jarayonning gidrodinamik sharoiti va muhitning hossalarini belgilaydi.

$$Pe = \frac{w \cdot l}{\alpha}; \quad \alpha = \frac{\lambda}{c \cdot \rho} \quad (9)$$

bu yerda a - temperatura o`tkazuvchanlik koeffitsienti, m^2/s ; Pr - Prandtl kriteriysi suyuqlikning qovushoqlik va temperatura o`tkazuvchanlik hossalarining nisbatini ifoda qiladi.

$$Pr = \frac{Pe}{Re} = \frac{w \cdot l}{a} : \frac{w \cdot l}{\nu} = \frac{\nu}{a} \quad (10)$$

Reynolds kriteriysi oqimdagи inertsiya va ishqalanish kuchlarning nisbatini aniqlaydi.

$$Re = \frac{w \cdot d \cdot \rho}{\mu} = \frac{w \cdot d}{\nu} \quad (11)$$

Fure kriteriysi noturg`un issiqlik jarayonlarida temperatura maydonining o`zgarish tezligi – muhitning o`lchami vaqt va fizik kattaliklari - o`rtasidagi bog`liqlarni belgilaydi

$$Fo = \frac{a \cdot \tau}{l^2} \quad (12)$$

Grasgof kriteriysi erkin konvektsiya paytida issiq va sovuq suyuqlik zichliklarining farqi ta'sirida hosil bo'lgan oqimning gidrodinamik rejimini ifodalaydi

$$Gr = \frac{g \cdot l^3}{\nu^2} \cdot \beta \cdot \Delta t \quad (13)$$

β - hajmiy kengayish koeffitsienti, $1/K$; Δt - devor va atrof muhit orasidagi temperaturalar farqi.

Issiqlik o'tkazishning har qanday holati uchun alohida kriterial tenglama mavjud.

Shunday qilib, oqimning har bir rejimi alohida kriterial tenglama bilan ifodalanadi. Turbulent rejimda

$$Nu = 0,023 \cdot Re^{0,8} \cdot Pr^{0,43} \cdot \left(\frac{Pr_c}{Pr_g} \right)^{0,25} \quad (14)$$

Laminar rejimda:

$$Nu = 0,17 \cdot Re^{0,33} \cdot Pr^{0,43} \cdot Gr^{0,1} \cdot \left(\frac{Pr_c}{Pr_g} \right)^{0,25} \quad (15)$$

bu yerda Pr_s – suyuqlikning o`rtacha temperaturasida hisoblanadi; Pr_d – devorning o`rtacha temperaturasida hisoblanadi.

Dumalatib zichlangan trubalar ichida bir fazali suyuqliklar yoki gazlar okib o'tganda, o`rtacha issiqlik berish quyidagi kriterial tenglamadan aniqlanadi:

$$Nu = A \cdot Nu_{cl} \quad (16)$$

bunda

$$(17)$$

$$Fo = \frac{a \cdot \tau}{l^2}$$

bu yerda Nu_{cl} – silliq truba uchun ushbu formulada topiladi:

$$Nu_{cl} = 0,0207 \cdot Re^{0,8} \cdot Pr^{0,443} \quad (18)$$

(14) formuladan va $Re \geq 10^4$ bo'lgan oraliqda foydalanish mumkin. Isituvchi agentlar uchun issiqlik berish koeffitsientining oraliqda issiqlik berish koeffitsientining qiymati quyidagicha o`zgarishi mumkin:

Isitib yoki sovutilayotganda	$\alpha, \text{Vt/m}^2 \cdot \text{K}$
1. Xavo uchun	1,14 - 58
2. Yog`lar uchun	58,0 - 1740
3. Suv uchun	232 - 11400
4. O`ta qizdirilgan suv bug`i uchun	23,2 - 114
5. Qaynayotgan suv uchun	2580 - 52200
6. Plenkasimon kondensatsiyalanaetgan bug` uchun	4440 - 17400
7. Organiq moddalar bug`ining	580 - 2320
8. Plenkasimon kondensatsiyalanayotgan ekstraktsion benzin-havo bug`ining kondensatsiyalanishi uchun	500 - 2000

Kondensatsiyalanayotgan bug`ining issiqlik berish koeffitsienti kondensatsiyalanish kriteriysi orqali hisobga olinadi:


$$K = \frac{r}{C_p \cdot \Delta t} \quad (19)$$

bu yerda r – bug`lanish issiqligi, J/kg.

Kondensatsiyalanish kriteriysi K isituvchi agentning agregat holatining o`zgarishini harakterlaydi. r va C_p lar isituvchi agentning o`rtacha temperaturasida berilgan (ilovadagi 8-jadvaldan) aniqlanadi.

Ish o`tkazishdan maqsad - isituvchi agentdan trubaning devoriga yoki trubaning devoriga yoki trubaning devoridan sovituvchi agentga issiqlik o`tganda issiqlik berish koeffitsientlarini aniqlash.

2 - rasm. Laboratoriya qurilmasining sxemasi.



2 - rasmida eksperimental qurilma sxemasi tasvirlangan. Qurilma naporli bak 19, "truba ichidagi truba" tipidagi issiqlik almashinish qurilmadan 12 va suv sarfini o`lchovchi asboblaridan iborat.

Ishning bajarish tartibi

Isituvchi agent sifatida issiqlik suv ishlataladi va u issiqlik almashinish qurilma trubasining ichki qismida yo`naltiriladi. Sovituvchi agent sifatida sovuq suv ishlatalib, u trubalar va qurilmaning ichki devori oraligidagi bo`shliqda 1,9- termoparalar; 10 - termoparalarni potentsiometrga ulaydilgan qurilma, 11 - potentsiometr, 12 – issiqlik almashinish qurilmasi; 13,14 - suv sarfini o`lchaydigan RS rotametri; 15-18 - suv sarfini rostlovchi moslamalar, 19 - bosim hosil qiluvchi idish; 20 - suv balandligini ko`rsatuvchi naycha, 21 – issiqlik suv beriladigan truba.

Issiqlik almashinish qurilmasida issiqlik va sovuq suv suvlari o`zaro qarama-qarshi yo`nalishda harakat qilishadi.

Sovuq va issiqlik suvlarning sarfi rotametrlar (13, 14) yordamida o`lchanadi.

Temperatura termoparalar yordamida o`lchanadi va ularning tartib nomeri 1-jadvalda berilgan.

Termoparalar nomeri	O`lchanayotgan temperatura	Belgilanishi
1.	Issiq suv qurilmaga kirishdan oldin	t_1
2.	Issiq suv qurilmadan chiqqandan so`ng	t_2
3.	Sovuq suv qurilmaga kirishdan oldin	t_3
10.	Sovuq suv qurilmadan chiqqandan so`ng	t_4
5.	Ichki devor atrofidagi suvning temperaturasi	t_5
10.	Kichik trubaning ichki devorning temperaturasi	t_4
7.	Kichik trubaning tashqi devorning temperaturasi	t_7
8.	Katta trubaning ichki devori atrofidagiga suyuqlikning temperaturasi	t_8
9.	Bakdagli suvning temperaturasi	t_9

Quyidagi ishda issiqlik berish koeffitsientini aniqlash quyidagi tartibda olib boriladi;

1. Naporli bak 19 suv bilan tuldiriladi va termopara 9 yordamida uning temperaturasi aniqlanadi.

Buning uchun termoparalarnipotentsiometrga ulaydigan qurilmani 0 (nol) holatiga qo`yiladi.

2. Sovuq suv berila boshlanadi. Uning sarfi rotametr 13 yordamida o`lchanadi.

3. So`ngissiq suv berib, uning sarfi, rotametr 14 yordamida o`lchanadi.

4. Xamma termoparalarningko`rsatkichlariniqlanadivayozib olinadi.

5. Besh minut vaqt o`tgandan keyin qaytadanhammatermoparalar ko`rsatkichi aniqlanadi va yozib olinadi.

6. Sovuq yoki issiq suvning sarfi ko`paytiriladi va 4,5 bandlardagi ishlar qaytariladi.

Tajriba ko`rsatkichlarini hisoblash

Isituvchi agentdan devorga birilayotgan issiqlik miqdori quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$Q = G_1 \cdot c_1 \cdot (t_1 - t_2) \quad (20)$$

bu yerda G_1 - isituvchi agentning sarfi, kg/s; c_1 - o`rtacha temperaturadagi $t_{yp} = \frac{t_1 + t_2}{2}$ isituvchi agentningissiqlik sig`imi.

Tenglamadan Q ning qiymatini aniqlab, isituvchi agentdan truba devori orasidagi tajribiy issiqlik berish koeffitsienti α_1 quyidagi formuladan topiladi.

$$Q_1 = \alpha_1 \cdot F_1 \cdot (t_1 - t_2) \quad (21)$$

bu yerda F_1 - truba devorning yuzasi, $F_1=0,193m^2$

Isitilgan truba devoridan sovutuvchi agentga o`tayotgan issiqlik miqdori, ushbu

formuladan aniqlanadi

$$Q_2 = G_2 \cdot c_2 \cdot (t_4 - t_3) \quad (22)$$

bu yerda G_2 - sovutuvchi agent sarfi, kg/s; c_2 - o`rtacha temperatura $t_{yp} = \frac{t_3 + t_4}{2}$ dagi sovuq agentning issiqliksig`imi, J/kg·K.

Truba devori va sovutuvchi agent orasidagi issiqlik berish koef-fitsienti α_2 quyidagi formuladan topiladi:

$$Q_2 = \alpha_2 \cdot F_2 \cdot (t_4 - t_3) \quad (23)$$

bu yerda F_2 - ichki trubaning yuzasi, $F_2 = 0,139 m^2$

Issiqlik berish koeffitsienti qiymatini kriterial tenglamadan aniqlanadi:

$$Nu = 0,17 \cdot Re^{0,33} \cdot Pr^{0,43} \cdot Gr^{0,1} \cdot \left(\frac{Pr_c}{Pr_\partial} \right)^{0,25} \quad (24)$$

$$Re = \frac{w \cdot d}{\mu} \quad (25)$$

bu yerda w - suyuqlikning tezligi, sekundli sarf tenglamasidan topiladi:

$$V_c = w \cdot F \quad (26)$$

bu yerda V_c - suyuqlikning hajmiy sarfi miqdori, m^3/s ; S - trubaning ko`ndalang kesim, $F = \pi \cdot d^2 / 4$. Trubalar ko`ndalang kesim uchun $F = \pi \cdot d_s^2 / 4$ ($d=0,021m$, $d_s=0,026m$). Ilovadagi 2-jadvaldan olinadi.

$$Pr = \frac{c \cdot \mu}{\lambda} \quad (27)$$

bu yerdas, μ , λ - o`rtacha temperatura suyuqlikning issiqlik sig`imi, qovushoqligi va issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsientlari.(ilovaning 2- jadvalidan olinadi)

$$Gr = \frac{g \cdot d_s^3}{\nu^2} \cdot \beta \cdot \Delta t \quad (28)$$

bu yerda β - hajmiy kengaysh koeffitsientining qiymati ilovadagi ilovadagi 1-jadvaldan aniqlanadi; Δt - devor va atrof muhit orasidagi temperaturalar farqi; d_s - truba diametri; ν - suyuqlikning kinematik qovushoqligi (ilovaning 2 - jadvalidan olinadi).

$$Pr_c / Pr_\partial \approx 0,25 \div 1,1$$

bu yerda Pr_∂ - kriteriyini hisoblash uchun suyuqlikning fizik-kimyoviy kattaliklari devorning temperaturasi bo'yichaolinadi.

Issiqlik o`xshashlik kriteriyalarining qiymatlarini bilgandagina, Nusselt kriteriysini aniqlash mumkin. So`ngra, Nu kriteriysidan issiqlik berish koeffitsienti α topiladi:

$$Nu = \frac{\alpha \cdot d}{\lambda}$$

bu yerda λ - issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti (ilovaning 2-jadvalidan olinadi). Keyin, tajribaviy va hisobiy α larning qiymatlari taqqoslab tajribaning hatosi % lar da aniqlanadi.

Hisobot jadvali

Suv sarfi		Temperatura $^{\circ}\text{C}$									α_1 tajr.	α_2 tajr.	α_3 tajr.	α_4 tajr.	α_5 tajr.	α xisob.
Issiq	Sovuq	t_1	t_2	t_3	t_4	T_5	t_4	t_7	t_8	t_9						
	$\frac{M^3}{c}$		$\frac{M^3}{c}$													

NAZORAT SAVOLLARI

1. Konvektiv issqlik almashinish jarayonining fizikaviy asosi.
2. Nyutonning sovitish qonuni.
3. Issiqlik berish koeffitsienti va uning turli faktorlarga bog`liqligi.
4. Issiqlik berishni hisoblash uchun kriterial tenglamalar: a) Isituvchi agentning agregat holi o`zgarganda; b) Isituvchi agentning agregat holi o`zgarmaganda.

Laboratoriyaishi №10

Mavzu: Eritmalarining temperatura depressiyasini aniqlash.

Ishdan maqsad: Bug`latish jarayonini va bug`latish qurilmalarini tuzilishini o`rganish

Kerakli asbob va materiallari: termoparalar; termoparalarni potentsiometr ga ulaydigan qurilma, potentsiometr, issiqlik almashinish qurilmasi; suv sarfini o`lchaydigan RS rotametri; suv sarfini rostlovchi moslamalar, bosim hosil qiluvchi idish; suv balandligini ko`rsatuvchi naycha, issiq suv beriladigan truba.

Ishning nazariy asoslari: Uchuvchan bo`lmagan moddalar eritmalarini uning tarkibidagi erituvchisini qaynatish paytida chiqarib yuborish yo`li bilan quyuqlantirish jarayoni bug`latish deb yuritiladi. Agar bug`lanish jarayoni qaynash temperaturasida past temperaturalarda, ya`ni suyuqlikning yuzasida ro`y bersa, bug`latish jarayonida bug` eritmaning butun hajmidan ajralib chiqadi.

Bug`latish jarayoni bug`latuvchi qurilmada olib boriladi.

Kimyo sanoatida ishkor, tuz va boshqa moddalarning suvli eritmalar, ayrim mineral va organik kislotalar, ko`p atomli spirtlar, hamda shu kabi bir qator suyuq eritmalar bug`latiladi. Ayrim vaqtida bug`latish yordamida toza erituvchilar ham olinadi. Ba`zi sharoitlarda quyuqlashtirilgan eritma kristallanish jarayonini amalga oshirish uchun mahsus bug`latish qurilmalariga yuboriladi.

Bug`latish jarayonlarida isituvchi agent sifatida asosan suv bug`i ishlatiladi, bunday bug` birlamchi bug` deb yuritiladi. Qaynayotgan eritmani bug`latish paytida hosil bo`lgan bug` ikkilamchi bug` deb ataladi. Bug`latish jarayoni vakuum ostida, atmosfera va yuqori bosimlarda olib borilishi mumkin. Eritmalarining hossalari va ikkilamchi bug`ning issiqligidan foydalanish zaruratiga ko`ra har xil bosimlar ishlatiladi.

Vakuum ostida bug`latish bir qator afzallikkarga ega: jarayonni past temperaturalarda olib borish mumkin; vakuum ta`sirida isituvchi agent va eritma temperaturasi o`rtasidagi foydali farq ko`payadi va natijada qurilmaning isitish yuzasi kamayadi, vakuum bilan bug`latish uchun nisbatan past parametrlari (temperatura va bosim) isituvchi agentlardan foydalanish mumkin. Vakuum ishlatilganda ikkilamchi bug`dan qaytadan birlamchi bug` sifatida foydalanish imkonи tug`iladi.

Kimyo sanoatida bug`latish jarayoni bir va ko`p korpusli qurilmalarda amalga oshiriladi. Ko`p korpusli, ya`ni bir necha qurilmalardan tashqil topgan bug`latish qurilmalari keng ishlatiladi. Ko`p korpusli qurilmalarning faqat birinchi korpusiga isituvchi (birlamchi) bug` beriladi, keyingi korpuslarini isitish uchun esa oldingi korpuslardan chiqkan ikqilamchi bug` ishlatiladi. Sanoatda ko`pincha 3-4 korpusli bug`latish qurilmalari keng ishlatiladi. Natijada bu qurilmalarda bug`ning umumiyoq sarfi, bir korpusli bug`latish qurilmalariga nisbatan 3-4 marta kamayadi. I`ar qanday issiqlik jarayonlaridek, bug`latish jarayonini harakatlantiruvchi kuchi deb temperaturalar farqi hisoblanadi. Ko`p korpusli bug`latish qurilmalarda jarayonni harakatlantiruvchi kuchi umumiyoq va foydali temperaturalar farqidir.

Ko`p korpusli bug`latish qurilmasining umumiyoq temperaturalar farqi Δt_y , birinchi korpusni isituvchi birlamchi bug`ning temperaturasi T_1 va kondensatorga

tushgan ikkilamchi bug`ning to`yinish temperaturasi T'_{kond} o`rtasidagi farqga teng:

$$\Delta t_y = T_1 - T'_{\text{kond}} \quad (1)$$

bu yerda T_1 - birlamchi bug`ning temperaturasi, K; T'_{kond} - ikqilamchi bug`ning oxirgi korpusidan kondensatorga tushgan ikkilamchi bug`ning to`yinish temperaturasi, K.

Ko`p korpusli bug`latish qurilmasidagi temperaturalarning umumiyl foydali farqi Δt_ϕ ni aniqlashga hamma qurilmalarda temperaturalar yo`qotilishining yig`indisi hisobga olinadi:

$$\Delta t_\phi = \Delta t_y - \Sigma \cdot \Delta \quad (2)$$

$$\Sigma \Delta = \Delta' + \Delta'' + \Delta''' \quad (3)$$

bu yerda $\Sigma \Delta$ - temperaturalarning yo`qotilishi; Δ' - temperatura depressiyasi, bir xil bosimda olingan eritma iaynash temperaturasi bilan toza erituvchi qaynash temperaturasi o`rtasidagi farqni ko`rsatadi.

Temperatura depressiyasining qiymati erigan modda va erituvchining fizik-kimyoviy hossalari, eritma kontsentratsiyasi va bosimga bog`liq.

Suyultirilgan eritmalar uchun har xil bosimlarda temperatura depressiyasining qiymati I.A.Tishenko tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\Delta' = 1,62 \cdot 10^{-2} \cdot \frac{T^2}{2} \cdot \Delta'_{atm} \quad (4)$$

bu yerda Δ'_{atm} - eritmaning atmosfera bosimidagi temperatura depressiyasi, 0C ; T - toza erituvchining berilgan bosimdagi qaynash temperaturasi, K; r - toza erituvchining berilgan bosimdagi bug`lanish issiqligi, kJ/kg.

Δ'' - gidrostatik depressiya, gidrostatik bosim ta`sirida bug`latish qurilmalarning isitish trubalari ichidagi eritmaning pastki va ustki qatlamlaridagi qaynash temperaturalarining farqi. Isitish trubalarning pastki qatlamida eritma, suyuqlik ustuning ta`sirida, ustki qatlamga nisbatan yuqori temperaturada qaynaydi. Gidrostatik depressiyaning qiymati aniq hisoblash qiyin, chunki Δ'' isitish trubalarning deyarli katta qismini egallangan bug`-suyuqlik emulsiyaning sirkulyatsiya tezligiga va uning o`zgaruvchan zichligiga, hamda isitish trubasining uzunligiga bog`liq. Eritma sirkulyatsiya qilinadigan vertikal qurilmalar uchun Δ'' qiymatini 1- $3{}^0C$ atrofida olish mumkin.

Δ''' - gidravlik depressiya, ikqilamchi bug` separator qurilmalari va truba orqali harakatlanganida rz yo`lida gidravlik ishqalanish va maxalliy qarshiliklarni engish uchun ketgan vaqtidagi, ikqilamchi bug` bosimining kamayishini hisobga oladi. Bitta qurilma uchun Δ''' qiymati $1{}^0C$ teng deb olish mumkin.

Temperatura va gidrostatik, gidravlik depressiyalarni hisobga olgan holda eritmaning qaynash temperaturasini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$t_k = T' + \Delta' + \Delta'' + \Delta''' \quad (5)$$

bu yerda T' - ikqilamchi bug`ning temperaturasi.

Bug`latish jarayonining yaxshi ketishi uchun har bir qurilmada temperaturalarning foydali farqi (isituvchi bug` va qaynayotgan eritma temperaturalarning farqi) ma'lum qiymatga ega bo`lishi shart. Bu farqi tabiiy sirkulyatsiya bilan ishlaydigan qurilmalar uchun kamida $5-7{}^0C$ va majburiy

sirkulyatsiya bilan ishlaydigan qurilmalar uchun kamida 3^0C bo`lishi kerak.

Umumiylar foydali temperaturalarni bilgan holda, har bir qurilma uchun foydali temperaturalarni hisobga olgan holda, ko`p korpusli bug`latish qurilmalarida, ularning optimal sonlarini aniqlash mumkin.

Masalan:

$$\Delta t_{\phi} = T_1 - T'_{kon\phi} - \Delta = 160 - 60 - 25 = 75^0C$$

ikki qurilmali qurilma uchun

$$\Sigma \Delta t_{\phi} = 160 - 60 - 2 \cdot 25 = 50^0C$$

har bir korpus uchun

$$\Delta t_{\phi} = \frac{\Sigma \Delta t_{\phi}}{2} = \frac{50}{2} = 25^0C$$

Uch korpusli bug`latish qurilmasining har bir korpusi uchun

$$\Sigma \Delta t_{\phi} = 160 - 60 - 3 \cdot 25 = 75^0C$$

To`rt korpusli bug`latish qurilmasining har bir qurilmasi uchun


$$\Delta t_{\phi} = \frac{25}{3} = 8,3^0C$$

Shunday qilib ko`p korpusli bug`latish qurilmalari uchun qurilmalarning soni 3 ta bo`lishi kerak.

$$\Sigma \Delta t_{\phi} = 160 - 60 - 4 \cdot 25 = 0$$

Shunday qilib ko`p korpusli bug`latish qurilmalarida korpuslar soni oshishi bilan foydali temperaturalar farqi kamayadi, ammo isitish yuzasi bir xil bo`lgan holda esa uning unumdarligi yuqori bo`ladi.

Ko`p korpusli bug` iurilmalarida korpuslarning optimal sonini grafik usul bilan ham aniqlash mumkin. Vertikal o`sishni idabug`latishning iiymati, gorizontal o`qida esa korpuslarning soni ko`rsatilgan (1 - rasm).



1 - Isituvchi bug`ning sarfi.

2 - Amortizatsiya sarflari.

3 - Umumiy sarf.


1 - rasm. Qurilmaning optimal sonini aniqlash.

Grafikdan ko`rinib turibdiki, korpuslarning soni ko`payishi bilan isituvchibug`ningsarfi kamayadi, amortizatsiya sarflari esa ortadi. Umumiylar belgilovchi egrichiziqning (3) minimumiga to`g`ri kelgan qurilmalarning soni taxminan optimal deb qabul qilinadi.

Ishni o`tkazishdan maqsad- suyultirilgan eritmalarining har xil bosim ta`sirida qaynash paytidagi temperatura depressiyasini tajriba yo`li bilan aniqlash.

Ishni bajarish tartibi

Laboratoriya tajriba qurilmasining sxemasi 9.2 - rasmda ko`rsatilgan.



2 - rasm. Laboratoriya tajriba qurilmasi

1 - suyultirilgan eritma quylgan kolba; 2 - eritmaning qaynash temperaturasini o`lchovchi termometr; 3 - ikqilamchi bug`ning temperaturasini o`lchovchi termometr; 4 – sovutkich; 5 - manometr; 6 - Bunzen kolbasi; 7 - vakuum-nasos; 8 - gaz isitkich.

Vakuum nasos va Bunzen kolbasi vositasida suyultirilgan eritma quylgan kolbada vakuum hosil qilinadi. vakuumning miqdori U-simon manometrning ko`rsatkichi bo'yicha o'lchanadi. Eritmaning qaynash va ikqilamchi bug`ning temperaturasi termometrlar vositasida o'lchanadi.

Eritmani qaynash temperaturasigacha gaz isitkich yordamida qizdiriladi. Laboratoriya tajriba qurilmasida eritmaning temperatura depressiyasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Qurilmaning xolati tekshiriladi.
2. Laborant ishtirokida vakuum nasos elektr tok manbaiga ulanadi va gaz isitkich yoqiladi.
3. Vakuum nasos yordamida sistemada eng ko'p siyraklanish hosil qilinib, kolbadagi eritmani qaynash xolatigacha qizdiriladi.
4. Eritmani qaynash paytidagi termometrlarning ko`rsatkichi bo'yicha, eritmaning qaynash temperurasini (t) va to`yingan bug`ning (ikqilamchi bug`) temperurasini (θ) aniqlab hisoblash jadvaliga yoziladi.
5. Vakuum nasos hosil qilayotgan vakuum miqdorini asta-sekin minimumgacha kran vositasida kamaytirilib, eritma qaynatiladi. Vakuum miqdori har xil bo`lganda, eritma qaynash paytida termometrlarning ko`rsatkichi aniqlab, hisoblash jadvaliga yoziladi. Gaz isitkich o`chiriladi. Eritmani asta-sekin sovitib, sistemada asta-sekin vakuum miqdori ko`paytiriladi va tajriba qaytadan bajariladi.

Tajriba natijalarini hisoblash

Sistemada tajriba vaqtida vakuum har xil miqdorda o`zgarganda eritmaning temperatura depressiyasi quyidagi tenglama vositasida aniqlanadi:

$$\Delta'_T = t - \theta$$

Eritmaning temperatura depressiya nazariy jihatdan I.A.Tishenko tenglamasi orqali hisoblanadi.

$$\Delta' = 1,62 \cdot 10^{-2} \frac{T^2}{r} \Delta_{\text{atm}}$$

Formuladagi r - ning miqdori absolyut bosimning kattaligiga asosan ilovadagi 8-jadvaldan aniqlanadi.

Δ_{atm} - eritmaning kontsentratsiyasi bo'yicha ilovadagi 9 jadvaldananiqlanadi. Tajriba olingan Δ'_r qiymatini, A.I.Tishenko tenglamasi bilan hisoblangan Δ' qiymati bilan taqioslab tajribaning xatosi % miqdorida aniqlanadi.

Hisoblash jadvali

№	Eritma va uning kontsentratsiyasi			Atmosfera bosimidagi temperatura depressiyasi Δ'_{am}		
	Absolyut bosim $P_{\text{abs}} = P_{\text{at}} - P_{\text{vak}}$	Eratmaning qaynash temperatura si $t, {}^\circ\text{C}$	To`yin-gan bug`ning temperaturasi $\theta, {}^\circ\text{C}$	Eritmaning temperatura depressiyasi $\Delta'_r, {}^\circ\text{C}$	Eritmaning hisoblangan temperatura depressiyasi $\Delta'_r, {}^\circ\text{C}$	Tajribanin g hatosi $\frac{\Delta' - \Delta'_r}{\Delta'} \cdot 100\%$
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Tekshirish uchun savollar

1. Bug`latish. Bug`latish haqida umumiylar tushunchalar.
2. Bir korpusli bug`latish qurilmasi.
3. Moddiy va issiqlik balanslari.
4. Temperaturalarning yo`iotilishi.
5. Umumiylar foydali temperaturalar farqi.
6. Ko`p korpusli bug`latish qurilmalari.
7. Qurilmalarning optimal sonini aniqlash.
8. Bug`latish qurilmalarning konstruktsiyalari (osma isitish kamerali, tashqi sirkulyatsion trubali, ajratilgan isitkichli, majburiy sirkulyatsiyali, plenkali, issiqlik nasosli bug`latish qurilmalari).

Laboratoriya ishi №11

Mavzu: Quritish qurilmasida qurish jarayonini o`rganish.

Ishdan maqsad: materialni quritishda namlik miqdorini aniqlash, issiqlikni va havoni solishtirma sarf miqdorlarini aniqlashdan iborat bo`lib, I – x diagrammasida ko`rish jarayoni tasvirlanadi.

Kerakli asbob va materiallari: Laboratoriya qurilmasi

Ishning nazariy asoslari: Quritish – qattiq va pastasimon materiallarni qurituvchi agent yordamida suvsizlantirish jarayoniga aytildi. Quritish asosan ikki usulda olib boriladi.

1. Konvektiv quritish - nam material bilan qurituvchi agent to`g`ridan-to`g`ri o`zaro aralashadi.

2. Kontaktli quritish – issiqlik tashuvchi agent va nam material o`rtasida ularni ajratib turuvchi devor bo`ladi.

Quritish jarayonida materialdan namlik bug`lanadi va ana shu bug`lar gaz, havo bilan qo`silib, bir jinsli aralashma hosil qiladi, qaysiki bunga termodinamikaning asosiy qonunlari qo`laniladi.

Demak: nam, quruq havo va suv bug`larining aralashmasidan iborat, quritish jarayonida, (asosan nam havo) namlik va issiqlik tashuvchi agent vazifasini bajaradi.

Nam havoning asosiy hossalari quyidagi parametrlar bilan harakterlanadi: absolyut namlik, nisbiy namlik, nam saqlash, entalpiya.

Absolyut namlik - nam havoning hajm birligiga to`g`ri kelgan suv bug`larining miqdoriga aytildi va ρ_{sb} (kg/m^3) bilan belgilanadi. Agar nam havo o`zgarmas nam saqlashda $x = \text{const}$ sovutilsa, ma`lum temeraturaga etgach, namlik shudring sifatida ajrala boshlaydi, bunday jarayonga shudring nuqtasi deyiladi. Bu sharoitda havo tarkibida maksimal miqdorda suv bug`i bo`ladi. Xavoning to`yinish paytidagi absolyut namligi ρ_t (kg/m^3) orqali ifodalanadi.

Nisbiy namlik - havo absolyut namligining to`yinish paytidagi absolyut namlik nisbatiga aytildi. Xavoning nisbiy namligi (to`yinish darajasi) foiz hisobida quyidagi ifoda bo`yichatopiladi:

$$\varphi = \frac{\rho_{c\bar{o}}}{\rho_t} = \frac{P_{c\bar{o}}}{P_t} \quad (1)$$

buerda: P_{sb} - tekshirilayotgan nam havodagi suv bug`larining partsial bosimi, Pa; P_t - berilgan temperatura va umumi barometrik bosimda to`yingan suv bug`larining bosimi, Pa.

Nam saqlash - 1 kg absolyut quruq havoga to`g`ri kelgan suv bug`larining miqdori. Bu parametr x (kg/kg) yoki d (g/kg) bilan belgilanadi va quyidagi nisbatda ifodalanadi:

$$x = \frac{\rho_{c\bar{o}} \cdot m_{c\bar{o}}}{\rho_{\kappa x} \cdot m_{\kappa x}}; \quad \frac{\kappa\bar{d}y\bar{s}}{\kappa\bar{g}.a\bar{b}\bar{s}.k\bar{u}\bar{r}\bar{p}.x\bar{a}\bar{v}\bar{o}} \quad (2)$$

$$\alpha = 1000 \cdot \frac{\rho_{c\bar{o}}}{\rho_{\kappa x}}. \quad (3)$$

bu yerda: $\rho_{k.x.}$ - absolyut quruq havoning zichligi; $m_{s.b.}$ - nam havoning berilgan hajmdagi suv bug`lari massasi; $m_{k.x.}$ - nam havoning berilgan hajmdagi absolyut quruq havosining massasi.

Mendeleev-Klapeyron tenglamasidan foydalanib, quyidagi ko`rinishdagi ifodani olamiz:

$$x = \frac{\rho_{c\delta}}{R_\delta \cdot T} \cdot \frac{R_\delta \cdot T}{\rho_r} = \frac{P_\delta \cdot P_r}{R_\delta \cdot R_r} \quad (4)$$

bu yerda: R_b - suv bug`i doimiysi; T - aralashmaning absolyut temperaturasi, K.

Absolyut quruq havoning partsial bosimini $P_{k.x.}$ umumiy aralashmaning bosimi R ga almashtirsak va Dalton Qonuniga asosan: Qaysiki $P_{c\delta} = \varphi \cdot P_r$ bo`lsa,

$$P_r = P - P_{c\delta} = P - \varphi \cdot P_r \quad (5)$$

unda

$$x = \frac{R_r}{R_\delta} \cdot \frac{\varphi \cdot P_r}{P - \varphi \cdot P_r} = \frac{29,27}{47,06} \cdot \frac{\varphi \cdot P_r}{P - \varphi \cdot P_r} \quad (6)$$

yoki

$$x = 0,622 \cdot \frac{\varphi \cdot P_r}{P - \varphi \cdot P_r}, \quad (7)$$

yoki agarda $x = d$

$$d = 0,622 \cdot \frac{\varphi \cdot P_r}{P - \varphi \cdot P_r}, \quad \frac{\text{кэч.бүгун.}}{\text{кэ.кур.хабо.}} \quad (8)$$

Oxirgi ikki ifoda suv bug`i bilan havo aralashmasi bo`lgani kabi tutun gazi va suv bug`iga ham taluqlidir. Nam havoning entalpiyasi I (J/kg quruq havo) quruq havo entalpiyasi bilan shu nam havoda bo`lgan suv bug`i entalpiyasinining yig`indisiga teng.

$$I = c_{k.x.} \cdot t + x \cdot i_{y.\delta.} \quad (9)$$

bu yerda: $s_{k.x.}$ - quruq havoning solishtirma issiqlik sig`imi, J/kg·K;

t - havo temperaturasi, ^0C ;

$i_{u.b.}$ - H ta qizdirilgan bug`ning entalpiyasi, J/kg;

O`ta qizdirilgan bug`ning entalpiyasi $i_{u.b.}$ (J/kg) termodinamikada quyidagi tenglama bilan topiladi:

$$i_{y.\delta.} = r + c_\delta \cdot t \quad (10)$$

bu yerda: r - 0^0C dagi bug`ning entalpiyasi, $r = 2493 \cdot 10^3$, J/kg; s_b - bug`ning solishtirma issiqlik sig`imi; $s_b = 1,97 \cdot 10^3$, J/kg·K

Agar quruq havoning solishtirma issiqlik sig`imi 1000 J/kg·K deb olinsa, (10) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$I = (1005 + 1,97 \cdot 10^3 \cdot x) \cdot t + 2493 \cdot 10^3 \cdot x \quad (11)$$

Shudring nuqtasi, bu aralashmaning temperaturasi sovishda ($x=const$) suv bug`ining to`yinishiga ($\varphi=100\%$) aytildi. Namlik temperaturasining keyingi passayishi tuman hosil bo`lishiga olib keladi. Xo`l termometr temperaturasi (t_x) - aralashma temperaturasi sovushida, entalpiyasi o`zgarmagan holda ($I=const$) suv bug`ining to`yinishiga aytildi. Shu temperaturada, gaz fazasidan suyuqlik fazasi yuzasiga o`tadigan issiqlik namlikning bug`lanishiga to`liq sarflanadi, bu holatni nam jismning sovish chegarasi deb ham yuritiladi.

Quritish potentsiali deb, quruq gaz temperaturasi (t_k) bilan xo`l termometr temperaturasining ayirmasiga aytildi.

$$\varepsilon = t_k - t_x \quad (12)$$

Quritish potentsiali gazning nam yutish hususiyatini harakterlaydi. Quritish jarayoni analitik va grafik usulidan hisoblanishi mumkin. Grafik hisoblash qulay bo`lgani uchun keng qo`llaniladi. Bu diagramma Ramzin tomonidan taklif qilingan va $I - x$ diagramma ham deb yuritiladi, uning tuzilishida bosim qiymati o`zgarmas deb olingan, ya`ni 745 mm simob ustuniga teng.

Diagrammaning asosiy o`qlari oralig`idagi burchak 135° . Asosiy o`qlarga nam havoning ikkita asosiy parametrlari - entalpiya I (J/kg quruq havo) va nam saqlash x (kg/kg quruq havo) joylashtirilgan. Nam saqlashning qiymatlari diagrammadan foydalanish qulay bo`lishi uchun yordamchi gorizontal o`q joylashtirilgan. Bunda $I=const$ chiziqlar ordinata o`q`iga nisbatan $135^\circ C$ burchak bilan ma'lum masshtabda joylashtirilgan. $x = const$ chiziqlar esa, yordamchi abstsissa o`g`iga perpendikular qilib joylashtirilgan. $I - x$ diagrammasiga asosiy chiziqlardan tashqari quyidagi chiziqlar ham joylashtirilgan: o`zgarmas temperatura chiziqlari yoki izotermalar ($t = const$) o`zgarmas nisbiy namlik chiziqlar $\varphi = const$, suv bug`ining partsial bosim chizig`i, $\varphi = 100\%$ chizig`i diagrammani ikki qismga bo`ladi. Bu chiziqning yuqori qismi diagrammaning ish yuzasi deb aytildi va u to`yinmagan nam havoga to`g`ri keladi.

$I - x$ diagrammasi yordamida nam havoning istalgan ikkita parametri bo`yichanam havoning qolgan parametrlari aniqlash mumkin. Suv bug`ining partsial bosimi chizig`i diagrammaning pastki qismiga joylashtirilgan. Agar diagrammada nam havoning xolatini belgilovchi nuqta ma'lum bo`lsa, suv bug`ining partsial bosimi qiymatining R_p aniqlash mumkin.

Quritish qurilmalarida issiqlik miqdorini hisoblash uchun havoning sarf miqdori va issiqlik miqdorini bilish zarur.

Havoning sarfi (L, kg/soat) moddiy balans tenglamasidan aniqlanadi

$$L \cdot x_2 = L \cdot x_0 + W \quad (13)$$

$$L = \frac{W}{x_2 - x_0} \quad (14)$$

bu yerda: W – bug`langan namlik miqdori, kg; x_0, x_2 – g`uruq` va q`uritkichdan

chiq`ayotgan havoning nam saqlashi.

Havoning solishtirma sarf miqdori (1 kg bug`lanish uchun)

$$l = \frac{1}{x_2 - x_0}, \quad \frac{\kappa_2 \text{ күрүк хаево}}{\kappa_2 \text{ бүг}} \quad (15)$$

Quritishga ketgan issiqlik miqdori issiqlik balansidan aniq`lanadi.

Issiqlikning kirishi: (kJ/soat)

- 1) havo bilan $L \cdot I_1 = L \cdot I_0 + Q_n$ bu yerda $L \cdot I_0$ - isitkichgacha kirgan havoning issiqligi, Q_n - isitkichda havoning bergan issiqligi;
- 2) Material bilan G_1, c_1, θ_1 bu yerda s_1 - nam materialning issiqlik sig`imi, θ_1 - materialning dastlabki temperaturasi;
- 3) Transport q`urilmalari bilan $G_{mp}, c_{mp}, \theta_{mp}$ bu erda G_{mp} - transport q`urilmalarining massasi; c_{mp} - transport q`urilmalari materialining issiqlik sig`imi; θ_{mp} - transport q`urilmalarining dastlabki temperaturasi;
- 4) Quritish kamerasiga kiritilgan qo`shimcha issiqlik q_k .

Issig`likni sarflanishi (kJ/soat)

- 1) Quritkichdan chig`ayotgan havo bilan - LI_2
 - 2) Quritilgan material bilan - $G_2 c_2 \theta_2$
 - 3) Transport qurilmalari bilan - $G_{mp} c_{mp} \theta_{mp}$
 - 4) Issiqlikni atrof-muxitga yo`qolishi - Q_y
- Issiqlik balansini to`zamiz:

$$L \cdot I_1 + G_1 \cdot c_1 \cdot \theta_1 + G_{mp} \cdot c_{mp} \cdot \theta'_{mp} + q_k = L \cdot I_2 + G_2 \cdot c_2 \cdot \theta_2 + G_{mp} \cdot c_{mp} \theta''_{mp} + Q_u$$

bundan

$$L \cdot (I_2 - I_1) = G_1 \cdot c_1 \cdot \theta_1 + G_{mp} \cdot c_{mp} \cdot \theta'_{mp} + q_k - G_2 \cdot c_2 \cdot \theta_2 - G_{mp} \cdot c_{mp} \theta''_{mp} - Q_u$$

yoki

$$L \cdot (I_2 - I_1) = \sum Q$$

Oxirgi tenglamaning o`ng va chap tomonlarini W_{ga} bo`lib, quyidagi ifodani olamiz:

$$\frac{L}{W} \cdot (I_2 - I_1) = \frac{\sum Q}{W}$$

$$\frac{\sum Q}{W} = \Delta \text{ deb belgilaymiz, } \frac{L}{W} = l \text{ bo`lgani uchun}$$

$$l \cdot (I_2 - I_1) = \Delta$$

yoki

$$I_2 = I_1 + \frac{\Delta}{l}$$


Tenglamaga kiritilgan Δ kattalik quritish kamerasi ichidagi kiritilgan va

sarflangan issiqliklar ayirmasining 1 kg bug`langan namlikka nisbatini belgilaydi. Bu erda asosiy kaloriferda isitilgan havo bilan kirgan va chiqqan issiqliklar hisobga olinadi. Ko`pincha Δ quritish kamerasining ichki balansi deb ataladi. (12) tenglamasidan ko`rinib turibdiki, Δ ning ishorasiga ko`ra I_2 ning q`iymati I_1 ning qiymatidan katta yoki kichik bo`lishi mumkin. Agar $\Delta = 0$ bo`lsa, u holda $I_2 = I_1$ bu esa nazariy quritish deyiladi. Bunda quritish jarayonida qurituvchi agent entalpiyasi o`zgarmagan holda bo`ladi. Bu degan so`z materialni suvsizlantirish havoning sovub ketishi bog`liqdir. Unda issiqlik miqdori havo bilan kelayotgan quritilayotgan materialning namligi bilan qaytib ketadi. Agarda $\Delta > 0$ bo`lsa, ko`rish jarayonida entalpiyaning o`sishi ko`zatiladi, ya`ni $I_2 > I_1$. Agarda $\Delta < 0$, bulsa $I_2 < I_1$ entalpiyaning kamayishidir. Issiqlik va havoning miqdorini quritish jarayonida aniqlash katta ahamiyatga ega bo`lib, u texnologiyani hisoblashda qo`llaniladi. Bu hisoblash analistik yoki grafoanalistik usullarda olib boriladi va amaliyotda keng qo`llaniladi.

Grafoanalitik usuli $I - x$ diagrammaga asoslangan bo`lib, undan havoning nam saqlash va entalpiyasi aniqlanib, keyin esa quritish jarayoni diagrammada ko`riladi (nazariy yoki real quritish jarayonlari).

Ishni bajarish tartibi

1- rasmda laboratoriya qurilmasini tasvirlangan.



1-rasm. Laboratoriya qurilmasining sxemasi

1. Elektrodvigatel.
2. Diffuziya (trubaning birdan kengayishi).
3. Ventilator.
4. Taroz.
5. Quruq vaho`l termometrlar (quritishdan oldin).
6. N_2SO_4 bilan to`ldirilgan idishcha uchun trubaning kengaygan qismi.
7. Quruq vaho`l termometrlar (quritishdan oldin).
8. Elektr isitkich (asosiy)
9. Taroz.
10. Havooqimi harakatlanadigan truba $D = 200$ mm
5. Quruq va ho`l termometrlar (Quritishdan keyin).
12. Konfo`zor (trubaning birdan torayishi).
13. Havo beriladigan patrubka.
110. Ishlatilgan havo chiqadigan patrubka.
15. Havo sarfini sozlovchi qurilma.

Laboratoriya quritish qurilmasida ish quyidagi tartibda bajariladi.

1. Qurilmadagi quritgich, ventillyator, tarozi, isitkich havoning miqdorini o`lchovchi shiber, termometrlarning holati tekshiriladi.
2. Quritish uchun 100 – 120 gr miqdorda namlangan material tortib olinadi.
3. Namlangan material quritish uskunasidagi kamera ichidagi tarozi pallasiga

qoyib quritiladi.

4. Havo va quruq termometrlarning birinchi ko`rsatkichlari yozib olinadi.

5. “Assman” psixrometri yordamida quruq va ho`l termometrlar ko`rsatkichi o`lchanadi (Ramzin diagrammasida havoning boshlang`ich nuqtasini aniqlash u-n).

6. Quritish apparati tok manbaiga ulanadi.

7. Ma’lum vaqtdan so’ng(o`g`ituvchi ko`rsatmasidan so`ng) quruq va ho`l termometrlar ko`rsatkichi o`lchaniladi.

Tajriba natijalarini hisoblash

Olingan natijalarga asosan I – x diagrammada nazariy quritish jarayoni tasvirlanadi. I - x diagrammaga bir bo`lak kalka kog`ozi ko`yib koordinatalar o`g`i ko`chirib olinadi va kalka kog`ozida tajribada aniqlangan havoning quritishdan avvalgi, quritkichga kirish va chiqish xolati A, V, S, nuqtalar bilan tasvirlanadi.

Bug`langan namlikning miqdori W aniqlanadi

$$W = G_1 - G_2$$

bu yerda G_1 - nam materialning massasi, kg/s; G_2 - quruq materialning massasi, kg/s;

Havo sarfi (15) tenglamasi yordamida aniqlanadi:

$$L = \frac{W}{x_2 - x_0}$$

Havoning solishtirma sarf miqdori:

$$l = \frac{1}{x_2 - x_0}$$

Quritish uchun ketgan issiqlik sarfi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$Q = q \cdot W$$

bu yerda q – solishtirma issiqlik sarfi

$$q = \frac{I_2 - I_1}{x_2 - x_0}$$

bu yerda I_1, I_2 - havoning quritkichga kirishi va chiqishi vaqtidagi entalpiyasining qiymati, kJ/kg I - x diagrammadan aniqlanadi.

Hisoblash jadvali

Havo muhitining temperaturasi		Havoning quritish kamerasigacha bo`lgan temperaturasi		Havoning quritish kamersining keyining temperaturasi		Nam materialning miqdori, kg	Quritilgan materialning miqdori ,kg
Ho`l termometr, t°C	Quruq termometr, t°C	Ho`l termometr, t°C	Quruq termometr, t°C	Ho`l termometr, t°C	Quruq termometr, t°C		

Tekshirish uchun savollar

1. Nam havoning asosiy parametrlari:
 - a) absolyut namlik, b) nisbiy namlik, v) nam saqlash, g) nam havoning entalpiyasi,
 - d) partsial bosim,
 - e) shudring nuqtasi temperaturasi, j) ho`l termometr temperaturasi.
2. I-x diagrammaning tuzilishi.
3. I-x diagrammada quritish jarayonini tasvirlang.
4. Nazariyva real quritkich jarayonlarining I-x diagrammada tasvirlanishi.
5. Quritishjarayonlari uchun issiqlik va havoning umumiylari solishtirma sarf miqdorlarini aniqlash.
6. Ko`rish jarayonlarini variantlarini I-x diagrammada tasvirlanishi.

Laboratoriya ishi №12

Mavzu: Harakatchan nasadkali kolonnalarda massa berish va o'tkazish koeffitsientlarini aniqlash

Ishning maqsadi: Gidrodinamik omillar ta'sirini aniqlash, ya'ni (nasadkali kolonnalarini ishlash vaqtida) – namlash zichligini, qatlamning gidravlik qarshiliklarini engish uchun sarf bo'ladigan bosimni aniqlash va kolonnada gazning harakat rejimini aniqlashdir.

Kerakli asbob va materiallari. Laboratoriya tajriba qurilmasi, termoparalar; termoparalarni potentsiometrga ulaydilgan qurilma, potentsiometr, suv sarfini o'lchaydigan RS rotametri; suv sarfini rostlovchi moslamalar, bosim hosil qiluvchi idish; suv balandligini ko'rsatuvchi naycha,

Ishning nazariy asoslari. Sanoatda keng ko'llaniladigan vertikal kolonna qurilmalari, asosan qattiq jismli har xil shakldagi nasadkalar bilan to'ldiriladi. Sanoatdagi ishlatiladigan nasadkalar kolonnaga ikki xil usulda joylashtiriladi: tartibli (tugri bir xilda taxlash) va tartibsiz (quyib taxlash). Xalqasimon (tugri taxlanganda) nasadkalar tartibli joylashtiriladi. Xalqasimon (qo'yib tashlanganda), egarsimon va bulakli nasadkalar tartibsiz joylashtiriladi. Nasadkalar plastmassa, chinni, temir va boshqa turdagи materiallardan tayyorlanadi. Ular maksimal solishtirma yuzaga, minimal massaga, kichik gidravlik qarshilikka va katta erkin xajmga ega bulgan bo'lishi kerak.

A (m^2/m^3) nasadkaning solishtirma yuzasi xajm birligiga to'g'ri keladigan katlam va erkin bo'sh xajmi $\epsilon(m^3/m^3)$ qaysiki nasadkali elementlar orasidagi erkin bo'sh, xajm, qatlamning yuza birligiga to'g'ri kelishni ko'rsatadi. Bundan tashqari qurilmaning samaradorligini oshirish uchun nasadkalarni yaxshi xo'llab va bir xilda suyo`li qni purkab tarqatish zarur, bu esa kelayotgan gazni gidrodinamik qarshiligi ni kamaytirishga va shu muhitda korroziyadan saqlashga olib keladi. Bu xildagi nasadkalar talablarning xammasinga javob bera olmaydi. Masalan: nasadkaning solishtirma yuzasining oshishi qurilmaning gidrodinamik qarshiligi oshishga olib keladi va boshqalar. Nasadkalarni tanlashda asosiy talabni qondirishiga e'tibor beriladi. Nasadka elementlari kancha katta bo'lsa, gazlarning tezligi va shu bilan birgalikda qurilmaning unumдорligi yuqori, gidravlik qarshiligi kam bo'ladi. Kichik o'lchamga ega bo'lган nasadkalar asosan modda almashinish jarayonlarida yuqori bosim ostida ishlaydigan qurilmalarda qo'llaniladi, bunda gidravlik qarshilikning ta'siri juda oz mikdorda bo'ladi.

Nasadkali kolonnalar rektifikatsiya va absorbsiya jarayonlari olib boriladigan qurilmalarda keng ko'llaniladi. Sanoatda qo'llaniladigan asosiy nasadkalar farfordan tayyorlangan bo'lib, uni Rashig xalkasi deyiladi va bular qurilmaning gaz va suyuqlik o'tadigan tayanch turlarga o'rnatiladi. Gaz turning pastidan beriladi, sungra nasadka katlamidan utadi. Suyuqlik esa kolonnaning yuqori qismidan maxsus taqsimlagichlar orqali sochib beriladi, u nasadka katlamidan o'tayotganida pastdan berilayotgan gaz oqimi bilan uchrashadi. Kolonna effektiv ishlashi uchun suyuqlik bir tekisda, qurilmaning butun ko'ndalang kesimi buylab bir xil sochib berilishi kerak.

Nasadkali kolonnalar turli xil gidrodinamik rejimlarda ishlaydi, ularning rejimini aniqlash esa, namlangan nasadkaning gidravlik qarshiligi bilan kolonnadan o'tayotgan gazning tezligiga bog'liq.

Birinchi rejim plyonkali bo'lib, bunda gaz kichik tezlikda, suyuqlik esa oz mikdorda beriladi. Bunday rejimda suyuqlik nasadkalar bo'ylab tomchi va plyonkalar tarzida harakat qiladi.

Ikkinci – oraliq rejim bo'lib, suyuqlik mikdori va gazning tezligi bir oz ko'payganda yuz beradi. Bu rejimda suyuqlikning plyonkali xarakatiga gaz to'sqinlik qilib, (qarama – qarshi yo'nalishda), uning harakatini sekinlashtiradi, natijada suyuqlik uyurma xarakat qiladi. Suyuqlikning mikdori nasadkalarda oshib boradi, natijada plyonkaning qalinligi ortib borib, tezligi esa kamayib boradi. Gazning tezligi oshgan sari suyuqlikning uyurma xarakati to'lqinsimon (turbulent) xarakatga aylanadi. To'lqinsimon rejimda suyuqlik fazasi turbulizatsiya qilingan bo'ladi. Suyuq fazaning turbulizatsiyalangan plyonkalari yuzasida fazalar o'zaro kontaktga uchraydi. Bunda modda almashinish jarayoni intensiv xolatda bo'ladi, lekin nasadkaning gidravlik qarshiligi keskin ortib ketadi.

Uchinchi rejim – emulgatsion bo'lib, bunda berilayotgan suyuqlik mikdori va gaz tezligi ancha kupayganda hosil bo'ladi. Bu rejim effektiv rejim hisoblanadi. Bunda intensiv aralashish yuz beradi, chunki suyuqlik bo'sh hajmdagi nasadkalarning xamma yuzasini to'ldiradi. Bu yyerda nasadkaning geometrik yuzasi rol o'ynamaydi, faqtgina yuza suyuqligiga katta xajmdagi pufakli va oqim gazi ta'sir kiladi. Bu esa «gaz – suyuqlik» sistemasini tashkil etadi.

To'rtinchi rejimda suyuqlik mikdori va gazning tezligi yana xam ortib ketsa, suyuqlik nasadkaning ustki sathidan oshib, kolonnadan tashqariga chiqib ketadi. Bu rejimning samaradorligi juda kam bo'lgani uchun amalda qo'llanilmaydi.

Shunday qilib, modda almashinish jarayonida, jumladan gazlarning tezligi, gidrodinamik qarshiligi absorbtion kolonnalarining gidrodinamik ishlash rejimiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Quruq nasadkali qurilmaning bir fazali gaz xarakatida gidrodinamik qarshiligi quyidagicha ifoda bilan aniqlanadi:

$$\Delta P_{kyp} = \xi_{kyp} \frac{H}{d_s} \cdot \frac{\rho w^2}{2} \quad (1)$$

bu yyerda ξ_{kyp} – quruq nasadkali qurilmaning qarshilik koeffitsienti; d_s – nasadka qatlamining balandligi, m; d_e – gaz xarakatlanayotgan kanalning ekvivalent diametri, m; ρ – gazning zichligi, kg/m³; w – gazning xaqiqiy tezligi, m/s.

Gazning xaqiqiy tezligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$w = w_0 / \varepsilon \quad (2)$$

ε – nasadkalar orasidagi erkin bo'sh; w_0 – gazning fiktiv tezligi yoki qurilmaning to'la kesimga nisbatan olingen gazning tezligi, m³/m² s.

Namlangan nasadkali qurilmalarning gidravlik karsxiligi, ya'ni ikki fazali xarakatda gaz va suyuqlik rejimida quruq nasadkali qurilmalarnikidan (ΔP_{kur}) katta, chunki suyuqlikning ma'lum mikdori nasadkani xullashi natijasida uning yuzasida va tor kanallarida ushlanib qoladi, bu esa gazning xakikiy tezligiga ta'sir kursatadi.

Namlangan nasadkali kolonnaning qarshiligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\Delta P_{ham} = \xi_{ham} \frac{H}{d_s} \cdot \frac{\rho w_h^2}{2} \quad (3)$$

bu yerda : ξ_{ham} - namlangan nasadkali qurilmaning karsxilik koeffitsienti; w_h – gazning soxta tezligi (qurilmaning tulik kundalang kesimiga nisbatan xisoblangan), m/s.

Bu ifodaning murakkabligi va gidravlik qarshilikni aniq hisoblash qiyinligi uchun, quyidagi sodda ko'rinishidagi ifoda orqali hisoblash mumkin, bu faqatgina namlash zichligini xisobga oladi:

$$\Delta P_{ham} = 10^{BU} \Delta P_{kyp} \quad (4)$$

bu yyerda : U – namlash zichligi, $m^3/m^2 s$; B – nasadkaning kattaligi va namlash zichligiga qarab tajriba orqali aniqlanadigan koeffitsient, uning qiymati ilovadagi VI jadvaldan olinadi. Namlash zichligi – suyuqlikning hajmiy sarfidir. Nasadkalar kolonnaga tartibsiz joylashtirilganda suyuqlik nasadkaning yuzasi va katlam balandligi buyicha bir xilda taqsimlanmaydi, chunki qurilmaning devoriga yakinlashgan sari gaz oqimining tezligi qurilma o'qidagi tezlikka nisbatan kamroq bo'ladi. Shuning uchun suyuqlik qurilmaning devori buyicha pastga qarab oqib tushadi. Shu sababdan suyuqlikning xamma nasadkalarning yuzasi bo'yicha bir xilda taqsimlanishi uchun, nasadkalarning qatlam ostiga yo'naltiruvchi konussimon qurilma o'rnatiladi.

Kolonnaning yuqori qismidan sochib berilayotgan suyuqlik qurilmaning butun ko'ndalang kesimi bo'yicha bir xilda nasadkalar qatlamida taqsimlanganda, nasadkali kolonnalar samarador ishlaydi.

Nasadkali kolonnalarning tuzilishi sodda, gidravlik qarshiligi kam bo'lgani uchun ular ishlatish uchun qulaydir.

Kamchiligi: jarayon davomida xosil bulgan issiqlikni ajratib olish va kichik namlash zichligida nasadkaning namlanishi qiyinlashadi va ifoslangan suyuqliklarda nasadkali kolonnalarni qo'llash qiyin bo'ladi.

Ishning maqsadi:


Gidrodinamik omillar ta'sirini aniqlash, ya'ni (nasadkali kolonnalarni ishlash vaqtida) – namlash zichligini, qatlamning gidravlik qarshiliklarini yengish uchun sarf bo'ladigan bosimni aniqlash va kolonnada gazning xarakat rejimini aniqlashdir.

Ishni bajarish tartibi:

1 rasmda laboratoriya tajriba qurilmasi tasvirlangan. Tajriba qurilmasi ikkita metalldan tayyorlangan kolonnadan tashkil topgan bo'lib, birinchi kolonnaning diametri $D=150$ mm bulib, Xalqasimon Rashig nasadkalari bilan tuldirilgan, ikkinchi kolonnaning diametri $D=60$ mm bo'lib, kesmali nasadkalardan iboratdir. Tsirkulyatsiyali nasos 2, suv toplash idishi 1, membranali kompressor 10, bosimni ulhash uchun manometrlar 6, 7, 8 va suvning sarf miqdorini ulhash uchun 5 va gaz uchun 11 rotametrlar qo'yilgan.

Ishni olib borish uchun 3 yoki 4 kolonnadan foydalilanadi va ular ventillar Ia – Ib, 2a – 2b, 3a – 3b, 4a – 4b yordamida suv yoki xavo berish trubasiga ulanadi.

Ishni ikki variantda olib borish mumkin.



1- rasm. Laboratoriya qurilmasining sxemasi.

1. Laboratoriya qurilmasining xolati tekshiriladi.
2. Laboratoriya ishini bajarilishida 3 yoki 4 kolonnadan foydalanish o`qituvchi tomonidan belgilanadi hamda juft ventillar Ia – Ib, 3a – 3b ochiladi va 2a – 2b, 4a – 4b yopiladi yoki teskarisi bajariladi.
3. Suv beriladigan idish I tuldirliladi.
4. Laborant ishtirokida talabalar havo beradigan membrana kompressori 10 ishga tushiriladi.
5. Kran 12 yordamida xavoning sarf mikdori namlamasdan sarf bo`ladigan bosimlar farqi o`lchanadi. Bu jarayon 5 martagacha takrorlanadi va kuzatuv jurnaliga yozib boriladi.
6. Nasosning 13 va 14 ventili ochiladi.
7. Laborant ishtirokida suvni tsirkulyatsiya qiluvchi nasos 2 ishga tushiriladi.
8. Ventil 13ni ochish bilan suv qurilmaga beriladi va uning miqdori rotametr 5 yordamida ko`rsatkich bo`linma chizig'i soni 20 dan oshmagan holda o`rnatiladi.
9. Kolonna 4 ish vaqtida difmanometr va bosimlar farqi qiymati kuzatuv jurnaliga yozib turiladi. Termometr yordamida to`plamdagagi 1 suvning temperaturasi o`lchab turiladi. O`lchov asboblarining birinchi ko`rsatkichlari olingandan so`ng, havoning sarf miqdori rotametr 11 kuzatish yordamida ko`rsatkich bo`linma chizig'i 40 soniga keltiriladi va o`lchov asboblarini ko`rsatkichlari yozib olinadi. Shu tarzda 5 marta havoning sarflanish miqdorini o`zgartirgan holda, hisoblash jadvaliga yozib boriladi. Havoning sarflanish miqdorini o`zgarishini o`qituvchi tomonidan beriladi yoki bir xilda o`zgarmas qilib qoldiriladi. Rotametr orqali suvning sarflanish miqdorini asta – sekin ko`paytiriladi.

Suv sarflanish miqdorining o'zgarishini difmanometrlar va rotametrlarning ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi, temperaturaning o'zgarishi hisobga olinadi.

O'qituvchi ko'rsatmasi bilan ish bajariladi:

a) variant «A» - kolonna diametri 60 mm bulgan bo'laksimon nasadkali yoki diametri 150 mm, kolonnada tajriba o'tkaziladi.

b) variant «B» - kolonna 3 diametri – 150 mm bulib, uni Rashig xalkasi bilan to'ldirilgan yoki diametri 60 mm kolonnada tajriba o'tkaziladi.

Xisoblash berilgan «A» va «B» varianti sxemasi yordamida olib boriladi va bunda erkin bo'sh hajmi ishtirok etadi, uni tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun ma'lum o'lchov idishiga nasadkalar, belgisigacha joylashtiriladi va tarozi yordamida o'lchab olinadi. So'ngra nasadkali idish belgisigacha suv tuldiriladi va taroziga kuyib tortiladi. Og'irliliklar farqi orqali erkin bo'sh hajmi topiladi (Erkin bo'sh hajmi, nasadka uchun – $0,77 \text{ m}^3/\text{m}^3$ tashkil qiladi).

«A» variant uchun tajriba ko'rsatkichlarini hisoblash.

Tajriba kolonnada o'tkaziladi. Kuzatuv ko'rsatkichlari 1 jadvaliga yoziladi.

1 jadval

Xavo oqimi uchun rotametr 2 ni ko'rsatkichlari (rotametr shkalasining bo`linma si)	Xavoning miqdorini jadvalda yoki grafik yordamida aniqlash, $G_2, \text{ m}^3/\text{s}$	Suv oqimi uchun rotametr 5 ko'rsatkichlari (rotametr shkalasining bo`linma soni), o'qituvchi ko'rsatmasi b- n	Suvning miqdorini gradirovkali grafik bo`linma soni), o'qituvchi ko'rsatmasi b- n	Difmanometr ko'rsatkichla- ri, mm.suv. ustuni	Suvning temperaturasi , $^{\circ}\text{C}$
20	to`g'ri tajriba				
40					
60					
80					
100					
100	teskari tajriba				
80					
60					
40					
20					

Namlash zichligini suvning sarflanish miqdori bo`yicha quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$U = \frac{W}{F}, \text{ m}^3/\text{m}^2 \text{ s} \quad (5)$$

bu yerda : W – suvning sarflanish mikdori, m^3/s ; F – kolonnaning ko`ndalang kesim yuzasi, m^2 .

Gazning fiktiv tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$w = \frac{4G_e}{\pi \cdot D^2} = \frac{\mathcal{M}^3}{\mathcal{M}^2 \cdot c} = \frac{\mathcal{M}}{c} \quad (6)$$

Nasadkaning ekvivalent diametri:

$$d_e = 4\Sigma/a \quad (7)$$

bu yerda ε q V-V₀/V erkin bo`sh hajmi ε q 0,38 deb olinadi; V – umumiyl donador qatlama egallangan hajmi; V₀ – qattiq donador nasadka qatlamining egallagan hajmi.

Agar umuiy donador qatlama xajmi V=1 deb olinsa, unda (1- ε) qattiq fazaning xajm kontsentratsiyasiga teng buladi; a – nasadkaning solishtirma yuzasi, $\text{m}^2\text{G}'\text{m}^3$.

Ekvivalent diametr d_e xosil qilgan qatlama donachalarning o'lchamlari orqali aniqlash mumkin. Agarda 1 m^3 qatlamda «n» donacha bo`lsa, u holda donachanining umumiyl hajm (erkin bo`sh hajmini hisobga olmagan holda) hajm konsentratsiyasiga teng bo`lsa, ya`ni (1- ε) bo`lganda uning yuzasi esa a (m^2/m^3) tengdir.

$$\text{Donachanining o'rtacha hajmi: } V_\delta = \frac{1 - \Sigma}{n} = \frac{\pi \cdot d_{yp}^3}{6} \quad (8)$$

bu yerda d_{ur} – donachanining o'rtacha diametri, u kuzatish yo`li bilan tekshiriladi, ya`ni 10 ta donacha olinib millimetrovka qog'oziga qo'yib o'zgarishlari aniqlanadi.

$$\text{Donachanining yuzasi: } F_\delta = \frac{n \cdot d}{\Phi} \quad (9)$$

bu yerda F – donachalarning shakli. Sharsimon donachalar uchun F=1 teng. Noto'g'ri shaklli donachalar uchun F = 1÷1,2 orasida buladi.

Bu holda donachanining yuzasi hajmga nisbatan

$$\frac{F_\delta}{V_\delta} = \frac{a \cdot n}{n \cdot (1 - \Sigma)} = \frac{a}{1 - \Sigma} = \frac{\pi \cdot d^2}{\Phi} \cdot \frac{6}{\pi \cdot d^3} \quad (10)$$

bundan

$$\frac{a}{1 - \Sigma} = \frac{6}{\Phi \cdot d}; \quad a = \frac{6 \cdot (1 - \Sigma)}{\Phi \cdot d} \quad (11)$$

Donachalarning ekvivalent diametri ularning shaklini hisobga olgan holda quyidagida aniqlanadi:

$$d_{\vartheta} = \frac{4\varepsilon(\Phi d)}{6 \cdot (1 - \varepsilon)} = \frac{2\Phi\varepsilon}{3(1 - \varepsilon)} \quad (12)$$

Demak, erkin hajm qatlami qiymatini va donachaning shakl formasini bilgan holda, nasadka donachasining ekvivalent diametri aniqlanadi. Nasadkaning gidravlik qarshiligini aniqlash bilan ishning asosiy maqsadiga erishiladi

$$\Delta P_{kyp} = \lambda \frac{H}{d_{\vartheta}} \cdot \frac{\rho w^2}{2}$$

bu yerda λ – karsxilik koeffitsienti – mahalliy qarshilik va ishqalanishga sarf qilingan bosimlar yig'indisini hisobga oluvchi kattalik: N – nasadka balandligi, $N=0,5\text{m}$, d_e – nasadkaning ekvivalent diametri, w va d_e qiymatlari yuqoridagi tenglamalar yordamida aniqlanadi. Gazning zichligi (havoninng) $t=20^\circ\text{C}$, $R=760 \text{ mm}\cdot\text{sim}\cdot\text{ust}$, $\rho=1,29 \text{ kg/m}^3$ ga teng.

$\lambda qf(Re)$ bo'lgani sababli, uning qiymatini Re soni formulasi orqali hisoblanadi.

Odatda quyidagi tenglama ishlatiladi:

$$1 < Re_g < 50; \quad \lambda = \frac{133}{Re_e} \quad (13)$$

turbulent rejim uchun

$50 < Re_g < 7000$ $Re = 7000$ bo`lganda turbulent rejimning avtomodel holati vujudga keladi va $\lambda \approx \text{const}$ ya'ni $\lambda \approx 2,34$.

Reynolds soni qiymatini quyidagi ifoda orqali aniqlanadi: $Re_e = \frac{wd_e \rho}{\mu_e}$ (14)

Gazlarning qovushoqligi μ_g – ilovadagi P-jadvaldan gazning temperaturasiga orqali aniqlanadi:

$$\Delta R_{nam} = 10^{VU} \Delta R_{kur} \quad (15)$$

bu yerda U – nasadkaning namlanish zichligi, $\text{m}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$; B – tajriba koeffitsienti, nasadkaning donador qatlami uchun, $V=38$.

Hisoblash natijalari 2 xisobot jadvaliga yoziladi.

2-jadval.

Gazning fiktiv tezligi, $w, \text{m/s}$	Donacha material qatlaminin g ekvivalent diametri, d_{ekv}	Reynolds soni $Re = \frac{wd_{ekv}\rho}{\mu}$	Quruq nasadkada bosimining yo'qotilishi $\Delta P_{kur}, \text{Pa}$	Namlangan nasadkada bosimning yo'qolishi $\Delta P_{nam}, \text{Pa}$	Namlangan nasadka bosimining yo'kotilishi $\Delta P_{nam}, \text{Pa}$
			Difmanometrda o'lchangan	xisoblangan	difmanometrda o'lchangan

«B» variant uchun tajriba ko`rsatkichlarini xisoblash.

Diametri 150 mm, va Rashing xalkasi (25x25 mm) nasadkasi bilan tuldirlilgan kolonnada utkazilgan tajriba natijalari 3 jadvaliga yoziladi.

3 jadval.

Havo oqimi uchun 2- rotametr ko`rsatkichlari (rotametr shkalasining bo`linma soni)	Havoning miqdorini jadvalda yoki grafik yordamida aniqlash, V, m ³ /s	Suv oqimi uchun 5 rotametr ko`rsatkichlari (rotametr shkalasining bo`linma soni), o`qituvchi ko`rsatmasi bilan	Suv miqdorini gradirovkali grafik yordamida aniqlash, W, m ³ /s	Difmanometr 7 eki 8 ko`rsatkichlari mm.suv. ustuni
20	to'g'ri tajriba			
40				
60				
80				
100				
100	teskari tajriba			
80				
60				
40				
20				

Tajriba natijalarini xisoblash

1. Namlash zichligi kolonnaning kesim yuzasiga nisbatan quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$U = \frac{W}{F}, \quad \text{m}^3/\text{m}^2 \text{ s} \quad (16)$$

2. Gazning fiktiv tezligi

$$w = \frac{4G}{\pi D^2}, \quad \frac{\mathcal{M}^3}{\mathcal{M}^2 \cdot c} \quad (17)$$

3. Ishning asosiy vazifasi:

$$\text{Nasadkaning asosiy gidrodinamik qarshiligi aniqlanadi: } \Delta P_{kyp} = \lambda \frac{H}{d_e} \cdot \frac{\rho w^2}{2} \quad (18)$$

(ya'ni 12.1 ifodadan)

Buning uchun λ va d_e aniqlanadi $d_e=4\varepsilon/a$; bu yerda : a – nasadkaning solishtirma yuzasi, m^2/m^3 ; d_e – Xalqasimon nasadkaning ekvivalent diametri; ε – nasadkaning erkin xajm; $\varepsilon_{\text{donasimon. nas.}}=0,54 \text{ m}^3\text{G}'\text{m}^3$.

Solishtirma yuzasi:

$$a_{\text{Rashig xalkasi}} = 200 \text{ m}^2/\text{m}^3$$

$$a_{\text{donasimon nas.}} = 310 \text{ m}^2/\text{m}^3$$

Karshilik koeffitsienti λ uzgaruvchan kattalikka ega bo'lib, u asosan harakat rejimiga bog'liq, ya'ni:

$$\Lambda=f(\text{Re}) \quad (19)$$

$$\text{Re}_e = \frac{wd_e \rho_e}{\mu_e} \quad (20)$$

Re_g – gazning tezligiga bog`liq bo`lgani uchun har bir tezlik ko`rsatkichi uchun alohida Reynolds kriteriyasi hisoblanadi va uning rejimiga qarab λ aniqlanadi.

$$\text{Laminar rejim uchun } \text{Re}_g < 40; \quad \lambda = \frac{140}{\text{Re}_e} \quad (21)$$

$$\text{Turbulent rejim uchun } \text{Re}_g > 40; \quad \lambda = \frac{16}{\text{Re}_e^{0,2}} \quad (22)$$

Xalqasimon nasadka uchun

$$\text{Re}_e = \frac{wd_e \rho_e}{\mu_g} \quad (23)$$

μ_g – gazning qovushqoqligi ilovadagi jadvaldan yoki nomogrammadan aniqlanadi.

B. Namlangan nasadkaning gidravlik karsxiligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\Delta R_{\text{nam}} = 10^{BU} \Delta R_{\text{kur}}$$

bu yerda U – namlash zichligi, $m^3\text{G}'\text{m}^2 \text{ s}$; B – tajriba koeffitsienti, namlangan Xalqasimon nasadka uchun $B = 51$ (ilovadagi VI jadvaldan aniklangan).

4. Hisob natijalari quyidagi shaklda 4 jadvaliga yoziladi.

4 jadval

Gazning fiktiv tezligi, $W = \frac{G_e}{F_e}$ m /s	Halqasimon nasadkaning ekvivalent diametri, de , m	Re soni	Quruq nasadkaning bosimini yo'qolishi ΔP_{kur} , Pa	Quruq nasadkaning bosimini yo'qolishi ΔP_{kur} , Pa	Namlangan nasadka bosimining yo'qolishi ΔP_{nam} , Pa	Namlangan nasadka bosimining yo'qolishi ΔP_{nam} , Pa
			hisoblangani	tajriba yo`li bilan o`lchangani	hisoblangan	tajriba yo`li bilan o`lchangani

Tekshirish uchun savollar

1. Nasadka kolonnalarning sanoatda qo'llanilishi.
2. Nasadka turlari va ularning xarakteristikasi.
3. Nasadkali kolonnalarning gidrodinamik rejimlari.
4. Gazning fiktiv va xakikiy tezligini aniqlash.
5. Namlanish zichligi, nasadkaning ekvivalent diametri.
6. Quruq nasadkaning gidrodinamik qarshiligi .
7. Namlanish zichligini nasadkali kolonnalarda gidrodinamik qarshilikka ta'siri.
8. Qanday rejim nasadkali kolonnada maksimal effektiv xisoblanadi. Uning sababi.
9. Absorberlarning tuzilishi, absorberlarni xisoblash.
10. Desorbtсиya.

Mavzu: Sochiluvchan materiallarning solishtirma yuzasini aniqlash va elaklarda fraksiyalarga ajratish

Ishdan maqsad: Xom ashylarning granulometrik tarkibini aniqlash. Ho'l va quruq usuldagagi elaklar analizi.

Kerakli xom ashyo va reaktivlar: elaklar to'plami, xom ashyo materiallari, yog'och bolg'a, aralashtirgichlar, gips formalari, shisha tayoqchalar, eksiqator.

Ishning nazariy asoslari: Maydalangan xom ashyo materiallari, massalar va ayrim materiallar zarracha yoki donachalardan tashkil topgan bo'ladi. Hajm birligida donachalar qancha ko'p bo'lsa, material dispersligi shuncha yuqori bo'ladi. Zarrachalar o'lchamlari uzunligi, e'ni, qalinligi va hajmi bilan farqlanadi. Agar material bir xil o'lchamdagagi zarrachalardan tashkil topgan bo'lsa monodispers, har xil o'lchamdagagi zarrachalardan tashkil topgan bo'lsa polidispers deyiladi.

Zarrachalar sonini ularning o'lchamlariga bog'liqligini ifodalovchi harakteristika granulometrik tarkib deyiladi. Granulometrik tarkib zarracha o'lchamlari h ni funkstiyasini ifodalaydi. Berilgan o'lchamdan kichiq yoki teng zarrachalar massa ulushi (minus bilan chiqadi) $Q=f_1(x)$.

Berilgan o'lchamdan katta yoki teng bo'lgan zarrachalar massa ulushlari (plyus bilan chiqadi) $q=f_2(x)$

Demak, har bir h uchun **$Q+q=100\%$**

Granulometrik tarkib materialning keng harakteristikasi hisoblanadi. Ko'pincha disperslieni bitta o'rtacha olingan ko'rsatkich aralashma zarrachalarini minimal o'lchamini aniqlashga imkon bermaydi. Bir xil frakstiyalar uchun turli materiallar zarrachalari o'lchamlarini taqqoslash uchun hisoblashlar bir xil olib borilishi kerak. Bunda eng kichiq frakstiya o'lchamlari diopozoni o'zgarmas bo'lishi zarur.

Solishtirma yuza – bu hajm yoki massa birligidagi hamma zarrachalarni yuzasi ρ - metall zinchligi, massa birligiga to'g'ri keladigan yuza.

Tuproqlar disperslik darajasi va xom ashylarning granulometrik tarkibi keramika va olovbardosh materiallar tenologiyasida juda muhim ahamiyatga ega zarrachalar o'lchami kichrayishi bilan nozik keramik massalarning optimal kuydirish harorati xom ashyo turiga qarab 50° - 100°C pasayadi.

Disperslik darajasi va granulometrik tarkibni aniqlash dispers analizning asosiy mohiyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dispers analizni bir necha xil usullari bor. Yangi asboblar yaratilishi bilan ularni soni yana ortib bormoqda. Eng ko'p tarqalgan elakli, sedimental mikrosqopik, adsor'stiya usullaridir.

Ishni bajarish tartibi Elakli analiz

Elakli analiz - donadorlik tarkibni aniqlashni qadimgi, eng oddiy va ko'rsatmali usullardan biridir. Bu usul ma'lum o'lchamdagagi teshikchalari bo'lgan elakda ushlanib qoladigan material miqdorini aniqlashga asoslangan. Halqaro elaklar sistemasi mavjud emas. Shuning uchun turli mamlakatlar o'zlarining elaklar naboriga ega. Bizda GOST – 3584-53 ga muvofiq elaklar shkalasi mavjud.

Teshikli va gazlamali elaklar mavjud. Teshikli elaklar metall listlarni (temir, jez, ruh) har xil kataklardagi va shakkardagi teshikchalarini shtampovka qilish yo'li bilan tayyorlanadi. Dumaloq teshikchali elaklar katta ahamiyatga ega. Laboratoriya da qo'llash uchun ular yupqa ruh temir qotishmasidan teshikchalarini o'lchami 0.5-10 mm qilib tayyorlanadi. Elakli analizni aniqlashda metall list qalinligi katta ahamiyatga ega. Yupqa listdan tayyorlangan elaklar huddi shu o'lchamdagini qalin listdan tayrlangan elakka qaraganda kattaraq bo'lakchalarini ko'proq o'tkazib yuboradi. Elaklar bilan ishlanganda teshikchalar kattaligini aniqlashda ularni yorug'lik bilan tekshirish tavsiya qilinadi. Elakli analiz ho'l va quruq usulda olib boriladi.

Ho'l usul

Ho'l usulda analiz qilish uchun material oldin quritish shkafida $105-110^{\circ}\text{C}$ da doimiy og'irlikka qadar quritib olinadi va chinni hovonchada pestik yordamida kuchsiz zarb bilan maydalanadi, keyin tehnik tarozida 0.01 gr aniqlikda zichligi γ bo'lgan keramik material shlikyerdan olinib, quruq moddani miqdori q namunani piknometr yordamida o'lchab kerakli aniqlikda topiladi. Quruq moddani miqdori q zichligi ρ ga teng bo'lgan shlicher holdagi namunani piknometr yordamida o'lchab, kerakli aniqlikda quyidagi bog'liqlik yordamida topiladi.

$$q_{ko'r} = \frac{\gamma}{\gamma - 1} (q_{nshliker} - q_{nc})$$

bu yyerda $q_{nshliker}$ – shlicherli piknometr og'irligi.

q_{nc} – suvli piknometr og'irligi.

Piknometrlarni suvli og'irligi q_{nc} haftasiga bir marta tekshirib turilishi kerak. Suspenziyani elakka quyishda elakdan oson o'tishini amalga oshirish uchun elak suv bilan to'ldirilgan yassi idishga asta-sekinlik bilan bir-necha marta botirilib olinadi. Keyin qolgan qoldiq elakdan o'tib suv tiniq holda bo'lguncha suv qo'yib turib yuviladi. Keyin ehtiyyotkorlik bilan chinni idishga solinib undagi suv quritiladi va quritish shkafida quritib sovitib tehnik tarozida qoldiq miqdori 0.01 gr aniqlikda o'lchanadi.

Quruq usul

Quruq usulda analiz qilishda $100-110^{\circ}\text{C}$ doimiy og'irlikkacha quritilgan namuna bir yoki birin ketin bir necha elakdan o'tkaziladi. 50-100 gr og'irlikdagi namuna qurilmadagi eng yuqori elakka solinadi va yuqoridagi elakni qopqog'i yopilib elash boshlanadi. Elash asbobni qiya holda tebratib va vertikal o'q atrofida aylantirib amalga oshiriladi.

Elash bir minut davomida elakdan 0.054 dan ko'p o'tilganda to'htatiladi.

Elash bir minut davomida elakdan 0.054 dan ko'p o'tilganda to'htatiladi.

Alovida elaklarda qolgan qoldiq miqdori tortilib, namunani donadorlik tartibi % larda tortiladi. Ho'l usulda analiz mayda frakstiyalarni ham aniqlashga yordam beradi va shunga muvofiq bu usul mayda dispersli materiallarni tekshirishda qo'llaniladi. Quruq usul birinsi navbatda suv ta'sir qiladigan (masalan stement) materiallarini aniqlashda va material tarkibidagi mayda frakstiyalar kam bo'lgan hollarda qo'llaniladi material o'lchamlari 0.01 mm bo'lganda quruq usul tavsiya qilinadi.

Laboratoriya ishi № 14

Mavzu: Qattiq jismlarni maydalash.

Ishdan maqsad: Yanchish mashinasini ishlash prinsipini o'rganish

Kerakli asbob va materiallari: yanchish mashinasi

Ishning nazariy asoslari: Ishlab chiqarishning ko`pchilik sohalarida mexanik jarayonlar aloxida ahamiyatga ega. Mexanik jarayonlarning tezligi qattiq jism mexanika qonunlari bilan ifodalanib bunda materiallarga mexanik kuch ta'sir qilishiga asoslanadi. Mexanik jarayonlarga maydalash, sinflarga ajratish, saralash, aralashtirish, ezish, donadorlash, o'zatish va hokazolar kiradi.

Moddalarning diffuziyasi bilan bog'liq bo`lgan jarayonlarning tezligi fazalarning o`zaro ta'sir qilish yuzasiga bog'liq bo'ladi. O`zaro ta'sir yuzasining katta bo`lishi fazalarning ichidagi modda tarqalishini va modda bir fazadan ikkinchi fazaga o'tishini tezlatadi. Yuza kattaroq bo`lsa kimyoviy jarayon ham tezlashadi. Ayniqsa kimyoviy yoki diffuzion jarayonda qattiq faza qatnashsa o`zaro ta'sir yuzasini ko`paytirish aloxida ahamiyatga ega. Qattiq fazaning yuzasini ko`paytirishga tashqi kuch ta'sirida zarrachalarni maydalash yo`li bilan erishiladi. Maydalash paytida material bo`laklarining o`lchami ancha kamayadi. Qattiq materiallarning maydalash jarayoni shartli ravishda ikki turga bo`linadi: a) yanchish, ya`ni materialni mayda bo`laklarga bo`lish (yirik, o`rtacha va mayda) b) maydalash (yupqa va o`ta yupqa).

Umuman olganda materiallarni maydalash jarayoni ezish, yorish, eyilish va zarba berish usullari yordamida olib boriladi (1-rasm). Materialning fizik-mexanik hossalari va bo`laklarining o`lchamiga ko`ra u yoki bu usul tanlab olinadi. Masalan, qattiq va mo`rt material ezish, yorish va zarba berish usuli bilan, qattiq va qovushqoqli material esa ezish va eyilish usuli yordamida maydalanadi.

Materiallarni yanchish odatda quruq (suv ishlatmasdan) usul bilan, yupqa maydalash esa ko`pincha xo`l usul bilan olib boriladi. Suv ishlatilganda chang hosil bo`lmaydi va maydalangan mahsulotni tashish osonlashadi. Dastlabki va maydalangan material bo`laklarining o`lchamlariga ko`ra maydalash jarayonining sinflarga bo`linishi 1 jadvalda berilgan.



1 rasm. Materiallarni maydalash usullari: a) ezish; b) yorish; c) eyilish;

1 jadval. Maydalash jarayonining sinflarga bo`linishi.

	Bo`lakning o`rtacha o`lchami, mm		Maydalanish darajasi
	Maydalanish	Maydalangandan so`ng	
Yirik yanchish	1500-300	300-100	2 – 6
O`rtacha yanchish	300-100	50-10	5 – 10
Mayda yanchish	50-10	10-2	10 – 50
Yupqa maydalash	10-2	2-0,75	100
O`ta yupqa maydalash	2-0,075	7,5-YU ⁻² – 1,10 ⁻⁴	-

Maydalash jarayonining samaradorligini aniqlash uchun maydalanish darajasi tushunchasi ishlataladi. Bu ko`rsatkich maydalanishgacha bo`lgan material bo`lagining o`rtacha harakterli o`lchami (d_b) ni maydalangan material bo`lagining o`rtacha harakterli o`lchami (d_m) ga nisbati bilan belgilanadi:

$$i = \frac{d_b}{d_m} \quad (1)$$

Sharsimon bo`lakning harakterli o`lchami sifatida diametr, kub shaklidagi bo`lak uchun esa qirrasimon uzunligi olinadi. Noto`g`ri geometrik shaklga ega bo`lgan bo`lakning o`rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$d_x = \sqrt[3]{l b h} \quad (2)$$

bu yerda l , b , h – material bo`lagining o`zaro perpendikular yo`nalgan uchta tomonining maksimal o`lchami. Bu o`lchamlar ichida eng kattasi (l) – uzunlik, o`rtachasi (b) – kenglik, eng kichigi (h) – qalinlik.

Maydalangan o`rtacha harakterli o`lchamini aniqlash uchun saralovchi saralagich yordamida material bir necha fraktsiyaga ajratiladi. Har bir fraktsiyadagi eng katta va eng kichik bo`lakning o`rtacha o`lchami quyidagicha aniqlanadi:

$$d = \frac{d_{\max} + d_{\min}}{2} \quad (3)$$

Aralashmadagi bo`lakning o`rtacha harakterli o`lchami quyidagicha xisoblanadi:

$$d = \frac{d_{y1}a_1 + d_{y2}a_2 + \dots + d_{yn}a_n}{a_1 + a_2 + \dots + a_n} \quad (4)$$


Bu yerda d_{y1} , d_{y2} , d_{yn} – har bir fraktsiyadagi bo`lakning o`rtacha o`lchami; a_1 , a_2 , a_n – har bir fraktsiya tarkibi, massaviy %.

Sanoatda qattiq jismlarni maydalash maqsadida turli mashina va tegirmonlar ishlataladi. Yirik yanchish uchun yassi qismli va konusli mashinadan foydalilanildi, bunday mashinalar yordamida bo`laklarining o`lchami 1500 mm dan kam bo`lmagan material maydalanib, hosil bo`lgan bo`laklarning o`lchami taxminan 100 – 300 mm atrofida bo`ladi.

Yirik yanchishdan so'ng ko`pincha material qaytadan o`rtacha va mayda yanchishga moslangan mashinalarga yuboriladi, bunday holatda donalarning o`rtacha o`lchami taxminan 100 mm dan to 10 – 12 mm gacha kamayadi. O`rta va mayda yanchish uchun vallari bo`lgan, zarba markazdan qochma va qiya qonusli yanchish mashinalari ishlataladi. Barabanli va xalqa tegirmonlarda material yupqa maydalanadi (o`rtacha o`lchami 10 – 12mm dan 2 – 0,075 mm gacha). Maydalash mashinalarining printsipial chizmalar 1.2 – rasmida berilgan. Yassi qismli yanchgichning ishlash printsipi quyidagicha bo'ladi. Yassi qismlar o`zaro davriy ravishda o`zaro yaqinlashganda material ezish, yorish va qisman eyilish printsiplari asosida maydalanadi. Konusli yanchish mashinalari bir- biriga nisbatan ekstsentrik holatda aylanadigan ikkita konuslar oralig'ida materialni sinish, ezish va qisman yeyilish printsiplari yordamida maydalashga asoslangan.

Valli yanchgichlarda material bir-biriga qarama- qarshi yo`nalgan vallar oralig'ida eziladi. Agar vallar bar xil tezlikka ega bo`lsa materialning yeyilishi ham yuz beradi. Shnekli yanchish mashinalarida material kesish va qisman yeyilish jarayonida maydalanishga uchraydi. Bolg'ali yanchgichda qattiq jism bolg'alarming zarbasi va eyilish ta'sirida maydalanadi.

Sharli tegirmonlar materialni asosan yupqa va o`ta yupqa maydalash uchun ishlataladi. Bunday mashinalar aylanuvchi yoki vibratsiya qilinadigan barabandan iborat bo`lib, ularning ichiga maydalanishi lozim bo`lgan material yuboriladi; material donalari o`zaro to`qnashib, zarba va ishqalanish kuchi asosida maydalanib ketadi. G`ildirakli tegirmonlar mayda yanchish yoki ayrim materiallar (shamot, kvarts, loytuproq va xakozo)ni dag'al yanchish uchun ishlataladi. Dag'al yanchishda maydalanishidan tashqari zichlanish, yeyilish yuz beradi hamda materialarning birgalikdagi aralashmasi hosil bo'ladi. Dezintegratorlar va aerodastali tegirmonlarning ishlash printsiplari materialga zarba berish printsipiga asoslangan. Purkovchi tegirmonlar materialarni o`ta yupqa maydalash uchun mo`ljallangan. Bunday mashinalarning ishlash printsipi katta tezlikda harakat qilayotgan havo oqimining tarkibidagi qattiq zarrachalarning bir- biriga va kamera devorlariga urilishi va ishqalanishi natijasida maydalanish yuz beradi.




2 – rasm. Maydalash mashinalarining printsipial chizmalar:

Yassi qismli yanchgich. Ushbu maydalash mashinasining konstruktiv chizmasi 1 rasmida berilgan. Mashinaning asosiy ish organlari vazifasini qo`zg'almas (1) va qo`zg'aluvchan (2) yassi qismlar bajaradi. Bu qismlar usti yemirilishga bardoshli

marganetsli po'latdan qilingan taram-taramli plitalar bilan qoplangan. Ushbu po'lat plitalar yassi qismlarning yeyilishdan himoya qiladi. Zo'zg'aluvchan yassi qism yuqori tomondan o'q (3) ga osib qo'yilgan bo'lib tebranma harakat qilishi mumkin. Qo'zg'aluvchan yassi qism (2) val (5), ekstsentriflik shatun (9) va tirgovich plitalar yordamida tebranma harakat qiladi. Qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan yassi qismlar pastki tomonidagi tor tirkishning kengligi (ya'ni mashinadan chiqayotgan maydalangan zarrachalarning o'lchami) dastaklar (7) yordamida sozlanadi.

Material qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas yassi qismlar oraliq'ining yuqori tomonidagi bo'shliqga beriladi, bunda material qo'zg'aluvchan yassi qismning tebranma harakati ta'sirida yorilish va ezish xisobiga maydalangan. Maydalangan zarrachalar asta sekin pastki tor tirkish orqli tashqariga chiqariladi. Maydalash jarayoni davom etayotganda ish rejimida qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan yassi qismlar o'rtasidagi masofa kamayadi. Mashinaga material berilmagan (ya'ni yuksiz rejimda) qo'zg'aluvchan yassi qism prujina (6) yordamida tortiladi.



3-rasm .Yanchish mashinasi.

1-qo'zg'almas yuza.2-qo'zg'aluvchan yuza. 3-qo'zg'aluvchan yuza ilmining o'qi. 4-maxovik.5-val. 6-tortgichli prujin. 7-sozlaydigan dastaklar.8-tirgauchli plitalar.9-ektsentriflik shatun.10-marganetsli po'latdan qilingan plitalar.

Yanchgichning energiya sarfi ish rejimiga ko'ra turlicha bo'ladi. Yuksiz rejimda energiya kam talab qilinadi,bu energiya mexanizmdagi ishqalanish kuchlarini engish uchun sarflanadi.Energiya asosan ish rejimda, ya'ni yuklangan material yancxilayotganda sarflanadi. Mashinaning bir me'yorda ishlashi uchun val (5) ga katta massali maxovik (4) o'rnatilgan. Maxovikning vazifasi yuksiz rejimdagi mexanik energiyani o'zida yig'ish va yuklangan materialning miqdori birdan ko'payib ketgan vaqtida (ya'ni ish rejimida) yig'ilgan energiyani sarf qilishdan iboratdir.

Yassi qismli yanchgich mashinalari tog' kemyosi, metallurgiya va rangli metallar sanoatida xom ashyoni qayta ishlashga tayyorlash maqsadida ishlatiladi.Ushbu mashinalarning eng quvvatlisi o'lchami ko'ndalang kesimi bo'yicha 1,5 m gacha bo'lgan qattiq jism bo'laklarini yanchishi mumkin.Bunday holatda yanchish mashinasi murakkab kompleksdan iborat bo'lib, ko'p energiya talab qiladi.

Bolg'ali yanchish mashinasi. Bu qurilma (3.4- rasm) zarba markazdan qochma kuchi asosida ishlaydigan yanchish mashinalari turiga kiradi. Bu mashina ichki qismi eskirishga bardoshli marganetsli po'lat plitalari bilan qoplangan kobik (1), val (2) va


valga o`rnatilgan disk (3) dan iborat. Diskda paletslar (4) yordamida bolg'alar (5) erkin joylashtirilgan. Bolg'alar ham marganetsli po`latdan tayyorlangan. Kobikning nastki qismida panjara (6) bor. Bolg'alarini bo`lgan disk 40 m/s tezlik bilan aylanma harakat qiladi.

Purkovchi tegirmon. 6 – rasmida trubali kameraga ega bo`lgan purkovchi tegirmon ko`rsatilgan. Tegirmon chegaralangan truba (1) dan iborat bo`lib, uning pastki qismida siqilgan xavo beruvchi konusli naychalar (6) joylashtirilgan. Maydalanishi lozim bo`lgan material tegirmonga injektor (5) orqali beriladi. Trubaning ichida uyurmali oqim hosil bo`ladi. Uyurmali oqimning ichidagi zarrachalarning ko`p marotaba o`zaro urilishi natijasida materialning maydalanishi yuz beradi. Oqimning tirsak (2) dan o`tishida markazdan qochma kuch maydoni hosil bo`ladi, bu maydon yordamida maydalangan material saralanadi. Katta kinetik energiyaga ega bo`lgan yirik zarrachalar trubaning tashqi devori tomonga intiladi va harakatni davom ettirib, qaytadan maydalash zonasiga tushadi. Mayda zarrachalar esa xavo oqimi bilan birgalikda qiyasimon to`sqli panjara (3) dan o`tib, truba (4) orqali qurilmadan tashqariga chiqariladi. Bu oqim so`ngra tsiklon va engil filtrlarga yuboriladi.

Purkovchi tegirmonlarda yuqori darajada bir jinsli bo`lgan maydalangan maxsulot olinadi, biroq ular ko`p miqdordagi siqilgan xavoni ishlatalish sababli katta energiya sarfini talab qiladi. Shu sababdan purkovchi tegirmonlar faqat qimmatbaho maxsulotlarni o`ta yupqa qilib maydalashda ishlataladi.

Ishni bajarish tartibi.

1.4 – chizmada tajriba o`tqazish qurilmasi ko`rsatilgan. Bu qurilma zirlangan baraban (1) ichiga aylanish valiga (2) o`rnatilgan. Bir-biriga kirib turuvchi (2.3) disklardan iborat bo`lib ular savalagich (4) lar bilan jixozlangan. Qurilma xom ashyo bunkeri (5) va tushirish kamerasiga (6) ega. Baraban yon tamonidan maxsus qopqoqga (7) ega bo`lib bu qopqoq qurilmaga boltlar (8) yordamida tortilgan. Qurilma matorga (9) ulangan bo`lib, motor vali mufta (10) yordamida qurilma vali bilan o`zaro ulangan. Qurilma qismlari rama (11) ga ulangan. Elektromotordan olingan quvvat xisobiga valning aylanishi natijasida valga o`rnatilgan disk harakatlanadi. YUqoriga xom ashyo bunkeridan berilgan material bo`laklari disk va barabanning ichki devorlari orasida keyinchalik esa disklar orasida maydalanadi. Maydalangan bo`laklar tushirish kamerasiga beriladi va u erdan tushirish tirqichi (12) orqali sarf idishga (13) ga yig'iladi.



Yirik fraktsiyadagi material donachalari tanlab olinadi va ularni tashqi o`lchamlari o`lchanadi va bu o`lchamlari ish daftariga qayd qilinib olinadi.

Keyinchalik bu material bo`laklari dezingrator qurilmasini xom ashyo bunkeriga maydalash uchun solinadi.

Qurilma ishga tushirilib uning xom- ashyo bunkeriga tanlangan xom- ashyo bo`laklari astasekinlik bilan solinadi. Qurilmaning tushirish bunkeriga sarf idish quyilib maydalangan

maxsulotlar yig'iladi. Ish jarayoni tugagandan keyin maydalangan bo'laklar o'lchamlari elaklar yordamida aniqlanadi.

Tajriba ko`rsatkichlarini xisoblash.

1. Nomuntazam shakldagi bo'laklarning o'rtacha diametrini aniqlash. Nomuntazam shakldagi bo'laklarning o'rtacha o'lchamini topish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$d_x = \sqrt[3]{l b h}$$

bu yerda l, b, h – bo'lakning uzunligi, eni, balandligi, mm.

2. Har bir fraktsiyadagi eng katta va eng kichik bo'laklarning o'rtacha o'lchami quyidagicha topiladi:

$$d_{yp} = d_{max} + d_{min} / 2$$

Aralashmadagi bo'lakchaning o'rtacha harakterli o'lchami quyidagicha topiladi:

$$d = d_{y1}a_1 + d_{y2}a_2 + \dots + d_{yn}a_n / a_1 + a_2 + \dots + a_n$$

bu yerda d_{y1}, d_{y2}, d_{yn} har bir fraktsiyadagi bo'lakning o'lchami; a_1, a_2, a_n har bir fraktsiya tarkibi, massaviy %.

Tekshirish uchun savollar.

- 1.Nima uchun sanoatda qattiq jism zarrachalari maydalanadi?
- 2.Maydalash jarayoni qanday printsiplarga asosan sinflarga bo`linadi?
- 3.Maydalash darajasini tushuntiring va bu ko`rsatkichlarni qanday xisoblash mumkin?
- 4.Qattiq materiallarni maydalash bo'yichaqanday gipotezalar bor?
- 5.Maydalashning necha printsipiial sxemalari mavjud?
- 6.Yassi qismli va bolg'ali yanchgichlar o'rtasida qanday umumiylilik va farq bor?
- 7.Sharli va purkovchi tegirmonlar qanday to'zilgan, ularning afzalligi va kamcxiliklari nimalardan iborat?
- 8.Konusli va valli yanchgich mashinalari, dezintegrator va dismembrator, barabanli va vibratsion tegirmonlar qaysi printsiplar asosida ishlaydi?

Labaratoriya mashg'ulotlari mavzulari

1	Suyuqliklarning oqish rejimlarini aniqlash.....	6
2	Trubalarning mahalliy va ishqalanish qarshiliklarini aniqlash.....	12
3	Suyuqliklarning tezligi va sarfini Pito-Prandtl naychasi bilan o'lchash....	19
4	Suyuqliklarning nasadka va teshiklardan oqishi.....	24
5	Mavhum qaynash qatlamning gidrodinamikasi.....	30
6	Markazdan qochma nasoslarning xarakteristikasi	36
7	Sentrifugalash jarayonini o'rghanish.....	42
8	Filtrlash doimiysini aniqlash.....	44
9	Truba ichida truba tipidagi isitkichdagi issiqlik berish va issiqlik o'tkazish koeffitsientini aniqlash	51
10	Eritmalarning temperatura depressiyasini aniqlash.....	59
11	Quritish qurilmasida qurish jarayonini o'rghanish	64
12	Harakatchan nasadkali kolonnalarda massa berish va o'tkazish koeffitsientlarini aniqlash.....	71
13	Sochiluvchan materiallarni solishtirma yuzasini aniqlash va elaklarda fraksiyalarga ajratish.....	81
14	Qattiq jismlarni maydalash.....	83

